



UBS Scientific Bulletin – Научный Вестник UBS – UBS Ilmiy Axborotnomasi journal ISSN:3060-5040 2025-yil 1-son



University of
Business and Science

ISSN:3060-5040

ILMIY AXBOROTNOMA

1-SON

2025



journal-ubsu.uz



UNIVERSITY OF BUSINESS
AND SCIENCE

ILMIY AXBOROTNOMA

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan berilgan 2024-yil
22-yanvardagi 210192-sonli guvohnomaga asosan chop etiladi.

UBS Ilmiy Axborotnomasi
Научный Вестник UBS
UBS Scientific Bulletin

2025-YIL 30-MART
1-SON

Bosh muharrir: University of Business and Science rektori, geografiya fanlari doktori, professor K.M. Boymirzayev

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent A.R.Nurmatov

Mas'ul texnik muharrir: N.M.Eraliyev

TAHRIR HAY'ATI

Fizika-matematika fanlari:

f-m.f.d., prof.

M.M.Rahmatullayev

f-m.f.d., prof. R.M.Xakimov

f-m.f.d., prof. G.Jorayev

f-m.f.d., prof. B.T.Samatov

f-m.f.d., prof. B.Abdulazizov

Texnika fanlari:

t.f.d., prof. R.Muradov

Biologiya fanlari:

b.f.d., akademik

K.Sh.Tojiboyev b.f.d., prof.

B.Isaqov

b.f.d., dotsent. A.Batoshev

b.f.d., dotsent. D.B.Dexqanov

b.f.d., dotsent. F.A.abdullayev

Tarix fanlari:

tar.f.d., prof. A.N.Rasulov

tar.f.d., prof. F.A.Maqsudov

tar.f.d., prof. O.Komilov

tar.f.d., prof. M.Abdullayev

tar.f.d., prof. B.J.Eshov

tar.f.d., dotsent. B.A.Usmonov

Iqtisodiyot fanlari:

i.f.d., prof. H.T.Qodirova

i.f.d., prof. O.Aripov

i.f.d., prof. R.Rashidov

i.f.d., dots. M.X.G'aniyev

i.f.d., dots. N.Sotvoldiyev

Falsafa fanlari:

s.f.d., prof. T.Fayzullayev

f.f.d., prof. A.M.Mirzahmedov

s.f.d., prof. N.B.Dexqanov

s.f.d., prof. R.Jo'rayev

s.f.d., prof. M.Raximov

Filologiya fanlari:

fil.f.d., prof. Z.Ya.Sodiqov

fil.f.d., prof. N.Ulukov

fil.f.d., prof. X.Sh.Usmonova

fil.f.d., prof. Sh.Iskandarova

p.f.d., prof. M.Sobirova

Geografiya fanlari:

g.f.d., prof. S.B.Abbasov

g.f.d., prof. B.Kamalov

g.f.d., dots. Sh.Jumaxanov

g.f.d., dots. O.T.Mirzamahmudov

g.f.d., dots. N.Alimqulov

Pedagogika va psixologiya fanlari:

p.f.d., prof. M.Sobirova

p.f.d., prof. M.R.Qodirova

p.f.d., prof.

Sh.K.Xo'jamberdiyeva

p.f.d., prof. O'Asqarova

p.f.d., prof. M.Asqarova

p.f.d., prof. H.Najmiddinova

Tahririyat manzili:

Namangan shaxri, Beshkapa ko'chasi, 111-uy.

Tel: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** info@ubsu.uz

Jurnal rasmiy sayti:

journal.ubsu.uz/index.php/main/index

Mundarija / Содержание / Contents**05.00.00 - Texnika fanlari**

Каримов.А.И. “ЭЛАСТИК ЭЛЕМЕНТЛИ МОСЛАМАДАН ЙИГИРУВ ИПИНИ ЎТИШ ЖАРАЁНИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ”.....6

07.00.00 - Tarix fanlari

Kamolov.D.J. “MAMADALI TOPIVOLDIYEV (KAZBEK) NING II-JAHON URUSHIDAGI QAHRAMONLIKLARI”.....12

Maxmudov.M.A. “MILLIY ZIYOLILARNING KUTUBXONALARNI ASRASHGA BOʻLGAN MUNOSABATINI MANBALARDA YORITILISHI”.....16

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlari

Ibrgimov.Sh.X, Mamatqulov.S.B. “KORXONALARDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH”.....24

Levakov. I. N, Oʻktamov. Sh. U. “NORASMIY IQTISODIYOTDAN RASMIY IQTISODIYOTGA OʻTISH: QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR”.....31

Raximova.M.I, Umataliyev.S.J. “ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH MASALALARI.”.....38

Ubaydullayev.A.T, Mamasodiqov.M.M. “QISHLOQ JOYLARDA MAISHIY XIZMAT KOʻRSATISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI BANDILIGINI OSHIRISHDAGI OʻRNI”.....46

Ахмедов.Х.Н. “ЯШИРИН ИҚТИСОДИЁТ ВА УНГА ҚАРШИ САМАРАЛИ КУРАШИШ ЙЎЛЛАРИ”.....53

Гадоев.А.Ў. “МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИ ХОДИМЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ МУРОСАСИЗ МУНОСАБАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА “КОМПЛАЕНС НАЗОРАТ” ТИЗИМИНИНГ АҲАМИЯТИ”.....60

10.00.00 - Filologiya fanlari

Abdulahadova.Sh, Nuriddinova.F. “TALABALARDA INGLIZ TILINI OʻRGANISHDA GAPIRISH VA TINGLASH KOʻNIKMALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIDA”.....66

Qurbonov.A.A. “XAMSA” DEBOCHASI: MAZMUN VA POETIKA”.....69

Abdulhakimova.O.A. “ERRORS IN BOOKS TRANSLATED FROM ENGLISH TO UZBEK: CAUSES AND SOLUTIONS”.....79

Nurmuhammedova.M. “DEVELOPING LISTENING SKILLS THROUGH TASK-BASED ACTIVITIES”.....83

Obilov.M.O. “DESCRIPTION AND CLASSIFICATION OF LINGUISTIC MEANS EXPRESSING MODALITY”.....87

Xasanboyev.I.A. Axmadjonov.T. “THE EFFECTIVENESS OF INDUCTIVE TEACHING TECHNIQUE IN IMPROVING STUDENTS’ ENGLISH GRAMMATICAL SKILL”.....95

13.00.00 - Pedagogika va psixologiya fanlari

Abdullayeva.K.R. “OʻQUVCHILAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHGA YOʻNALTIRILGAN AKSIOLOGIK YONDOSHUVLAR”.....100

Avazbekova.Sh. N. “BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING OʻZIGA XOS JIXATLARI”.....106

Ergasheva.U.K. “TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKILLANTIRISHDA EKOLOGIK OʻYINLARNING OʻRNI”.....113

Mo'minova.Sh.G'. "BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI INTEGRATSION-AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA MASHG'ULOT DAVOMIDA FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI".....	119
Mullaboyeva.N.Sh. Normurodova.S.N. "IQTISODIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH –ZAMONAVIY MUTAXASSIS TAYYORLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA".....	124
Mirzaliyev.O.R. "ZAMONAVIY O'QITUVCHI SHAXSINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI".....	130
Nazarov.A.T. "JISMONIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA YANGI USUL VA YONDASHUVLAR".....	138
Sodiqjonov.J.A. "INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA "YANGI O'ZBEKISTON TARIXI" FANINI O'QITISH STRATEGIYASI".....	141
Xolmatova.A.M. "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MADANIY QADRIYATLARGA XURMAT XISSINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI".....	145
Xolmirzayev.Sh.A. "HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'SMIRLAR BILAN ISHLASHDA PEDAGOGNING ROLI".....	150
Закирова.Ф. "ТИББИЁТ ПЕДАГОГИКА ВА УНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИГА ОИД АЙРИМ ИЛМИЙ МУЛОҲАЗАЛАР".....	155
Нигматов А.Н. "ПРИСЯГА ПЕДАГОГА" В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ".....	162

05.00.00 Texnika fanlari**ЭЛАСТИК ЭЛЕМЕНТЛИ МОСЛАМАДАН ЙИГИРУВ ИПИНИ ЎТИШ
ЖАРАЁНИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ**

Каримов Абдусамат Исмонович
Техника фанлари номзоди, доцент
University of Business and Science

Аннотация: Ушбу мақолада эластик элементли мосламадан ўтувчи, йигирув ипини тебранма ҳаракати жараёнини математик модели тузилган. Математик моделга асосан, йигирув ипини ўтиш жараёнидаги тебранма ҳаракатини ифодаловчи дифференциал тенглама, Даламбер принцига асосан тузилган. Ҳосил қилинган дифференциал тенглама, тегишли бошланғич шартлар асосида, MAPLE-17 дастури бўйича сонли усулда ечилиб, эластик элементни, ундан ўтувчи йигирув ип таъсиридаги ҳаракатини вақт бўйича ўзгариш қонунини олинган. Ипни эластик элементли халқадан ўтиб, кейинги “баллон”ли ҳолатга ўтганидан кейинги ҳаракат дифференциал тенгламаси ҳам тузилган. Бошланғич ва чегаравий шартлар асосида, ипни ҳаракатини аналитик ечими олинган. Йигирув ипини вертикал ўқ атрофидаги “балон” ҳолатида ҳаракат қонуниятларини ифодаловчи тегишли икки ва уч ўлчовли графиклар олинган.

Қалит сўзлар: Эластик, элемент, мослама, йигирув ип, тебаниш, ҳаракат, математика, модел, дифференциал, тенглама, Даламбер, шартлар, дастур, усул, вақт, ечим, ўқ, қонуният, график.

**МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРОЦЕССА ПРОХОЖДЕНИЯ
ПРЯЖИ ЧЕРЕЗ УСТРОЙСТВО УПРУГОГО ЭЛЕМЕНТА**

Аннотация. В данной статье создана математическая модель процесса колебаний прядильной пряжи, проходящей через устройство с упругими элементами. На основе математической модели создано дифференциальное уравнение, представляющее колебательное движение прядильной нити при прохождении прядильной нити на основе полученного принципа Даламбера. Также строится дифференциальное уравнение движения после прохождения нити через кольцо с упругими элементами и перехода в следующее «баллонное» состояние. На основе начальных и граничных условий получено соответствующее двустороннее решение. и трехмерные графики, представляющие законы движения прядильной пряжи в состоянии «шарика» вокруг полученной вертикальной оси.

Ключевые слова: Резинка, элемент, устройство, вращение, пинание, движение, математика, модель, дифференциал, уравнение, Даламбер, условия, программа, метод, время, решение, ось, закон, график.

**MATHEMATICAL MODEL OF THE PROCESS OF SPINNING
YARN PASSING THROUGH AN ELASTIC ELEMENT DEVICE**

Abstract. In this article, a mathematical model of the process of oscillation

of the spinning yarn passing through the device with elastic elements is created. Based on the mathematical model, the differential equation representing the vibrational movement of the spinning thread during the passage of the spinning thread is created based on the D'Alembert principle. received the law. The differential equation of motion after the yarn passes through the ring with elastic elements and moves to the next "balloon" state is also constructed. Based on the initial and boundary conditions, the analytical solution of the yarn movement is obtained. The relevant two- and three-dimensional graphs representing the laws of motion of the spinning yarn in the "balloon" state around the vertical axis received.

Key words: Rubber band, element, device, rotation, kicking, movement, mathematics, model, differential, equation, D'Alembert, conditions, program, method, time, solution, axis, law, graph.

1. Эластик элементли мосламадан йигирув ипни ўтиш жараёнидаги тебранма ҳаракатини математик модели.

Эластик элементли мосламадан, йигирув ипни ўтиш жараёнидаги, тебранма ҳаракатини математик модели Даламбер принцига асосан қуюдаги дифференциал тенглама орқали ифода қилинади

$$x = 0 \text{ да } m \frac{\partial^2 u_n}{\partial t^2} + cu_n = Q_0 \sin \alpha \quad (1)$$

Бу ерда: Q_0 -ипни бошланғич таранглик кучи; m -эластик пуржинали элементни массаси; c -эластик элементни бикирлик коэффиценти;

$u_n(x, t)$ –эластик элемент билан ипни биргаликдаги кўчиши ; α -эластик ипни $x \neq 0$ даги нуқтасидан ўтказилган уринма тўғри чизиқни вертикал ўқ билан ҳосил қилган бурчаги; x -вертикал йўналишдаги координата; t -вақт. α_0 -эластик ипни $x=0$ нуқтадаги вертикал ўқ билан ташкил этган бурчаги; $\sin \alpha$ – ифодани α_0 -бурчак орқали, қуйидаги ифода билан алмаштирамиз:

$$\sin \alpha = \frac{tg \alpha}{\sqrt{1 + tg^2 \alpha}} = \frac{\frac{du}{dx} + \frac{R}{H}}{\sqrt{1 + (\frac{du}{dx} + \frac{R}{H})^2}} = \sin \alpha_0 + \frac{du}{dx} \cos^3 \alpha_0 \quad (2)$$

$$\text{Бу ерда } u_n(x, t) = u(x, t) + R \frac{x}{H} \text{ деб олинган} \quad (3)$$

(2) ва (3) => (1) кўйиб қуйидаги дифференциал тенгламани ҳосил қиламиз:

$$m \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + c = Q_0 (\sin \alpha + \frac{du}{dx} \cos^3 \alpha_0) \quad (4)$$

Бу ерда $x=0$.

Энди қуйидаги алмаштиришни бажарамиз:

$$u(x, t) = \bar{u}(x, t) + \frac{Q_0}{c} (1 - \frac{x^2}{H^2}) \sin \alpha_0 \quad (5)$$

Натижада (4) нчи тенглама (5) ҳисобига қуюдагича кўринишни олади:


$$m \frac{\partial^2 \bar{u}}{\partial t^2} + c \bar{u} = Q_0 \frac{d\bar{u}}{dx} \cos^3 \alpha_0 \quad (6)$$

Бу ерда $x=0$.

$$\text{Бошланғич шартлар } t=0: \frac{d\bar{u}}{dt} = 0 \quad \bar{u}(0,0) = -\frac{Q_0}{c} \quad (7)$$

$x=0$ да (6) даги $\frac{d\bar{u}}{dx}$ – ифодани чекли ортирма $\frac{d\bar{u}}{dx} = \frac{\Delta\bar{U}}{\Delta x} = \varepsilon$ ($\varepsilon \approx 0,01$) билан алмаштириб, (6) ни чекли сонлар усулида, MAPLE-17 дастури бўйича ечамиз. Олинган натижалар 1-расмдаги графикларда келтирилган. (6) -тенгламадаги асосий катталикларни қийматлари қуюдагича қабул қилинган:

$m=2-5$ гр; $\alpha_0=40^\circ$; $c=0,6 \frac{H}{mm}$; $R=22,5$ mm; $H=240$ mm;



1-Расм. Эластик элементни, ундан ўтувчи йигурув ип таъсиридаги ҳаракатини вақт бўйича ўзгариш қонунининг графиги. (у-ўқда: салқилик u (мм), t -ўқда вақт(сек) ўзгариши кўрсатилган).

2. Ипни эластик элементли халқадан ўтгандан кейинги ҳаракатини назарий тадқиқоти

Ипни эластик элементли халқадан ўтиб, кейинги “баллон”ли ҳолатга ўтганидан сўнг, ҳаракат дифференциал тенгламаси қуйидагича ёзилади:

$$\rho \frac{\partial^2 \bar{u}}{\partial t^2} = Q_0 \frac{\partial^2 \bar{u}}{\partial x^2} + \omega^2 \rho \bar{u} + \omega^2 \rho \left(R \frac{x}{H} + \frac{Q_0}{c} \left(1 - \frac{x^2}{H^2} \right) \sin \alpha_0 \right) - \frac{2Q_0}{cH^2} \sin \alpha_0 \quad (8)$$

$\bar{u} = \bar{u}(x, t)$ -тенглик ипни, “баллон” ҳолатида ҳаракатланаётгандаги Ох-ўқига перпендикуляр йўналишдаги тўла кўчишини ифодалайди. (салқилиги) .[1]

Бу ерда: $\rho = 0.02 \frac{gp}{mm}$ ипни погонometr массаси; $\omega = 28 \text{ сек}^{-1}$ “баллон” ҳолатдаги ипни айланма бурчак тезлиги, (8)- дифференциал тенглама, чегаравий масала ҳисобланади.

Бу масалани бошланғич шартлари:

$$t=0; \bar{u}(x, t) = -\frac{Q_0}{c} \left(1 - \frac{x^2}{H^2} \right) \sin \alpha_0; \frac{d\bar{u}}{dx} = 0 \quad (9)$$

Масалани чегаравий шартлари:

$$x=0 \text{ да } m \frac{\partial^2 \bar{u}}{\partial t^2} + c\bar{u} = Q_0 \frac{d\bar{u}}{dx} \cos^3 \alpha_0; x=H \text{ да } \bar{u}(H, t) = 0; \quad (10)$$

(10) ни биринчи дифференциал тенгламасини аналитик ечими қуюдагича ёзилади:

$$\bar{u}(0, t) = 0.86 + 3.14 \cos(2\sqrt{3} \cdot t) \quad (11)$$

(11) ни (10) қўйиб, қуйидаги ифодани оламиз:

$$x=0: \bar{u}(0, t) = 0.86 + 3.14 \cos (2\sqrt{3} \cdot t)$$

$$x=H \text{ da } \bar{u}(H, t) = 0 ; \quad (12)$$

(8)-дифференциал тенгламани ечимини Фурье усулида излаймиз :

$$\bar{u}(x, t) = X(x)T(t) \quad (13)$$

$$\text{Бу ерда: } \frac{d^2 X(x)}{dx^2} = C_1 X(x) \quad (14)$$

$$\frac{d^2 T(t)}{dt^2} = a^2 C_1 T(t) \quad (15)$$

Бу ерда: $a^2 = \frac{Q_0}{\rho}$; C_1 - номалум ўзгармас коэффициент.

Натижада биз иккита оддий дифференциал тенгламаларни ҳосил қиламиз. [4] тенглама x -аргумент бўйича, бир жинсли дифференциал ҳисобланади. Шу сабабли уни қуйидаги қулай ҳолда ёзиб оламиз.

$$\frac{d^2 X(x)}{dx^2} + \lambda X(x) = 0 \quad (16)$$

Бу Штурма-Лиувилля тенгламаси деб ҳам номланади.

(16)-учун чегаравий шартлар: $x(0)=0$; $x(H)=0$

Юқоридаги шартлардан фойдалансак қуёдаги системани ҳосил қиламиз:

$$\begin{cases} C_2 = 0 \\ C_1 \sin \sqrt{\lambda} \cdot H + C_2 \cos \sqrt{\lambda} \cdot H = 0 \end{cases}$$

Системани аниқловчи детерминанти қуёдагича ёзилади:

$$A = \begin{vmatrix} \sin(\sqrt{\lambda} \cdot H) & \cos(\sqrt{\lambda} \cdot H) \\ 0 & 1 \end{vmatrix} = 0 \quad \Delta = \sin(\sqrt{\lambda} \cdot H) :$$

$\Delta = 0 \Rightarrow$ тенгламадан масалани ҳос қийматларини аниқлаш мумкин

$$\lambda = \frac{\pi^2 K^2}{H^2} \quad (17)$$

Ҳос сонларга мос (16) ни ҳос функцияларини аниқлаймиз:

$$X(x) = C_1 \sin\left(\frac{\pi K x}{H}\right) \quad (18)$$

Бу функцияни нормаллаштирамиз:

$$\frac{C_1 \sin\left(\frac{\pi K x}{H}\right) \sqrt{2}}{\sqrt{C_1^2 H}} \quad (19)$$

Натижада масалани ҳос қиймати ва ҳос функцияси кўринишни олади:

$$\lambda_k = \frac{\pi^2 K^2}{H^2} \quad X(x) = \frac{\sin\left(\frac{\pi K x}{H}\right) \sqrt{2}}{\sqrt{H}} \quad (20)$$

(15)-тенгламани (9) -бошланғич шартларни ҳисобга олиб қуйидаги кўринишда ёзишимиз мумкин:

$$\frac{d^2 T(t)}{dt^2} - 0.1 * T(t) C_2 - 201 * T(t) = 0 \quad (21)$$

Бу тенгламани ечими :

$$T(t) = C_2 \cos \left(\frac{\sqrt{10\pi^2 k^2 - 201.64}}{10} \cdot t \right) \quad (22)$$

Натижада юқоридаги асосий (8)-дифференциал тенгламани умумий ечимини қуйидаги қатор кўринишга келади:

$$\bar{u}(x, t) = \sum_{k=1}^{\infty} C(k) \cdot \cos \left(\frac{\sqrt{10\pi^2 k^2 - 201.64}}{10} \cdot t \right) \cdot \sin(k\pi x) \cdot \sqrt{2} \quad (23)$$

$C(k)$ –коэффициент бошланғич шартлар асосида аниқланади. Натижада қуйидаги ечимни оламир:

$$\bar{u}(x, t) = - \frac{9.37(k^2 + k + 0.25) \cdot \cos(2.72 \sqrt{(k+5.72)(k-4.72)} \cdot t) \cdot \sin(6.28(k+0.5)x)}{(k+0.5)^3} \quad (24)$$

Бу ерда $k=(0,1,2,3,4,5,\dots,\infty)$, бутун сонлар .

Демак “баллон” ҳолатдаги ипни вертикал ўқ Ох- атрофида айланма ҳаракатини аналитик тенгламаси (24) ифода билан аниқланади.


Нативавий умумий аналитик ечим қуйидагича ёзилади:

$$u_n(x, t) = \bar{u}(x, t) + \frac{Q_0}{c} \left(1 - \frac{x^2}{H^2} \right) \sin \alpha + \frac{R}{H} x \quad (25)$$

MAPLE-17 дастурида, k- нинг турли қийматларида (25) ни графиклари олинган.


Ипни эластик элементли халқадан ўтиб, кейинги “баллон”ли ҳолатга ўтгандан сўнг, ҳаракатини ифодаловчи графиклар 3-5 расмларда келтирилган. Ҳамда k- нинг турли қийматларидаги характерли қийматлари 1-жадвалда кўрсатилган.

Salqilik u(x,t) Graphigi



2-Расм.Йигурув ипини вертикал ўқ атрофидаги “баллон” ҳолатида ҳаракат қонунияти. (горизонтал ўқда: салқилик u(мм), вертикал ўқда Н(мм) ни ўзгариши кўрсатилган) .

Salqilik u(x,t), c=0, k=5, Graphigi



3-Расм.Йигурув ипини “баллон” ҳолатидаги ҳаракат қонунини уч ўлчовли координаталар системасида кўриниши. (у-ўқда: салқилик u(мм), t-ўқда вақт(сек)

1-жадвал. Ипни эластик элементли халқадан ўтиб, кейинги “баллон”ли ҳолатга ўтгандан сўнг, ҳаракатини ифодаловчи $u(x, t)$ функцияни $k=0, 1, 2, 3, 4, 5$ нинг турли қийматларидаги характерли қийматлари.

	$u(x, t)$ (mm)			
	0;0	0;0.05	240;0.05	$u_{max}(mm), x(mm)$
K=0				
C=0	0.07	0.07	6.99	8,46;230
C≠0	3.21	3.16	11.9	11,9;240
K=1				
C=0	0.07	0.07	12.69	15,37;230
C≠0	3.21	3.16	18.97	18,97;240
K=2				
C=0	0.7	0.7	16.22	19,71;230
C≠0	3.21	3.16	23.21	23,21;240
K=3				
C=0	0.7	0.7	17.43	21,38;230
C≠0	3.21	3.16	24.58	24,58;240
K=4				
C=0	0.7	0.7	16.81	21,26;210
C≠0	3.21	3.16	23.92	24,36;210
K=5				
C=0	0.7	0.7	20.55	21,99;160
C≠0	3.21	3.16	22.49	23,97;190

Хулосалар.

1. Йигирув ипини эластик элементли мосламадан ўтиш жараёнидаги тебранма ҳаракати математик модели тузилган.
2. Эластик элементли мосламадан, йигирув ипини ўтиш жараёнидаги, тебранма ҳаракатини дифференциал тенгламаси тузилиб .
3. Эластик элементни,ундан ўтувчи йигирув ип таъсиридаги ҳаракатини вақт бўйича ўзгариш қонунининг графиги олинган.
4. Ипни эластик элементли халқадан ўтгандан кейинги ҳаракатини назарий тадқиқоти ўтказилган.
5. Йигирув ипини “балон” ҳолатидаги ҳаракат қонунини икки ва уч ўлчовли координаталар системасида кўринишини графиклари олинган.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Д.Р.Меркин. Введение в механику гибкой нити. Москва. Наука.1980г.
2. В.М.Шапавалов, С.В.Лапшина. Введение в механику течения волоконнаполненных композитов. Москва. Физматлит. 2005 г.
- 3.С.М.Кирюхин, Ю.С.Шустов. Текстильное материаловедение. Москва Колос. 2011.
4. А.Каримов, С.Бахриддинов, М.Азамбаев. Theoretical Study of the Movement Process in the Vibration of Cotton Seeds, Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, 05-Special Issue, 2020

MAMADALI TOPIVOLDIYEV (KAZBEK) NING II-JAHON URUSHIDAGI QAHRAMONLIKLARI

Kamolov Diyorbek Jamoldin o'g'li
University of Business and Science magistranti
kamolovdiyorbek02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek o'g'loni Mamadali Topivoldiyev haqida yaqindan ma'lumot beriladi. Uning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, qahramonliklari, faoliyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Mamadali Topivoldiyev, Farg'ona, Rishton, Kazbek, Osiyo yo'lbarisi, chekist, ikkinchi jahon urushi, partizanlar, Belarus, Gitler.

ГЕРОИКА МАМАДАЛИ ТОПИВОЛДИЕВА (КАЗБЕКА) ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о сыне узбека Мамадали Топиволдиеве. Рассказывается о его участии во Второй мировой войне, его героических подвигах и деятельности.

Ключевые слова: Мамадали Топиволдиев, Фергана, Риштон, Казбек, Азиатский тигр, чекист, Вторая мировая война, партизаны, Белоруссия, Гитлер.

THE HEROIC ACTS OF MAMADALI TOPIVOLDIYEV (KAZBEK) IN WORLD WAR II

Abstract: This article provides detailed information about the Uzbek boy Mamadali Topivoldiev. It talks about his participation in World War II, his heroism, and his activities.

Keywords: Mamadali Topivoldiev, Fergana, Rishton, Kazbek, Asian Tiger, Chekist, World War II, partisans, Belarus, Hitler.

Kirish

Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) tarixdagi eng katta urush bo'di. Jahon sanoatiga ulkan zarar keltirdi. Millionlab go'daklar otasiz, ayollar beva qoldi. Turar joylar, yashsh obyektlari misli ko'rilmagan darajada vayrona bo'ldi. Urush asoratida ocharchilik yuz berdi. Shunday qilib ikkinchi jahon urushi insoniyatga eng katta talofat yetkazdi. Qariyb 60 million insonni yostig'ini quritdi. Urushda eng ko'p zararni g'olib davlatlardan bo'lgan SSSR ko'rdi. SSSR ikkinchi jahon urushida 27 mln aholisidan ayrildi. Ular ichida o'zbekistonlik jangchilar ham bo'lib, ulardan 263 000dan ziyod odam halok bo'ldi, 132 670 kishi bedarak yo'qoldi, 60 452 nafar vatandoshimiz nogiron bo'lib qaytdi. Shu bilan birgalikda qator o'zbek jangchilari yuksak qahramonliklar ham ko'rsatishdi. Ular orasida Mamadali Topivoldiyev alohida o'rin tutadi. Mamadali Topivoldiyev Ikkinchi jahon urushi qahramonlaridan biri. Mamadali urush vaqtida "Kazbek" nomi bilan

shuxrat qozondi [1]. Adolf Gitler e'tiboriga tushdi. Belorusiya o'zining ikkinchi oilasini topdi. Yaqin do'sti Ivan Rilko va onasi Anna Vasilyevna Rilko xonadonidan boshpana topdi. Ivan Rilko bilan partizanlar safida juda ko'p qahramonliklar qildi.

Mamadali Topivoldiyev 1919-yil 20-sentyabrda Farg'ona viloyati, Qo'qon uyezdi, Rishton volosti, Pandigon qishlog'i dehqon oilasida tavallud topgan. Millati o'zbek. Otasi Topvoldi (Topivoldi, Boldi) dehqonchilik bilan shug'ullangan, onasi Melibuva uy bekasi bo'lgan. Oilada 4 nafar farzand bo'lishgan, to'ng'ich farzand Mamadali, undan so'ng esa Yigitali, Mahmudjon, Oyimchaxon. Maktabda boshlang'ich ta'limni (7 yillik) tugatgandan so'ng, 1934-yildan Rishton tumani aloqa bo'limida pochta xil qilgan, Oq yer qishlog'idagi 1-mashina-traktor stansiyasi qoshidagi traktor xil kursida o'qib, kolxozda traktorchi bo'lib ishlagan.

Mamadali Topivoldiyev 1939-yilda harbiy xizmatga safarbar etilgan. Dastlab Lomja shahri (ba'zi manbalarda esa Bobruysk shahri) yonida joylashgan 130-artilleriya polkida mexanik haydovchi vazifasida xizmat qilgan. 1940-yilda Belostok shahridan polkiga qaytayotganida juda muhim topshiriqni bajarayotgan nemis josusini tiriklayin ushlagan. Topivoldiyev 1941-yildan Ikkinchi jahon urushida ishtirok eta boshlaydi. G'arbiy front tarkibida Belorussiyadagi mudofaa janglarida ishtirok etgan. Urush paytida Topivoldiyevning harbiy qismi Minsk viloyati, Borisov shahrida yaqinida nemislar qurshovida qolib ketadi. Qurshovdan faqat o'zi va safdoshi Ivan Rilko omon qolishib, oyog'idan og'ir yaralangan holda Mogilyov viloyatidagi Ivanning Paserovo (Pisarevo) qishlog'iga jo'nab ketishadi. Ivanning onasi Anna (Galina) Vasilyevna Rilko Topivoldiyevga o'z uyidan boshpana bergan, ammo qishloqdagi ayrim shaxslar Topivoldiyevning yashiringan joyi haqidagi xabar nemislarga yetkazishadi, nemis askarlari Rilko uyini tintuv qilishib, uni qamchilab jazolaydi va uyini yoqib yuborishadi. Yerto'ladagi kartoshka uyumiga ko'milib olgan Topivoldiyev yong'inda tasodifan tirik qolib, Ratsev o'rmonidagi partizanlar otryadiga qo'shiladi. Bu otryadga Topivoldiyevdan tashqari quroldoshlari Ivan Rilko va desantchi Nikolay Paxota ham qo'shilgan. Otryadga sobiq rota siyosiy rahbari Aleksandr Fyodorovich Simdyankin rahbarlik qilga [5].

1941-yil noyabrda Topivoldiyev va Paxota nemislar tomonidan egallangan Borisov shahridagi qamoq lageridan 146 nafar harbiy asirni ozod etishadi [2]. 1942-yil fevralida Krugloye shahrida razvedka chog'ida Topivoldiyev Hilfspolizei (tarjimasi "ko'makchi politsiya") tomonidan asirlikka olinadi, ammo ertasi kuni Topivoldiyev qo'riqchini o'ldirib, qochib ketadi. So'ngra 13 nafar askardan iborat partizanlik guruhi tuzib, Paserova, Dudakovich, Oglobli qishloqlarida o'z faoliyatini olib borishadi. Tez orada guruh chegara ofitseri Gerasim Aleksyevich Kirpich rahbarlik qilayotgan partizan otryadlari uyushmasiga qo'shiladi.

1942-yil may oxirida otryad kengayganligi sababli "Chekist" partizanlik brigadasi sifatida qayta tashkil etiladi. Brigada askarlari turli millat vakillari bo'lishgan, jumladan, Topivoldiyev, kgonlik G'appor Sultonov (1917—1943) o'zbek, Anatoliy Xaynatskiy, Ivan Kulikov belarus, Nikolay Fyodorov, Pavel

Golitsin rus, Nikolay Apanasenko, Vasiliy Yurchenko ukrain, Aleksandr Simdyankin, Nikolay Koyanov mordvalik, Aleksey Degoussuriysklik, Musul Majitov, Qosim Aisogaliyev qozoq, Sultan Murmaxet tatar, Ivan Ambrosimov udmurt, Danil Aidarov, Stepan Yakimov osetin, Ivan Xristolyubov mariy, Ivan Danilov chuvash, Ilderxan Umaxanov qo'miq, Multon Elkonovich yahudiy millatidan bo'lishgan.

1942-yil kuzida brigada tarkibi yanada kengayadi, ammo brigada Oliy bosh qo'mondonlik bilan hali ham o'zaro aloqa o'rnatmagandi. Qo'mondonlikka to'plangan ma'lumotlarni yetkazish Topivoldiyevga yuklatiladi. Topivoldiyev brigada tomonidan qo'lga kiritilgan fashistlarning 7 ta muhim ma'lumotini Moskvaga, ya'ni Oliy bosh qo'mondonlikka yetkazadi. Moskvada qo'poruvchilik maktabida tahsil olib, 1943-yil bahorida brigadasiga qaytib keladi. 1943-yil 28-mayda Topivoldiyev Nikolay Apanasenko bilan birga Shkolovsk tumanigi Klimovich qishlog'ida 20 nafar nemis askarlarini asir oladi.

1943-yil 13-15-iyun kunlari yakka o'zi Voronsevichi qishlog'ida nemislarning yengil va yuk avtomobillarini portlatib yuboradi.

1943-yil 26-avgustda Logovshino qishlog'ida joylashib olgan fashist otryadini bir o'zi pulemyoti bilan yo'q qiladi. Shu yilning yoz fasli oxirida safdoshi Nikolay Kayonov bilan ayollar kiyimini kiyib olgan holda Lyubanchi qishlog'iga kirib olishib, u yerda joylashgan 15 nafar nemis askarini qirib tashlaydilar. Voronsevichi qishlog'idagi jangda esa 8 nafar nemisni yo'q qilishib, 3 nafar partizanni qutqarishadi [4].

1943-yil dekabr boshida Topivoldiyev bo'linmasi bilan Tolochinsk tumani markazida joylashgan fashistlar garnizoniga hujum qilib, yuzlab asir tushgan sovet askarlarini ozod qilishadi. Askarlar orasida O'rta Osiyo vakillari ham bo'lishgan. Ular orasida keyinchalik tojikistonlik Karim Dadaboyev, qoraqalpog'istonlik Abdulla Bektemirov, Beshariq tumanidan Berdiquil Rahimov, Asakadan Qurbon Haydarov, Rahmatjon Yo'ldoshevlar partizanlik harakatiga qo'shiladilar.

1944-yil iyunida oxirgi partizanlik harakatida ishtirok etadi. Topivoldiyev Oliy bosh qo'mondonlikka yana bir muhim ma'lumotni yetkazgan. Ma'lumotda Belorussiyani ozod qilishda aholini xavfsizligini ta'minlash, muhim obyektlarning joylashuvi, dushmanga qarshi qaysi yo'nalishlarda zarba berishga oid ko'rsatmalar, partizanlar shtabida tayyorlangan maxfiy xaritalar bo'lgan. Natijada 1944-yil yozida Oliy bosh qo'mondonlik qaroriga asosan Belorussiyai to'liq ozod qilish boshlanadi va 1944-yil 3-iyul kuni Belorussiya to'laligicha ozod qilinadi.

Shundan keyin Mamadali Topivoldiyev 1944-yil 5-iyul kuni qo'mondonlik topshirig'iga ko'ra, Orsha shahri harbiy komendaturasida maxsus lavozimda faoliyat yuritadi.

Mamadali Topivoldiyev urushda bir qancha harbiy yutuqlarga erishgan, jumladan, 19 ta eshelonni, guruhi bilan 14 ta eshelonni, shaxsan o'zi esa 5 ta eshelon (shundan 4 tasini Prigan qishlog'i hududida) portlatib yuborgan, qo'l jangida 76 nafar nemis askarini yo'q qilgan, bir nafar nemis generalini asirga olgan. Topivoldiyevning asosiy quroli pulemyot bo'lgan, qayd varaqasida 150 dan ortiq nemis askarlari, ofitserlarni qirib tashlagani, 180 nafarini asir olgani, 20 dan

ortiq avtomashinani yo‘q qilgani keltirib o‘tilgan. Kazbek har bir amalga oshirgan operatsiyasidan so‘ng daraxt yoki devorga «**Kazbek**» deb xanjarda o‘yib o‘z ismini yozib chiqqan. Bu dushmanga doim qo‘rquv solib kelgan. O‘z askarlari uchun asosiy xavf ekanini anglab yetgan Adolf Gitler Kazbekning boshi uchun 50 ming marka pul, villa va ikki haftalik tatil mukofot va‘da qiladi [5].

Topivoldiyevni beloruslar, safdoshlari va nemislar “Osiyo arsloni” (yoki “Osiyo yo‘lbarsi”), “Kazbek”, “Tolya Kazbek”, “Tolik Kazbek”, “Chekist”, “Kazbek Botir” deb atashgan. Mamadali ilk bor partizanlar guruhiga qo‘shilganida, ular kimligini so‘rashsa “O‘zbek” deb javob beradi. Ular esa “Kazbek” deb eshitib, uni shunday chaqirishni boshlashadi va “Kazbek” nomi ommalashib ketadi. “Tolik”, “Tolya” nomlari esa tutingan onasi Anna Vasilyevna Topivoldiyev deb aytishga qiynalganligi sababli yuzaga kelgan. “Osiyo yo‘lbarsi”, “Osiyo arsloni” nomlari shubhasiz uning mardligi va qilgan qahramonliklari uchun atalgan.

Mamadali Topivoldiyevning qahramonliklari yerda qolmadi. Kazbek “Sovet ittifoqi qahramoni”, “Lenin ordeni”, “Qizil yulduz ordeni”, “jasurlik uchun medali”, “Jangovar xizmatlari uchun medal”, “Mehnat Qizil bayroq ordeni”, “Hurmat belgisi ordeni”, “1941-1945-yillardagi Ulug vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun medal”, “1941-1945-yillardagi Ulug vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alabaning yigirma yilligi medali”, “SSSR Qurolli Kuchlarining 50 yilligi yubiley medali” kabi medal va ordenlar bilan taqdirlangan.

Mamadali Topivoldiyev 1969-yil 6-may kuni o‘z ishxonasida (ayrim manbalarda 7-may) noma‘lum shaxslar tomonidan pichoqlanishi (qizi Mavludaxonning so‘zlariga ko‘ra, Rahim ismli telbasifat kishi pichoqlagan) tufayli fojiali halok bo‘lgan. Zohidon qishlog‘idagi qabristonga partizan safdoshlari Nikolay Apanasenko (1918—1959) va Ivan Kurushev (1916—1960) yoniga dafn etilgan. Mamadali Topivoldiyevning vafotidan so‘ng Anna Vasilyevna Farg‘onaga Kazbek uyida 1 oy yashaydi. Vasilyevna sog‘ligidagi muammo sabab yana Belorusiya qaytib ketadi va 1 yil o‘tmasdan vafot etadi. Keyinchalik Kazbekning ikki oilasi o‘rtasida bordi-keldi aloqalar bolib turgan.

Mamadali Topivoldiyev xotirasiga o‘zbek va belorus kino ijodkorlari tomonidan 2019-yili Belorussiya va O‘zbekistonda Tengiz Dumbadze boshchiligida “Ular Belorussiyaning ozod qilgandilar” (ruscha: “Они освобождали Беларусь”) hujjatli filmi namoyish etildi.

Xulosa. Mamadali Topivoldiyev o‘zining safdoshlari uchun o‘rnak bo‘la oldi. U nafaqat Belorus balki butun SSSR ning haloskoriga aylandi. U ko‘rsatgan qahramonliklar yangi davr uchun benixoya katta bo‘ldi. Qurol yaroqlar takomillashib, dushmani o‘ldirish o‘ldirish uchun masofalar ahamiyati qolmagan vaqtda Kazbek yakka kurashlarda 76 kishidan ustun kelishi haqiqiy jasoratdir. Shuncha jasoratlar ko‘rsatib Mamadali urushdan sog‘-omon qaytib keldi. Mardlik umrni qisqartirmaydi degan jummalarga yaqqol misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. To‘lqinjon Zohidov. “Kazbek” — rishtonlik partizan (o‘zbek va rus tillarida). Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2019 — 104-bet.
2. Вячеслав Апанасенко. Семья Апанасенко из кубанского хутора Братского (rus tilida), Краснодар, 2008 — 260-bet.
3. O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi (kitob-albom). Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020 — 320-bet.
4. Акмал Саидов. Парк Победы: философия мужества и стойкости (rus tilida). Ташкент: Тасвир, 2021 — 348-bet.
5. Baxtiyor Abdudafur. “Kazbek – Osiyo arsloni”

MILLIY ZIYOLILARNING KUTUBXONALARNI ASRASHGA BO‘LGAN MUNOSABATINI MANBALARDA YORITILISHI

*Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
University of Business and Science
Maxmudovmansur144@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada ziyolilarning sovet hukumatining mafkuraviy tazyiqlari oqibatida e‘tibordan chetda qolayotgan asriy qadriyatlarining bebaho durdonalari bo‘lgan madaniy meros obyektlarini, kutubxonalarni tadqiq etishga, avaylab asrashga qaratilgan chiqishlar ilmiy maqolalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Matbuot, kutubxonalar, ma‘naviy meros, madaniyat, fan, adabiyot, gaeta, jurnal, maqola, tarixiy tafakkur, “Proletar madaniyati”, “Turkiy sho‘ba”, A. E. Shmidt, A. L. Kun, M. S. Andreev, P. A. Falev, etnograf A. A. Divaev, sharqshunoslar N. G. Malliskiy va N. N. Iomudskiy.

ИСТОЧНИКОВОЕ ОСВЕЩЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ К СОХРАНЕНИЮ БИБЛИОТЕК

Аннотация: В статье анализируются научные статьи интеллектуалов, направленные на изучение и бережное сохранение объектов культурного наследия и библиотек, являющихся бесценными шедеврами многовековых ценностей, которые игнорируются из-за идеологического давления советской власти.

Ключевые слова: Пресса, библиотеки, духовное наследие, культура, наука, литература, газета, журнал, статья, историческая мысль, «пролетарская культура», «турецкая ветвь», А. Э. Шмидт, А. Л. Кун, М. С. Андреев, П. А. Фалев, этнограф А. А. Диваев, востоковеды Н. Г. Маллийски и Н. Н. Иомудский.

SOURCE COVERAGE OF THE ATTITUDE OF THE DOMESTIC INTELLIGENTSIA TO THE PRESERVATION OF LIBRARIES

Annotation: The article analyzes scientific articles by intellectuals aimed at researching and carefully preserving cultural heritage objects and libraries,

which are priceless masterpieces of centuries-old values that are being ignored due to ideological pressure from the Soviet government.

Key words: Press, libraries, spiritual heritage, culture, science, literature, Gaeta, magazine, article, historical thought, “proletarian culture”, “Turkish branch”, A. E. Schmidt, A. L. Kun, M. S. Andreev, P. A. Falev, ethnographer A. A. Divaev, orientalist N. G. Malliysky and N. N. Iomudsky.

Kirish.

Rossiyada sodir bo'lgan Fevral burjua inqilobi va Oktyabr davlat to'ntarishi imperiya tasarrufida bo'lgan xalqlar hayotida ham tubdan o'zgarish davrini boshlab berdi, ijtimoiy-siyosiy hayotda keskin burilishlar hamda evrilishlarga olib keldi. Ushbu voqealar ta'sirida Turkiston o'lkasi taraqqiyparvar kuchlari ham o'z orzu-istaklari asosida mamlakat hayotida yangiliklar qilish tashabbuslarini bildirdilar. Ammo, tashabbuslar tez orada mustabid sovet hukumati tomonidan nazoratga olindiki, buning asosi sifatida har qanday tashabbus markazning xohish irodasiga mos kelishi lozimligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolani yozishda O'zbekiston Milliy arxivining R-394-fondidagigi materiallardan foydalanilgan. Arxiv manbalarida badiiy-teatr va musiqiy-etnografik ilmiy komissiyalar mahalliy teatrlarning vujudga kelishini o'rganish, xalq o'yinlari, milliy musiqa asarlarini to'plash, xalq ijodiyotidagi etnografik hamda tarixiy materiallarni yig'ish kabi muhim ishlarni amalga oshirganligi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Manbalar Turkistonda ilmiy muassasa zarurligi shu sababli, 1918 yilda Turkiston xalq dorilfununi bilan bir paytda Turkiston davlat sharqshunoslik instituti ham tashkil etilganligi, oliygoxlar qoshida kutubxonalar tashkil etishligi to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlarni bilishimiz mumkin[12; 52-54.]. Bundan tashqari, mavzuga oid bo'lgan dissertatsiyalardan ham manba sifatida keng tahlil qilingan. Masalan, sovet hukumati tomonidan nazoratga olingan har qanday tashabbus markazning xohish irodasiga mos kelishi lozimligi qat'iy belgilab qo'yilganligi, Sovet hukumati o'zining o'tmish madaniyatidan farqlanuvchi **“Yangi madaniyat”**ni yaratishni maqsad qilgan edi. Shu asosda sovet nazariyotchilari tomonidan **“Proletar madaniyati”** nazariyasi ishlab chiqildi. Tarixchi N. Mustafaeva to'g'ri ta'kidlaganidek, “Yangi sovet davlati o'zining dastlabki faoliyati davrida o'tmish madaniyatidan farqlanuvchi “Yangi madaniyat”ni yaratishni maqsad qildi. Shu asosda “Proletar madaniyati” nazariyasi ishlab chiqildi. “Proletar madaniyat” deganda milliy an'anaviy madaniyatdan voz kechish va o'tmish madaniy merosini inkor etishni targ'ib qilish edi[4; 133.]. Qolaversa, Lunin.B, [2; 7.], Oxunjonov E, [6; 70.], Chernyavskiy E. [11; 167.]. kabi olimlarning mavzuga doir qator ilmiy asarlari ham Turkistondagi kutubxonalar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Milliy ziyolilarning kutubxonalarni asrashga bo'lgan munosabatini manbalarda yoritilishi» nomli mazkur tadqiqotni yoritishda xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, tizimlilik tamoyili asosida ish ko'rib, qiyosiy tahlil usullaridan bevosita foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Turkiston xalqining o'lkada dastlabki

kutubxonalarni tashkil etish va ularni saqlab qolishga bo'lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan uzoqni ko'zlamay, yaxshi o'ylamay olib borgan siyosati natijasida siyosiy manfaatlar yo'liga burildi. O'tmish madaniyatga nisbatan panja ostidan qarash kuchaydi. Shunga qaramasdan, rus ziyolilar va maxalliy fidoyilarining sa'y-harakatlari natijasida o'lkada milliy kutubxonalarni saqlash hamda o'rganish ishlari davom ettirildi.

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tizimi va tuzilmalaridagi keskin o'zgarishlar, tabiiyki, unda yangi ijtimoiy-siyosiy, turli tarixiy birliklarning maqsadlari hamda manfaatlarini ifodalovchi yuksalgan g'oya va mafkuralarni ham vujudga keltiradi.

1917-yilda Rossiyada sodir bo'lgan Fevral burjua inqilobi va Oktyabr davlat to'ntarishi imperiya tasarrufida bo'lgan xalqlar hayotida ham tubdan o'zgarish davrini boshlab berdi, ijtimoiy-siyosiy hayotda keskin burilishlar hamda evrilishlarga olib keldi. Ushbu voqealar ta'sirida Turkiston o'lkasi taraqqiyparvar kuchlari ham o'z orzu-istaklari asosida mamlakat hayotida yangiliklar qilish tashabbuslarini bildirdilar. Ammo, tashabbuslar tez orada mustabid sovet hukumati tomonidan nazoratga olindiki, buning asosi sifatida har qanday tashabbus markazning xohish irodasiga mos kelishi lozimligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Sovet hukumati o'zining dastlabki yillarida o'tmish madaniyatidan farqlanuvchi "Yangi madaniyat"ni yaratishni maqsad qilgan edi. Shu asosda sovet nazariyotchilari tomonidan "Proletar madaniyati" nazariyasi ishlab chiqildi. Tarixchi N. Mustafaeva to'g'ri ta'kidlaganidek, "Yangi sovet davlati o'zining dastlabki faoliyati davrida o'tmish madaniyatidan farqlanuvchi "Yangi madaniyat"ni yaratishni maqsad qildi. Shu asosda "Proletar madaniyati" nazariyasi ishlab chiqildi. "Proletar madaniyat"ning mohiyati madaniyatga rahbarlik qilishning sof sinfiyligini tashkil etar edi. U milliy an'anaviy madaniyatdan voz kechish va o'tmish madaniy merosini inkor etishni targ'ib qilib, madaniyatga jiddiy zarar etkazdi [4; 133.].

Darhaqiqat, sovetlarning "Proletar madaniyati"ni yaratishga urinishi jarayonida yangi madaniyat yaratilmadi, aksincha, bori ham yo'q qilindi. Qo'lyozmalar va kitoblar yoqildi, me'moriy yodgorliklar esa buzib tashlandi.

Bolsheviklarning yuritgan zo'ravonlik siyosati, ayniqsa, madaniy merosga bo'lgan bepisandlik munosabatiga qarshi o'laroq, milliy ma'rifatparvar ziyolilar tarixiy-madaniy merosni saqlab qolish va uni o'rganish ishlarida tashabbuskor bo'ldilar.

Sovet hukumatining dastlabki yillarida mahalliy matbuotda ko'tarilgan masalalarning eng asosiy qismini aholi orasida ma'rifatni yoyish, bu borada targ'ibotning eng samarali usullaridan foydalanish yo'llari tashkil etgan. Biroq, ushbu yillar matbuoti sahifalaridagi maqolalar davr zamondoshlarining jarayonlarga bergan bahosi hamda turli sohalarga mavjud tuzumning ta'sirini o'rganish jihatidan ahamiyatlidir.

O'lkada milliy madaniy merosni asrash masalalari haqida so'z ketganda, avvalambor, ushbu jarayonda dastlabki ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari, kutubxonalar va jamiyatlar faoliyatga nazar solish g'oyatda muhimdir.

1918-yilning boshida Turkiston Xalq Maorifi Komissarligi qoshida ochilgan dastlabki ilmiy muassasa – “Turkiy sho‘ba” (seksiya) o‘z faoliyatini boshladi. Uning tashabbuskorlaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov edi. Ushbu bo‘lim dastlabki vaqtlarda Turkiston mahalliy xalqi orasida turli madaniy tadbirlarni o‘tkazish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, 1920 yilning boshiga kelib, “Turkiy sho‘ba” millatiga qarab (o‘zbek, tatar, qirg‘iz, turkman) kichik bo‘linmalarga taqsimlandi. Keyinroq Turkiston Xalq Maorifi Komissarligining yangi tuzilmasida “Ilmiy bo‘lim” ta‘sis etildi. Mazkur bo‘lim oliy maktab, arxiv ishlari, san‘at va tarixiy yodgorliklarni qo‘riqlash qo‘mitalarining ish faoliyatlarini nazorat ostiga olib, ushbu jarayonga ko‘proq ahamiyat bera boshladi. Lekin, uning faoliyati asosan, oliy o‘quv yurtlarini tashkil qilish masalalaridan iborat bo‘lib qoldi.

Shu o‘rinda, uning samarali faoliyati tufayli vujudga kelgan, O‘rta Osiyo mintaqasida oliy ta‘limning ilk debochalari bo‘lgan Turkiston xalq dorilfununi va uning tarkibida Musulmon bo‘limi, Turkiston sharqshunoslik institutlarini qayd etish maqsadga muvofiq.

Madaniy va ma‘rifiy taraqqiyotda tarixan ulkan moddiy merosga ega bo‘lgan O‘rta Osiyoni tadqiq etish ishlari uchun sharqshunoslik sohasida yagona ilmiy muassasa zarur edi. Shu sababli, 1918-yilda Turkiston xalq dorilfununi bilan bir paytda Turkiston davlat sharqshunoslik instituti ham tashkil etilgan edi. Bu erda Sharq xalqlari tarixini o‘rganish, mahalliy millat vakillaridan sharqshunos olimlar tayyorlash, o‘lka tarixi, turmushi va madaniyatini ilmiy jihatdan tadqiq qilish kabi vazifalar amalgan oshirilgan.

Mazkur oliygoh Turkiston tarixi, turmushi va madaniyatini ilmiy jihatdan tadqiq etadigan yirik ilm dargohiga aylandi. Shuningdek, o‘quv dasturlariga Islom tarixi, musulmon huquqi (fiqh va shariat), musulmon yozuvining husnixati (kalligrafiya), musulmon san‘ati kabi fanlar ham kiritilgan [9; 112.]. Institut qoshida kutubxona ham mavjud bo‘lib, uning fondida 1920-yilning o‘zida 5600dan ortiq qimmatli kitoblar to‘plangan, ularning mingdan ortig‘ini arab va fors qo‘lyozmalari tashkil qiladi. Kutubxona fondi mahalliy millatga mansub ayrim shaxslar tomonidan o‘zlashtirilgan va u erga sovg‘a qilingan ko‘plab qimmatbaho qo‘lyozma asarlar hamda kitoblar hisobiga boyib borgan [2; 7.].

1921-yilning 17-aprelida Turkiston Respublikasi Xalq Komissarligi kengashiga N. N. Iomudskiy tomonidan “Milliy komissiyalar va o‘lka mahalliy aholisi uchun kitoblar nashri masalalari”ga doir yozma ma‘ruzasi topshiriladi [3; 125-132.]. Ushbu ma‘ruzada N. N. Iomudskiy komissiyalarning har birini asosiy vazifasi o‘z ona tilida o‘quv-ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar tuzish, o‘quvchilarni Evropa adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, Turkiston geografiyasi, tarixi, san‘ati, turmush tarzi va umuman olganda, o‘lka mahalliy aholisining o‘ziga xos madaniyatini o‘rganishdan iborat bo‘lishi kerak, degan fikrlarni bayon etgan edi.

N. N. Iomudskiyning ushbu yozma ma‘ruzasi Turkiston Respublikasi Xalq Maorifi Komissarligining kengaytirilgan majlisida tinglanib, muhokama qilingan. Shu asosda, 1921-yil iyunda mazkur bo‘lim Maorif Komissarligi huzuridagi Ilmiy

kengashga aylantirilgan [11; 167.]. Endi uning nizomida asosiy vazifa etib, fan, pedagogika, san'at, muzey, arxiv va kutubxona ishlarining nazariy hamda dasturiy masalalarini boshqarish nazarda tutilgan edi.

Mazkur Kengash Turkiston Respublikasidagi barcha muassasalarning ilmiy ishlarini muvofiqlashtirish vazifasini ham bajargan. Bundan tashqari, ushbu Ilmiy kengash tarkibida 8 ta asosiy komissiyalar ham mavjud bo'lib, bular ilmiy-pedagogik, ilmiy-siyosiy, etnografik, badiiy, muzey, arxiv, kutubxona ishlari bo'yicha va milliy komissiya (o'zbek, qirg'iz, turkman)lar edi [5; 168.]. Ushbu komissiyalarning har biri ma'lum bir vazifalarni bajarib, o'z faoliyati ilmiy yondashish va aniq ilmiy usullarni ishlab chiqishga harakat qilgan. Biroq, Ilmiy kengashning tuzilishidagi ba'zi noaniqliklar, zarur ilmiy kuchlar va mablag'ning etarli emasligi o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Ilmiy kengash qoshida samarali ishlarni amalga oshirgan o'zbek milliy komissiyasining faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur bo'lim tomonidan eski kutubxonalarni tekshirish va g'oyat qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan qadimiy kitoblarni o'zlashtirish kabi muhim vazifalarning to'liq bajarilganligi tahsinga sazovor[5; 101.]. Zero, yurtimizda azaldan ko'p asrlik an'anaviy kutubxonalar mavjud bo'lib kelgan va ulardagi kitob boyliklarini zamonga moslashtirib, kutubxonachilik talablariga javob beradigan holda saqlash hamda ularni ilmiy ravishda qo'llanilishini yo'lga qo'yish o'sha davr uchun o'ta dolzarb hisoblangan.

O'zbek milliy komissiyasidan tashqari Ilmiy Kengash huzurida faoliyat ko'rsatgan badiiy-teatr va musiqiy-etnografik ilmiy komissiyalar mahalliy teatrlarning vujudga kelishini o'rganish, xalq o'yinlari, milliy musiqa asarlarini to'plash, xalq ijodiyotidagi etnografik hamda tarixiy materiallarni yig'ish kabi muhim ishlarni amalga oshirgan[12; 52-54.]. Etnografik bo'limda bir qator yuqori malakali rus olimlari – professorlar A. E. Shmidt, A. L. Kun, M. S. Andreev, P. A. Falev, etnograf A. A. Divaev, sharqshunoslar N. G. Malliskiy va N. N. Iomudskiylar faoliyat olib borgan.

XX asr 20-yillari boshidanoq birinchi ilmiy markazning faoliyati, unda respublikadagi ilmiy jamoatchilik va ziyolilarning birlashuvi, o'zaro aloqada ish yuritish madaniyat hamda fan taraqqiyotida ma'lum darajada oldinga siljish bo'lganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida madrasalar qoshida kutubxonalar bo'lib, qo'lyozma kitoblarni to'plovchi kishilar soni ham ortib borgan. O'sha vaqtda katta er egalari bo'lgan mahalliy sarmoyadorlar ham o'z mablag'lari hisobidan madrasalar tashkil qilishga harakat qilganlar. Madrasa kutubxonalarida asosan, Sharq qo'lyozma kitoblari saqlanib, ularning katta qismi diniy, huquqiy va tarixiy xarakterdagi asarlardan iborat edi. Jumladan, akademik A. A. Semyonov tomonidan tuzilgan "Turkiston ommaviy kutubxonasi qo'lyozmalar katalogi"ga ko'ra, 1917-yilda kutubxonalardagi qo'lyozmalar fondi 250 tomni tashkil etgan[1; 18.]. Ushbu davrda kutubxonalarga Xiva va Toshkent litografiyalarida bosilgan birinchi litografik kitoblar xarid qilingan. Mazkur litografiyalar Alisher Navoiyning "Xamsa" (1880)si, Munis Devon"i, XVIII

asrning mashhur shoiri So‘fi Olloyorning “Sabotul ojiziyn (“Ojizlar matonati”)” asarlari va boshqa noyob manbalardan iborat. Toshkentda davlat xalq kutubxonasi tarkibidagi Sharq bo‘limi xodimlari Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari tillaridagi kitoblar hamda qadimiy Sharq qo‘lyozmalarini to‘plash yuzasidan katta ishlar olib bordilar, ushbu qo‘lyozmalarning ko‘plari O‘rta Osiyoning g‘oyat boy tarixiy o‘tmishini o‘rganishga doir juda qimmatli ma‘lumotlar o‘z ichiga olgan.

1918-yilda Turkiston o‘lkasidagi barcha bosmaxonalar davlat hisobiga o‘tkazilishi munosabati bilan respublikadagi mavjud barcha kitob fondlari ham davlat tasarrufiga olindi[6; 70.].

1919-yil 14-aprelda Turkiston Respublikasi Maorif Xalq Komissarligi tarkibida Kutubxonachilik bo‘limi tashkil etildi. Mazkur bo‘limning asosiy vazifasi yangi kutubxonalar tarmog‘ini tashkil etish, kutubxonalarni kitoblar va zarur jihozlar bilan ta‘minlash, respublikada kutubxonachilik ishiga umumiy rahbarlik qilishdan iborat edi. TASSR Maorif Xalq Komissarligi Kutubxonachilik bo‘limining birinchi mudiri O‘rta Osiyolik yirik kutubxonashunos va bibliograf Evgeniy Karlovich Betger (1887–1956) edi[7; 72.]. U Turkistonda kitob fondini saqlash va uni targ‘ib qilish masalalari bo‘yicha faol ish olib bordi.

Mazkur bo‘lim o‘z faoliyatini barcha turdagi kutubxonalar va kitob to‘plamlarini hisobga olishdan boshladi. Bo‘lim xodimlari Toshkent va viloyatlarda tugatilgan jamiyatlar hamda tashkilotlarning kutubxonalari, shuningdek, o‘quv yurtlari, ilmiy jamiyatlar va jismoniy shaxslarning kutubxonalarini hisobga oldilar. Masalan, TASSRning eng katta shahri bo‘lgan Toshkentda musodara qilingan barcha adabiyotlar Turkiston ommaviy kutubxonasiga keltirildi. Bu erda barcha nashrlar uchun joy etarli emasligi natijasida, 1919 yilning yozida kutubxona hovlisida yuz minglab kitoblardan iborat uyumlar hosil bo‘lgan edi. Musodara etilgan kitoblar bilan shunga o‘xshash holatlar o‘lkaning boshqa viloyat markazlarida ham kuzatilgan. 1919 yilning oktyabrida Kutubxonachilik bo‘limi musodara qilingan adabiyotlar va aholidan sotib olingan kitoblardan maxsus kitob fond tuzganligini e‘lon qildi. Dastlabki ommaviy kutubxonalarning fondlari ushbu kitoblar hisobidan tashkil etildi.

Aynan E. K. Betgerning faoliyati va jonbozligi tufayli 1918–1921-yillarda Turkistondagi ilmiy jamiyatlarning “Turon”, “Turkiston”, “Osiyo” va “Islah”, Samarqanddagi “Kutubxonai Behbudiya”, Mirzo Ulugbek madrasasi kutubxonalarida to‘plangan kitob fondlarining talon-taroj qilinishining oldi olindi. E. K. Betgerning 1922-yilda Toshkentda chop etilgan “Bibliografik tasniflashning o‘nlik sistemasi” broshyurasi kutubxonalar ishida kitob fondlarini tasniflash va saqlash bo‘yicha ilk qo‘llanmalardan biri bo‘ldi.

1919–1923-yillar oraliq‘ida turli qiyinchiliklarga qaramasdan, Turkiston davlat kutubxonasida mavjud adabiyotlar asosida Turkiston Kitob solnomasini tuzish boshlandi. N. Burov 1923-yilda “Turkiston kitob solnomasi”ni yaratdi[8; 123.].

Sharqshunos olim A. Semyonov O‘zbekistonda bibliografiya ishini tashkil etishda alohida o‘rin tutadi. Ushbu olim E. K. Betger va N. A. Burovlar bilan birgalikda O‘rta Osiyo adabiyotlarining universal ilmiy bibliografiyasini tuzish

jarayonida faol qatnashdi. 1925–1926-yillarda byuro tomonidan yaratilgan 3 ta bibliografik ko‘rsatkich A. Semyonovning tashabbusi va muharrirligi bilan nashrdan chiqdi. “O‘rta Osiyo gilamdo‘zlik materiallariga oid adabiyotlarning bibliografiyasi”, “Buxoro shahar markaziy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmalarning katalogi”, “O‘rta Osiyoda o‘zbeklar tarixiga oid vaqtli matbuot ko‘rsatkichi” nashr etildi. 1925-yilda nashr etilgan “O‘rta Osiyo gilamdo‘zligi bo‘yicha adabiyotlarning bibliografik ko‘rsatkichi”da 199 ta rus va chet el nashrlari hisobga olingan. 1920–1930-yillarda A. Semyonov ko‘plab qo‘lyozma asarlar bilan ishladi. Ilmiy jamoatchilikka axborot berish maqsadida bir qancha kataloglar tuzdi. Masalan, 1935-yilda tuzilgan “O‘rta Osiyo davlat universiteti kutubxonasidagi qo‘lyozmalar ro‘yxati” nomli ko‘rsatkich qo‘lyozmalarga doir eng yirik bibliografik qo‘llanma bo‘lib, unda 1884–1917-yillarda mahalliy litografiya (tosh bosmaxona)larda nashr etilgan 204 ta asar haqida ma‘lumotlar aks etgan.

Ushbu ko‘rsatkichdagi materiallar tili bo‘yicha joylashtirilgan, har bir bo‘lim ichida fan sohalariga ajratilgan. Mazkur bibliografik tavsif to‘liq berilgan, annotasiyada qo‘lyozma tarixi, muallifi, xattot, bezaklari va qog‘ozning sifati haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Bu ish litografik nashrlarni o‘rganish sohasidagi birinchi urinish edi[10; 3.]. Keyinchalik qo‘lyozma xazinalarini boyitish uchun aholidan kitoblar sotib olina boshlandi.

Buning uchun maxsus fond komissiyasi tuzilib, ushbu komissiya ularning qiymati va narxini belgilash bilan shug‘ullangan. Bunda faqat kitoblarni emas, balki butun boshli kutubxonalar ham sotib olingan holatlar ham sodir bo‘ldi. Masalan, o‘sha yillari ushbu komissiya tomonidan Buxoroning oxirgi qozikaloni Sharifjon mahdum va V. I. Vyatkinlarning kutubxonalari sotib olindi.

- Xalqaro savdo strategiyalari (Krugman & Obstfeld, 2018) – eksportni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tashqi bozorlarga chiqish strategiyalari va bojxona tartiblarining ahamiyatini yoritadi.

Shu asosda tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini

oshirishga oid turli strategik yondashuvlar tahlil qilindi.

2. Tadqiqot dizayni va metodlari

Tadqiqotda kombinatsiyalangan (kombinativ) yondashuvdan foydalanildi, ya'ni **miqdoriy (quantitative) va sifatli (qualitative) usullar** birgalikda qo'llanildi.

2.1. Miqdoriy tadqiqot usullari

Miqdoriy tadqiqot eksport faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, korxonalarning eksport hajmi va dinamikasini tahlil qilish uchun ishlatildi. Ushbu usullar qo'llanildi:

- **Statistik tahlil** – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi, Jahon banki, BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) va Xalqaro savdo markazi (ITC) ma'lumotlari asosida eksport salohiyatining joriy holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

- **Regressiya tahlili** – eksport hajmiga ta'sir etuvchi omillar (soliq imtiyozlari, infratuzilma, bojxona tartibotlari, xorijiy talab va investitsiyalar) o'rganildi.

- **Komparativ tahlil** – O'zbekiston eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari, Turkiya, Janubiy Koreya va Malayziya tajribasi bilan taqqoslandi.

1-Jadval.

Namangan viloyati tumanlari bo'yicha eksport hajmi (2023 yil, mln. AQShdollar)

<i>№</i>	Tuman/Shahar	Eksport hajmi (mln. AQSh dollari)
1	Namangan shahri	197
2	To'raqo'rg'on	127
3	Kosonsoy	69
4	Uychi	58
5	Chortoq	45
6	Pop	38
7	Norin	30
8	Mingbuloq	25
9	Yangiqo'rg'on	22
10	Chust	20
11	Uchqo'rg'on	18
12	Davlatobod	15
13	Yangiyer	12
14	Namangan tumani	10

Namangan viloyatining eksport yetakchisi Namangan shahri bo'lib, uning ulushi 197 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. To'raqo'rg'on tumani 127 mln. AQSh dollari bilan ikkinchi o'rinda turib, bu hududda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanganligini ko'rsatadi. Kosonsoy va Uychi tumanlari ham muhim eksport markazlari hisoblanib, ular asosan qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini eksport qiladi.

2-Jadval.

Namangan viloyati eksportining asosiy mahsulot turlari (2023 yil, mln. AQSh dollari)

	Mahsulot turi	Eksport hajmi (mln. AQSh dollari)
	To'qimachilik mahsulotlari	150
	Meva-sabzavotlar	120
	Elektr jihozlari	90
	Kimyo mahsulotlari	60
	Qurilish materiallari	50
	Boshqa	80

Namangan viloyati eksportining asosiy qismini to'qimachilik mahsulotlari (150 mln. AQSh dollari) va meva-sabzavotlar (120 mln. AQSh dollari) tashkil etadi. Bu viloyatda to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jaligi salohiyatining yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, elektr jihozlari (90 mln. AQSh dollari) va kimyo mahsulotlari (60 mln. AQSh dollari) eksportining o'sishi sanoat diversifikatsiyasiga qaratilgan sa'y-harakatlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

3-Jadval.

Namangan viloyatining asosiy savdo hamkorlari (2023 yil, mln. AQSh dollari)

№	Davlat	Eksport hajmi (mln. AQSh dollari)
1	Rossiya	180
2	Xitoy	150
3	Qozog'iston	120
4	Turkiya	100
5	Janubiy Koreya	80
6	Boshqa	120

Rossiya (180 mln. AQSh dollari) Namangan viloyatining asosiy eksport bozori hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy (150 mln.), Qozog'iston (120 mln.) va Turkiya (100 mln.) bilan hamkorlik sezilarli darajada oshgan. Ushbu davlatlar viloyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy xaridorlari hisoblanib, savdo hajmini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

4-Jadval.

Namangan viloyati eksportining yillik o'sish sur'ati (2021-2023 yy., mln. AQSh dollari)

№	Yil	Eksport hajmi (mln. AQSh dollari)	O'sish sur'ati (%)
1	2021	500	-
2	2022	600	20
3	2023	750	25

Namangan viloyatining eksport hajmi 2021 yildan 2023 yilgacha 50% ga oshgan, bu esa viloyatning eksport salohiyatining jadal o'sib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2022 yildan 2023 yilga o'tishda 25% lik o'sish kuzatilgan. Bunga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatdi:

- Davlat tomonidan berilgan soliq va bojxona imtiyozlari
- Eksportyor korxonalar uchun kredit va subsidiyalar ajratilishi
- Yangi xalqaro hamkorlik aloqalarining oʻrnatilishi

Namangan viloyatining eksport salohiyati yildan-yilga oshib borayotgani sezilarli boʻlib, toʻqimachilik, qishloq xoʻjaligi va sanoat mahsulotlari asosiy eksport yoʻnalishlari boʻlib qolmoqda. Eksport hajmining oʻsishiga yangi investitsiyalar, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi va davlat tomonidan eksportga berilayotgan imtiyozlar katta hissa qoʻshmoqda.

Kelajakda viloyat eksportini yanada rivojlantirish uchun:

- ✓ Yangi sanoat zonalarini barpo etish
- ✓ Logistika va transport infratuzilmasini yaxshilash
- ✓ Yangi eksport bozorlariga chiqish strategiyasini ishlab chiqish
- ✓ Mahalliy korxonalarni raqamlashtirish va texnologik modernizatsiya qilish zarur.

Bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Namangan viloyati nafaqat Oʻzbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining eksport markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

Namangan viloyatining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan tahlillar natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlangan:

✓ Eksport hajmi barqaror oʻsib bormoqda. Soʻnggi uch yil ichida viloyat eksporti 50% ga oshgan, bu esa hududning tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari kengayib borayotganini koʻrsatadi. Ayniqsa, toʻqimachilik, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va sanoat tovarlari eksporti yetakchilik qilmoqda.

✓ Asosiy eksport hamkorlari Rossiya, Xitoy va Qozogʻiston boʻlib qolmoqda. Eksportning katta qismi ushbu davlatlarga yoʻnaltirilgan boʻlib, yangi bozorlar topish va diversifikatsiya qilishga ehtiyoj mavjud.

✓ Mahsulot turlarining diversifikatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Toʻqimachilik va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari asosiy ulushni tashkil etsada, sanoat va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini oshirish zarur.

✓ Eksport infratuzilmasi rivojlantirilmoqda, lekin hali ham muammolar mavjud. Tashqi savdo uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida bojxona jarayonlarini soddalashtirish, transport-logistika tizimini yaxshilash lozim.

Ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini oshirish masalalari boʻyicha taklif va tavsiyalar quydagilardan iborat.

1. Yangi eksport bozorlari va diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish
 - Yangi davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirish, ayniqsa, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oʻrganish.
 - Eksport qilinayotgan mahsulotlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish.
2. Eksportyor korxonalarni qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish
 - Eksportga yoʻnaltirilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish.

• Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorda targ'ib qilish maqsadida xalqaro ko'rgazmalar va biznes forumlarda ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlash.

3. Transport va logistika tizimini rivojlantirish

• Namangan viloyatida logistika markazlari va eksport terminallarini tashkil etish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish.

• Temir yo'l va avtomobil transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ayniqsa, Xitoy va Yevropa bozorlariga chiqish uchun qulay yo'nalishlarni rivojlantirish.

4. Sanoat mahsulotlari eksportini oshirish

• Viloyatda yuqori texnologiyali mahsulotlar va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish.

• Elektronika, avtomobil qismlari va kimyo sanoati mahsulotlari eksportini oshirish bo'yicha alohida strategiyalar ishlab chiqish.

5. Raqamlashtirish va elektron tijorat imkoniyatlaridan foydalanish

• Namangan viloyati eksportchilarini Amazon, Alibaba, eBay kabi xalqaro platformalarga chiqarish, ular uchun maxsus trening va qo'llab-quvvatlash dasturlarini tashkil etish.

• Elektron bojxona tizimini keng joriy etish, eksport jarayonlarini tezlashtirish va shaffofligini ta'minlash.

Namangan viloyatining eksport salohiyatini oshirish uchun logistika, ishlab chiqarish, eksportga yo'naltirilgan biznes muhitni rivojlantirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish kabi muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion va iqtisodiy islohotlar eksportni yanada oshirishga zamin yaratadi.

Agar ushbu tavsiyalar amalga oshirilsa, Namangan viloyati nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining eksport markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. Pearson.
2. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
3. Xodjayev, S. A. (2021). O'zbekiston eksport salohiyatini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 3(1), 45-59.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024). "Eksport faoliyatini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon.
5. World Bank. (2022). Export Competitiveness Report. Washington, D.C.
6. Kotler, P., & Keller, K. (2020). Marketing Management. Pearson.
7. Norqobilov, N. T. (2022). O'zbekiston eksport strategiyasining rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiy tahlillar jurnali, 4(2), 112-126.
8. Rodrigue, J.-P., Comtois, C., & Slack, B. (2020). The Geography of Transport Systems. Routledge.

9. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi (2023). Logistika va transport xizmatlarini rivojlantirish dasturi.

QISHLOQ JOYLARDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI BANDILIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Ubaydullayev Akmaljon Tulkinboyevich
“Moliya” kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
University of Business and Science

Mamasodiqov Murodjon Maxmudjon o‘g‘li
University of Business and Science talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq joylarda maishiy xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirishning aholi bandligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maishiy xizmat sohasi yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va migratsiyani kamaytirish imkonini berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, sohaga doir muammolar va ularni hal etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq hududlari, maishiy xizmatlar, aholi bandligi, kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, migratsiya.

РОЛЬ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ В ПОВЫШЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается роль развития системы бытового обслуживания в сельских районах в повышении занятости населения. Показано, что сфера бытовых услуг способствует созданию новых рабочих мест, развитию местной экономики и снижению уровня миграции. Также предлагаются рекомендации по решению актуальных проблем данной сферы.

Ключевые слова: Сельские районы, бытовые услуги, занятость населения, малый бизнес, предпринимательство, экономическое развитие, миграция.

THE ROLE OF DEVELOPING THE HOUSEHOLD SERVICE SYSTEM IN RURAL AREAS IN INCREASING POPULATION EMPLOYMENT

Annotation: This article analyzes the role of developing household service systems in rural areas in increasing employment rates. It highlights how the service sector contributes to job creation, local economic growth, and migration reduction. Additionally, recommendations are provided to address the challenges in this sector.

Keywords: Rural areas, household services, employment, small business, entrepreneurship, economic development, migration.

Kirish.

Qishloq joylarda maishiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish masalasi bugungi kunda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida muhim o'rin tutadi. Ushbu sohaning rivoji nafaqat aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash va migratsiya jarayonlarini kamaytirishda ham katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonda shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyojlarini qondiruvchi maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu farmonda pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, 2022-yil 25-yanvarda e'lon qilingan "2022–2026-yillarda 'Obod qishloq' va 'Obod mahalla' dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda qishloq va mahallalarda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Ushbu qaror va farmonlar qishloq joylarda maishiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining muhimligini ko'rsatadi. Maishiy xizmatlarning rivojlanishi qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Qishloq joylarda maishiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar ushbu sohaning ahamiyatini va rivojlanish istiqbollarini yoritadi. Quyida ushbu mavzuga oid muhim adabiyotlar tahlil qilinadi.

Davlat Qarorlari va Dasturlari.

1. "2013–2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1957-sonli qaror (2013-yil 17-aprel):

Ushbu qaror qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal va muvozanatli rivojlantirish, aholining zamonaviy yuqori texnologik va bozor xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishni maqsad qilgan.

2. "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmon (2021-yil):

Ushbu farmon qishloq xo'jaligida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta'minlash, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi klasterlari bilan ilmiy-ishlab chiqarish hamkorligini yo'lga qo'yish, yangi ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Ilmiy Tadqiqotlar va Maqolalar.

1. "Qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va aholi turmush darajasini yuksaltirish" (Yaxyayev E.Ya., Tursunpo'latov A.N.):

Maqolada qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muammolari tahlil qilinib, aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Mualliflar xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qarashlarni ilgari suradilar.

2. "Maishiy xizmatlar tarkibiga kiruvchi faoliyat turlari va ularni rivojlantirish" (Abduraxmanov A.S.):

Ushbu maqolada maishiy xizmat ko'rsatish sohasining aholi turmush darajasi va farovonligidagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif aholining uy xo'jaligi va daromadlaridan kelib chiqib, turli maishiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini maksimal qondirish zarurligini ta'kidlaydi. КиберЛенинка

2. "Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholi turmush darajasini yuksaltirish" (Abduraxmanov A.S.):

Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qarashlar ko'rib chiqilib, qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari tahlil qilinadi. Aholi turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

3. "Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlariga ta'sir etuvchi omillar" (G.F.Quvatova):

Ushbu tadqiqotda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, xizmatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qishloq joylarda maishiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish va uning aholi bandligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ushbu tadqiqotda turli metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – qishloq joylarda xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishning hozirgi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot doirasida turli davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, hisobotlar va statistik ma'lumotlar o'rganildi. Ushbu manbalar orqali qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar haqida ma'lumot olindi.

- **Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari** – O'zbekiston bo'ylab qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

- **Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotlari** – rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganildi.

• **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari** – 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va “Obod qishloq” dasturlari doirasida belgilangan chora-tadbirlar tahlil qilindi.

• Tadqiqot doirasida qishloq joylarda yashovchi aholi va tadbirkorlar orasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ushbu so‘rovlar quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga oldi:

- Maishiy xizmatlardan foydalanish darajasini aniqlash
- Aholining xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha ehtiyojlarini baholash
- Tadbirkorlarning xizmat ko‘rsatish sohasida duch kelayotgan muammolarini o‘rganish

Tahlil va natijalar

Ushbu bo‘limda Namangan viloyati va uning tumanlarida maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining rivojlanishi tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida 4–5 ta jadval keltirilib, har bir jadval asosida tegishli tushuntirishlar beriladi.

1-jadval.

Namangan viloyatida 2022–2023 yillarda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (mlrd. so‘mda)
[11]

Yil	Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati (%)
2022	14 722,6	16,6
2023 (yanvar-sentabr)	12 803	9,5

2022 yilda Namangan viloyatida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14 722,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 16,6% o‘sish kuzatilgan. 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida esa ushbu ko‘rsatkich 12 803 mlrd. so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5% ga oshgan. Bu xizmatlar sohasining barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

2-jadval.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida xizmat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi [11]

Xizmat turi	Hajmi (mlrd. so‘m)	Jami xizmatlardagi ulushi (%)
Savdo	4 007	31,3
Transport	2 355	18,4
Moliya	2 186	17,1
Shaxsiy xizmatlar	831	6,5
Aloqa va axborotlashtirish	661	5,2
Ta‘lim	674	5,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash	362	2,8
Yashash va ovqatlanish	333	2,6

Xizmat turi	Hajmi (mlrd. so‘m)	Jami xizmatlardagi ulushi (%)
Sog‘liqni saqlash	290	2,3
Ijara	206	1,6
Me‘morchilik va muhandislik izlanishlari	138	1,1

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida savdo, transport va moliya xizmatlari jami xizmatlar hajmining asosiy qismini tashkil etgan. Ayniqsa, savdo xizmatlari 31,3% ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Bu esa ushbu sohalarning viloyat iqtisodiyotidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha 2023 yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi[11]

Hudud	Xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	Jami xizmatlardagi ulushi (%)
Namangan shahri	5 143	40
Chust tumani	890	7
To‘raqo‘rg‘on tumani	837	6,5
Uchqo‘rg‘on tumani	614	4,8
Norin tumani	563	4,4
Mingbuloq tumani	487	3,8

Namangan shahri viloyatda ko‘rsatilgan xizmatlarning 40% ini tashkil etib, yetakchi o‘rinda turadi. Chust va To‘raqo‘rg‘on tumanlari mos ravishda 7% va 6,5% ulush bilan keyingi o‘rinlarni egallaydi. Bu hududlarda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholi bandligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4-jadval.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyatida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi ulushi [12]

Ko‘rsatkich	Ulush (%)
Kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi ulushi	65,7
Xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlarning ulushi	68,5

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari muhim o‘rin tutadi. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida ushbu subyektlarning xizmatlar sohasidagi ulushi 65,7% ni tashkil etgan. Bu esa kichik biznesning xizmatlar sohasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi.

Namangan viloyatida 2023 yil yanvar-noyabr oylarida uy xo'jaliklari tarkibi [13]

Uy xo'jaliklari tarkibi	Ulush (%)
Bir kishilik uy xo'jaliklari	4,1
Ikki kishilik uy xo'jaliklari	8,9
Uch kishilik uy xo'jaliklari	12,0
To'rt kishilik uy xo'jaliklari	17,4
Besh kishilik uy xo'jaliklari	22,3
Olti va undan ko'p kishilik uy xo'jaliklari	35,3

Namangan viloyatida olti va undan ko'p kishilik uy xo'jaliklari 35,3% ni tashkil etadi. Bu esa yirik oil

Xulosa va takliflar

1. Xizmat ko'rsatish sohasi qishloq joylarda aholi bandligini oshirishning muhim omili

- Namangan viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi yildan-yilga ortib bormoqda, ayniqsa, savdo, transport va moliyaviy xizmatlar yetakchi o'rin tutmoqda.

- Hududlarda xizmatlar sohasi rivojlanishi orqali ish o'rinlarini ko'paytirish mumkin, bu esa ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Taklif: Davlat tomonidan qishloq joylarda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

2. Hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish zarur

- Namangan shahri viloyatda xizmatlar sohasi bo'yicha yetakchi hisoblanadi va umumiy xizmatlar hajmining 40% ini tashkil etadi, tumanlarda esa bu ko'rsatkich pastroq.

- Xizmatlar sohasining notekis rivojlanishi tumanlarda iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Taklif: Tumanlarda xizmatlar tarmog'ini kengaytirish uchun soliq imtiyozlari berish, kredit ajratish va infratuzilmani rivojlantirish lozim.

3. Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash

- Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari ulushi 65,7% ni tashkil etadi, bu esa ularning sektor rivojlanishidagi o'rnini ko'rsatadi.

- Ko'plab tadbirkorlar moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi, kadrlar tayyorlash muammolari va talabning pastligi bilan duch kelmoqda.

Taklif: Banklar va moliyaviy institutlar tomonidan qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun yengilliklar yaratish lozim.

4. Raqamli xizmatlarni rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy etish

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xizmatlar sohasida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

- Masofaviy xizmatlar, elektron savdo va onlayn xizmatlar talabni oshirishga yordam beradi.

Taklif: Raqamli xizmatlarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va grantlar ajratilishi kerak.

5. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini kuchaytirish

- Hududlarda malakali mutaxassislarning yetishmovchiligi xizmat ko'rsatish sifati va biznes rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Taklif: Hududiy kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida xizmat ko'rsatish sohasiga ixtisoslashgan dasturlar tashkil etilishi lozim.

Umuman olganda, qishloq joylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilsa, aholi bandligi oshadi, hududiy iqtisodiy farovonlik yuksaladi va tadbirkorlik faoliyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 30-iyundagi PQ-200-sonli "Qishloq joylarda xizmatlar va servis sohasini rivojlantirish to'g'risida" gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PF-101-sonli "Xizmatlar sohasini jadallashtirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekiston hududlarida xizmatlar sohasi ko'rsatkichlari" - 2023-yil yanvar-sentyabr oylarining statistik byulleteni. (stat.uz)

4. Xasanov A. (2022). "Qishloq hududlarida xizmatlar sohasi rivojlanishining ahamiyati va istiqbollari". Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №4, 78-89-betlar.

5. Karimov B. (2023). "Xizmatlar sohasi va qishloq aholisining bandligi o'rtasidagi bog'liqlik". O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, №1, 45-57-betlar.

6. Mahmudov U. (2021). "Raqamli xizmatlar tarmog'ini rivojlantirish orqali qishloq hududlarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish". O'zbekiston iqtisodiy tahlillari jurnali, №3, 112-126-betlar.

7. Rahimov D. (2020). "Qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari". Toshkent iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali, №5, 67-79-betlar.

8. Sobirov I. (2021). "O'zbekiston qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish yo'nalishlari". Iqtisodiy tahlillar va prognozlash, №2, 88-101-betlar.

9. Namangan viloyatining xizmatlar sohasi bo'yicha iqtisodiy sharh. Review.uz, 2023-yil. (review.uz)

10. Andijon va Namangan viloyatlarida aholi soni va xizmatlar hajmi bo'yicha rasmiy tahlil. AndStat.uz, 2023-yil. (andstat.uz)

1. Review.uz sayti ochiq ma'lumotlari asosida tayyorlangan

2. Namstat.uz sayti ochiq ma'lumotlari asosida tayyorlangan

3. Stat.uz sayti ochiq ma'lumotlari asosida tayyorlangan

ЯШИРИН ИҚТИСОДИЁТ ВА УНГА ҚАРШИ САМАРАЛИ КУРАШИШ ЙЎЛЛАРИ

Ҳ. Н. Ахмедов

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Иқтисодиёт” кафедраси доценти*

Аннотация: Мақолада яширин иқтисодиётга илмий ёндашувлар, яширин иқтисодиётнинг ўзига хос хусусиятлари, унинг мамлакат иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий ҳаётига нисбатан таъсири, унинг келиб чиқиш сабаблари ҳамда салбий оқибатларини илмий жиҳатдан тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: Яширин иқтисодиёт, ялпи ички маҳсулот, коррупция, инфляция, солиқ тизими, бюджет тақчиллиги, рақобат, рақамлаштириш, криминал иқтисодий фаолият, иқтисодиётни криминаллашуви.

ТЕНЕВАЯ ЭКОНОМИКА И СПОСОБЫ ЭФФЕКТИВНОЙ БОРЬБЫ С НЕЙ

Аннотация: В статье исследованы научные подходы к теневой экономике, особенности теневой экономики, ее влияние на экономическую, социальную и политическую жизнь страны, причины ее возникновения и негативные последствия.

Ключевые слова: Теневая экономика, валовой внутренний продукт, коррупция, инфляция, налоговая система, бюджетный дефицит, конкуренция, криминальная экономическая деятельность, криминализация экономики, цифровизация.

THE SHADOW ECONOMY AND WAYS TO EFFECTIVELY COMBAT IT

Abstract: The article examines scientific approaches to the shadow economy, the features of the shadow economy, its impact on the economic, social and political life of the country, the causes of its occurrence and negative consequences.

Key words: Shadow economy, gross domestic product, corruption, inflation, tax system, budget deficit, competition, macroeconomic policy, criminal economic activity, criminalization of the economy, digitalization.

Кириш. Маълумки, мамлакатда “яширин иқтисодиёт” даражасининг юқорилиги порахўрлик даражасининг ҳам юқори даражада бўлишига замин яратади [1]. Паст даромадли давлатларда “яширин иқтисодиёт” кўлами ошиши билан коррупция даражаси ҳам ошиши аниқланган [2].

Жаҳон иқтисодиётида “яширин” иқтисодий фаолиятлар диверсификациясининг кенгайиши ва уларни идентификация қилиш жараёнларининг мураккаблашуви натижасида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш чораларини рақамлаштириш тенденцияси кучаймоқда. 2022 йилга келиб “...яширин иқтисодиёт улуши ЯИМга нисбатан ўрта ва паст даромадли мамлакатларда 35, Европа Иттифоқи мамлакатларида – 17,3,

бошқа ривожланган мамлакатларда 7,3 дан 26,9 гача, 2023 йилда эса 163 та давлат ўртасида ўртача 30,4 фоизни ташкил қилди” [3]. Ушбу ҳолат “яширин сектор”ни “соя”дан чиқишга рағбатлантириш, норасмий фаолият турларини минималлаштириш ва легаллаштиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштиришни тақоза этмоқда.

2020 йилда Ўзбекистоннинг яширин иқтисодиёти ҳажми 245 триллион сўмни ташкил этган. Молия вазирлиги томонидан яширин иқтисодиётни, жумладан, савдо ва умумий овқатланиш, автомобил транспорти, уй-жой қуриш ва реконструкция қилиш, турар жой хизматлари кўрсатиш соҳаларида яширин иқтисодиётни тубдан қисқартириш бўйича ҳужжат лойиҳаси тайёрланди. Мамлакатимизда яширин иқтисодиёт даражасини пасайтириш, тадбиркорлик фаолиятини юритиш учун, шу жумладан тартибга солиш ва маъмурий юкни камайтириш ҳисобига тенг рақобат шароитларини яратиш, солиқ қонунчилиги талабларига риоя қилиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш ва унинг тартибини соддалаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6098-сон қарори[4] қабул қилинди. Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва рақобат муҳитини яратиш мақсадида Молия вазирлиги 2021-йилдан бошлаб бир йил мобайнида жисмоний шахслар томонидан тўлов тизимига мажбурий ўтиш учун банк карталари ва контакtsiz тўловларни умумий белгиланган солиқлар фақат умумий овқатланиш ва ресторан хизматлари соҳасидаги кичик корхоналар учун жами даромадлар таркибига киритмасликни таклиф қилди. Риэлторларга солиқ юки (25 – 13 %гача) камайтирилди, қурилиш ташкилотларига ишчиларни шартнома тузмасдан ишга ёллашга рухсат берилди. Ушбу фармон яширин сектор кўламини қисқартириш учун асос бўлиб хизмат қилади, унинг мазмуни яширин иқтисодиётни қисқартириш бўйича махсус комиссиялар тузиш, вазирликлар, марказий идоралар, Банк, Солиқ қўмитаси, Худудлараро давлат солиқ инспекцияси ва Ҳисоб палатаси томонидан ҳудудий даражада яширин иқтисодиёт ва коррупцияни камайтириш бўйича “йўл хариталари”ни ишлаб чиқиш ва улар ўртасида вазифаларни тақсимлашни назарда тутувчи ташкилий ишларга бағишланган.

2021 йилда Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий ривожланиш ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги Ўзбекистон Республикасида яширин иқтисодиёт улушини камайтириш бўйича кўрилаётган чора-тадбирлар тизимини эълон қилди.

Янги Ўзбекистонни 2022–2026-йилларда ривожлантириш стратегиясининг 34-мақсадида 2022–2026-йилларда хизмат кўрсатиш соҳасининг жозибадорлигини ошириш билан бир қаторда яширин иқтисодиёт улушини уч баробарга қисқартириш кўзда тутилган. Фармонда иқтисодиётни рақамлаштиришга алоҳида эътибор қаратилган. Давлат хизматлари соҳаси, давлат ва қонун чиқарувчи ҳокимият, барча аҳоли пунктлари инфратузилмаси, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаси, халқ

таълими тизими, қурилиш, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш, соғлиқни сақлаш ва қуролли кучларни рақамлаштириш кўзда тутилган муҳим йўналишлардир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясининг амалга оширишга оид давлат дастурида «яширин иқтисодиёт»нинг улушини қисқартириш бўйича бир қатор чора-тадбирларни амалга ошириш назарда тутилган.

Мазкур ижтимоий-иқтисодий ҳодиса, Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги техникасига кўра, “яширин иқтисодиёт”, илмий атамаларда эса “яширин иқтисодиёт”, “хуфиёна иқтисодиёт” сифатида талқин қилинади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти(БМТ)нинг “Кўк китоб”ида яширин иқтисодиётга нисбатан 3 хил тушунча берилган бўлиб, “ёпиқ”, “норасмий” ва “ноқонуний” иқтисодиёт деб юритилган [5].

“Ёпиқ” иқтисодиёт – тадбиркорлик субъектларига қонунларда иқтисодий фаолият юритишлари тақиқланмаган, аммо ушбу субъектлар ўзларининг иқтисодий манфаатларини устун қўйиб, солиқлар ва бошқа тўловлардан бўйин товлаб, иқтисодий фаолият тури билан шуғулланишлари таъкидланади.

“Ноқонуний” иқтисодиёт сифатида бозор талабларига тез жавоб қайтариш хусусиятига эга бўлган, ноқонуний, лицензияланмаган моддий-товар бойликларини ишлаб чиқариш, сотиш, хизматлар кўрсатиш киритилган.

Демак, яширин иқтисодиётнинг хусусияти бир томондан унинг “кўринмас”лиги бўлса, иккинчи томондан яширин иқтисодиётни ҳисоблашдаги ёндашувларнинг ҳар-хиллигидадир, учинчи томондан эса, давлатлар томонидан яширин иқтисодиётга нисбатан муносабатларнинг бир биридан фарқланишидадир.

1983 йилда Германиянинг Белфелд шаҳрида биринчи бор яширин иқтисодиётга қарши кураш юзасидан халқаро конференция ташкил этилди. 1991 йилда Женевада “яширин” ва “норасмий” иқтисодиётга бағишланган илмий амалий конференция бўлиб ўтди [6].

Фикримизча, яширин иқтисодиётнинг таркибий тузилишини тадқиқ этиш учун аввалом бор унинг ўзига хос хусусиятлари, жамиятнинг ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ҳаётига нисбатан юзага келтириши мумкин бўлган салбий таъсирлари, таҳдидларини таснифлаб олиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Ю.Латов[7] яширин иқтисодиёт таркибини қуйидаги турларга бўлади: “Иккинчи (оқ ёқали) яширин иқтисодиёт” – бу норасмий ва ноқонуний, яширин фаолият тури бўлиб, бу каби фаолият эгаларининг асосий даромад манбаи уларнинг расмий касбий фаолият туридан олинadиган ноқонуний даромадлари ҳисобланади. Иккинчи яширин иқтисодиёт субъектлари сифатида асосан раҳбарлик лавозимларида ишловчиларни, мансабдор

шахсларни ёки идоравий ходимларни келтириш мумкин. Шунинг учун ушбу ноқонуний иқтисодий фаолият тури “оқ ёқали” яширин иқтисодиёт дейилади. Иккинчи яширин иқтисодиёт фаолият турининг ўзига хос жиҳати – бундай ноқонуний иқтисодий фаолият субъектлари жамиятда тўғридан тўғри ҳеч қандай хизмат кўрсатмайди ёки моддий неъматлар ҳам яратмайди. Улар фақатгина ижтимоий даромадларни ноқонуний қайта тақсимланишида иштирок этади.

“Кулранг яширин иқтисодиёт”–бу иқтисодиётнинг норасмий секторларидан ҳисобланиб, унинг ўзига хос жиҳати, маълум даражада қонунда рухсат этилган легал ёки қисман рухсат этилган яримлегал иқтисодий фаолият тури ҳисобланади. Унинг ўзига хос жиҳатларидан бири, расмий статистик ҳисобларда қайд қилинмайди. Бундан ташқари, бу каби иқтисодий фаолият тури билан шуғулланувчиларнинг асосий характерли томони, кулранг яширин иқтисодиёт субъектлари томонидан давлат бюджетига солиқлар, йиғимлар ёки бошқа тўловлардан қочиш мақсадида реал даромадларини камайтириб кўрсатишга ҳаракат қилади. Кулранг яширин иқтисодиёт асосан ривожланаётган давлатлар иқтисодиётига хос ҳисобланади.

“Қора яширин иқтисодиёт”–иқтисодий жиноятчилик фаолияти бўлиб, энг аввало, уюшган жиноятчилик билан боғлиқ. Бундай иқтисодий фаолиятнинг ўзига хос хусусияти шундаки, унинг субъектлари қонунда тақиқланган, ўта камёб бўлган товарлар моддий бойликларини сотиш, хизматлар кўрсатиш, наркотик моддаларнинг ноқонуний савдоси, фоҳишабозлик, ноқонуний қимор ўйинлари, рекёт ва бошқа фаолият турлари билан шуғулланади [8].

Яширин иқтисодиётга берилган таърифлар ўрганилганида, унга нисбатан турлича ёндашувлар мавжудлиги маълум бўлди. Жумладан, россиялик олимлар унга нисбатан қуйидаги таърифларни беришган:

Ю.Латов яширин иқтисодиёт (shadow economy) – бу давлат назорати ва ҳисобидан ташқаридаги ҳўжалик юритиш фаолиятидир, шу билан бирга у расмий статистикада ўз аксини топмайди дея таърифлайди [8; 14].

Яширин иқтисодиётни келтириб чиқарувчи сабаблар хусусида. А.Бекряшев ва А.Белозеровларнинг фикрича, яширин иқтисодиётни келтириб чиқарувчи сабаблар қуйидагилар:

- бозор тўғрисидаги маълумотларнинг тўлиқ эмаслиги;
- бозорнинг жамият манфаати учун фаолият юритмаслиги;
- бозорнинг ташқи салбий омилларга қарши самарали тура олмаслиги;
- бозорнинг ижтимоий тенгсизликка қарши тура олмаслиги;
- қарорлар қабул қилишда бозор тўғрисида объектив маълумотларнинг етишмаслиги;
- сиёсий жараёнларнинг мукамал эмаслиги;
- давлат аппарати устидан назорат қилиш имкониятининг чекланганлиги;
- анонимлик [9].

Яширин иқтисодий фаолиятни юзага келишига сабаб бўлувчи омиллардан яна бири сифатида монополияларнинг мавжудлиги. Бу билан якка ишлаб чиқарувчи бозорда нарх сиёсатини танҳо белгилаб, юқори даромад олишга ҳаракат қилади. Бозорда якка ҳокимлик (монополлик)ни қўлдан бой бермаслик учун турли ҳил лобби гуруҳлар билан олдиндан тил бириктириш ҳаракатлари амалга оширилади.

Жамиятда иқтисодий муносабатларни тартибга солувчи ҳуқуқий базадаги камчиликлар ҳам мамлакатда яширин иқтисодиётни ривожланишига ижобий таъсир омил сифатида эътироф этилади. Жумладан, бизнесни бошлаш жараёнида бюрократиянинг ҳаддан зиёдлиги, солиқларнинг кўплиги, солиқ юкларининг оғирлиги, бошқа бошланғич тўловларнинг кўплиги иқтисодий фаолият субъектларини расмий даромадларини беркитишга ундаши маълум қилинади.

Бундан ташқари, жамиятда иқтисодий фаол аҳоли меҳнатига нисбатан тўланадиган меҳнат ҳақининг камлиги ҳам яширин иқтисодий муносабатлар ривожига таъсир этади. Яъни меҳнат билан шуғулланувчи ишчи хизматчиларга ойлик иш ҳақлари ва уларга тенглаштирилган тўловларни тўлашда қўшимча тўловларнинг кўплиги натижасида ходимларга кам иш ҳақи ҳисобланиб, қолган қисмини ҳисоботларда кўрсатилмаган ҳолатда иш ҳақи сифатида берилади.

В.А.Тимченко яширин иқтисодиётнинг юзага келиш сабаблари билан бирга, унинг бир қатор салбий оқибатларини ҳам очиқ берган[10].

Жумладан:

- яширин иқтисодиёт давлат бюджети барча бўғинларининг даромадларига салбий таъсир кўрсатади;

- давлатнинг ўз функциясини бажариши, бошқарув, муҳофаа, фундаментал билим бериш ва бошқа соҳаларни молиялаштиришни қийинлаштиради;

- давлатнинг молиявий асоси, унинг суверенитетига путур етказилади;

- яширин иқтисодиётдаги пул массасининг кўпайиб бориши ушбу пул маблағларининг давлат назоратидан четга чиқишига таъсир этувчи омил сифатида қаралиб, бу ҳолат мамлакатнинг пул-кредит сиёсатига салбий таъсир кўрсатади;

- яширин иқтисодий фаолиятнинг кенгайиши давлатнинг макроиқтисодий даражадаги сиёсатини ижобий амалга ошишига салбий таъсир кўрсатади. Яширин иқтисодиёт расмий статистик кўрсаткичларда акс эттирилмаганлиги сабабли давлат макроиқтисодий сиёсат юритишида қийинчиликларни юзага келтиради;

- яширин иқтисодиёт ҳажмининг ўсиб бориши халқаро иқтисодий муносабатларга ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Энг аввало, инвестицион сиёсатга салбий таъсир этади. Сабаби, хорижлик инвесторлар томонидан бирор бир мамлакатга инвестицияни олиб киришдан олдин шу мамлакатдаги яширин иқтисодиёт даражаси ўрганилади. Ўз навбатида

хорижий инвесторлар томонидан шу мамлакатга жалб этилган пул маблағлари криминал иқтисодий фаолият билан шуғуллунувчилар ёки иқтисодий жиноий гуруҳлар таъсирига тушиб қолишдан қочишади.

Шу боис ҳам, яширин иқтисодиётга йўл қўймаслик учун жаҳонда олиб борилаётган илмий тадқиқотларда иқтисодиётни рақамлаштириш орқали яширин секторни легаллаштириш масаласи глобал муаммо сифатида ўрганилмоқда. Жумладан, яширин иқтисодиётни легаллаштириш механизмини такомиллаштиришга комплекс ёндашиш, электрон ҳукумат орқали давлат институтлари самарадорлигини ошириш, норасмий субъектлар фаолиятини бюрократик омилларни бартараф этиш орқали “соя”дан чиқариш, киберхавфсизликни кучайтириш асосида ноқонуний офшор ҳисобрақамларни назоратга олиш каби йўналишлардаги тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон иқтисодиёти тармоқ ва соҳаларига рақамлаштиришни кенг жорий қилиш орқали коррупцияга қарши курашиш, яширин иқтисодиётни легаллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Аммо, шундай бўлишига қарамасдан, “2022 йилда республикада яширин иқтисодиётнинг ЯИМга нисбатан улуши 58,2 фоизни, иқтисодиётнинг норасмий секторида бандлик 60 фоизни ташкил этган” [11]. Шу сабабли истикболда мамлакатда “сервис соҳасида яширин иқтисодиёт улушини 3 бараварга қисқартириш ва унга эришишда жамоатчилик ролини ошириш” [12] орқали “солиқ базасини қўшимча кенгайтириш имкониятидан фойдаланиш” [13] вазифалари белгилаб қўйилган. Бу ўз навбатида, республикада рақамлаштириш асосида яширин иқтисодиётни легаллаштиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш муаммосини мамлакатда амалга оширилаётгани иқтисодий ислохотларни долзарб масалаларидан бирига айлантирмоқда.

Хулоса ва таклифлар:

1. Фикримизча, яширин иқтисодиёт нафақат миллий иқтисодиётга, балки халқимизнинг маънавий ахлоқий ҳаётига ҳам жиддий хавф солади. Жумладан:

жамиятда яширин иқтисодиёт қанчалик ортиб борар экан, шу жамиятда уюшган жиноятчилик ва коррупциявий жиноятчилик кўлами ортишига шароит яратилади.

2. Ҳар бир мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражасидан келиб чиқиб, яширин иқтисодиёт даражаси, унинг улуши ва намоён бўлиш шакллари, муайян соҳаларда мавжудлиги ва яширин иқтисодий фаолият айрим турларини фоизларда фарқланиши аниқланади. Тадқиқотлар кўрсатишича жаҳон миқёсида таҳлил қилинганда, яширин иқтисодиётнинг миллий иқтисодиётдаги улушига солиқ юки, миграция жараёни, иқтисодий ва ижтимоий таъминотнинг йўқлиги ва давлат институтларининг самарасизлиги таъсир кўрсатмоқда.

3. Яширин иқтисодий фаолиятга қарши курашиш ва олдини олишда жамоатчилик назорати механизмлари имкониятларидан унумли

фойдаланишни талаб этади. Олиб борилган тадқиқотлар яширин иқтисодий фаолиятга қарши курашиш ва олдини олишда назоратни кучайтириш ва текширувлар сонини кўпайтириш молиявий харажатлар ва ресурсларни (инсон, вақт, технологик ва ҳ.к.) сафарбар этишни талаб этиши, барча ресурсларни иқтисодий ҳуқуқбузарликларни аниқлашга сафарбар этишнинг имкони йўқлиги ва назоратни кучайтиришнинг самарадорлиги пастлигини эътироф этади.

3. Амалга киритилган янги таҳрирдаги Солиқ кодексига мувофиқ ортиқча тўланган ва ортиқча ундирилган солиқларни ҳисобга олиш ҳамда қайтариш, шунингдек ортиқча ундирилган солиқ суммасига фоизлар тўлаш механизмлари жорий этилмоқда. Бу эса айрим шахслар томонидан мазкур механизмни суистеъмол қилиш орқали солиққа оид фирибгарликлар содир этилишига олиб келиши мумкин. Шу сабабли, аксар хорижий давлатларда (Словения, Франция, Германия) ғайриқонуний равишда солиқлар ортиқча тўланганлиги ёки ундирилганлиги тўғрисида мурожаат қилиб, уларни қайтариб олиш билан боғлиқ фирибгарликлар учун жиноий жавобгарлик белгиланган. Бу тажрибани миллий қонунчилигимизга қўллаш зарур.

4. Яширин иқтисодиёт улушининг 2030-йилгача бўлган прогнозига кўра, 2030-йилгача илм-фанни ривожлантириш миллий концепциясида белгиланган мақсадларга, кўзда тутилган даражага эришиш учун ИТТКИ харажатлари ҳажмини 10 баробар ва ундан кўпроққа ошириш мақсадга мувофиқдир.

5. Кенг аҳоли қатламнинг иқтисодий онги ва иқтисодий маданиятини юксалтириш ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

3. Тагаев Б.А. “Яширин иқтисодиёт” иқтисодий хавфсизликка таҳдид сифатида”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №3, май-июнь, 2015 йил
http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_B_A_Tagayev.pdf.

4. Dreher, A. and Schneider, F., 2010. Corruption and the shadow economy: an empirical analysis. Public Choice, 144(1-2), pp.215-238.

5. IMF Country Focus: Five Things to Know about the Informal Economy. 2021. URL: <https://www.imf.org/en/News/Articles/2021/07/28/na-072821-five-things-to-know-about-the-informal-economy> ; Informal Economy Sizes.

6. Буров В.Ю. “Теневая деятельность субъектов малого предпринимательства Теневые экономические отношения субъектов малого

предпринимательства и пути их легализации”//. Издательство “lap lambert Academic Publishing”. С. 24.

7. Альпидовская М.Л., Грязнова А., “Политэкономические императивы развития”// Монография, Издательство "Проспект", 19 июл. 2019 г. 126-с.

8. Латов Ю.В. Ковалев С. Н., Теневая экономика: Учебное пособие для вузов / Под ред. д.п.н., д.ю.н., проф. Кикотя В.Я. д.э.н., проф. Казиахмедова.Г.М.,- М.: Норма, 2006.- С.14.

9. Латов Ю.В. Теневая экономика. Учебное пособие для вузов. <http://ie.boom.ru/Latov/Monograph/Contents.htm>.

10. Бекряшев А.К., Белозеров И.П. “Теневая экономика и экономическая преступность”/ и криминальной экономики. Понятие и структура теневой экономики

<http://www.finbook.biz/description.html?prm=149>.

11. Тимченко В.А. “Теневая экономика: понятие, причины, социально-экономические последствия, масштабы”., электронный журнал-“Виртуальный клуб юристов”., 13.10.2004г.,

<http://www.yurclub.ru/docs/other/article50.html>

12. Проект «Переход от неформальной к формальной занятости» Узбекистан. МОТ. 2023.

https://www.ilo.org/moscow/projects/WCMS_826843/lang--ru/index.htm.

13. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.10.2020 й., 06/20/6098/1432-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.06.2021 й., 06/21/6243/0540-сон, 28.08.2021 й., 06/21/6300/0834-сон; 08.07.2022 й., 06/22/167/0619-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон; 07.07.2023 й., 06/23/108/0460-сон.

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИ ХОДИМЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ МУРОСАСИЗ МУНОСАБАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА “КОМПЛЕАНС НАЗОРАТ” ТИЗИМИНИНГ АҲАМИЯТИ

А.Ў. Гадоев,
Ўзбекистон Республикаси
Мақтабгача ва мактаб таълими вазирлиги ҳузуридаги
“Ўзбекистон” наирийёт-матбаа уйи
директорининг иқтисодий ва молиявий масалалар
бўйича ўринбосари, мустақил изланувчи.

Аннотация: Ушбу мақолада миллий иқтисодиёт тармоқлари ходимларида коррупцияга қарши муросасиз муносабатни шакллантиришда “комплеанс- назорат” тизимининг аҳамияти ва бугунги ҳолати ўрганилган.

Калит сўзлар: коррупция, худбинлик, ахлоқ, коррупцияга қарши хулқ-атвор, коррупцияга қарши муросасиз муҳит, комплеанс, коплеанс-назорат, мувофиқлик тизими.

ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ «КОМПЛЕАНС-КОНТРОЛЬ» В ФОРМИРОВАНИИ БЕСКОМПРОМИССНОГО ОТНОШЕНИЯ К КОРРУПЦИИ У РАБОТНИКОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СЕТЕЙ

Аннотация: В данной статье исследуется значение и современное состояние системы "комплеанс-контроль" в формировании бескомпромиссного отношения к коррупции у работников отраслей национальной экономики.

Ключевые слова: коррупция, эгоизм, антикоррупционное поведение, комплеанс, комплеанс - контроль, бескомпромиссная среда для борьбы с коррупцией.

THE SIGNIFICANCE OF THE "COMPLAENCE CONTROL" SYSTEM IN FORMING AN UNCOMPROMISING ATTITUDE AGAINST CORRUPTION IN THE EMPLOYEES OF THE NATIONAL ECONOMIC NETWORKS

Abstract: This article examines the importance and current state of the compliance control system in the formation of an uncompromising attitude towards corruption among employees of national economic sectors.

Keywords: corruption, selfishness, anti-corruption behavior, compliance compliance control, an uncompromising environment for fighting corruption.

Кириш. Маълумки, “мамлакатимиз ривожланишининг бугунги босқичида коррупция Ўзбекистон давлати ва жамияти тараққиёти учун энг жиддий хавф-хатарлардан бири”[1] эканлигини миллий иқтисодиёт тармоқлари ходимларида англатиш бугунги куннинг долзарб масласидир. Чиндан ҳам, коррупция бутун инсониятга зарар келтириб, барча жамиятларнинг асосларига путур етказадиган, қонун устуворлигини бузадиган, демократик институтлар ривожига тўсқинлик қиладиган жиддий хатардир [2].

Таҳлилларга кўра, ҳозирда коррупциянинг дунё миқёсидаги зарари 3(уч) триллион АҚШ долларига яқин миқдорни ташкил қилмоқда. “Бу катта рақамлар ҳақиқий ҳолатни ва коррупция натижасида кўриляётган реал зарарнинг аниқ ҳажмини тўлиқ ифода эта олмайди. Энг ёмони — жамият кўрадиган маънавий зарар кўламини ҳеч нарса билан ўлчаб бўлмайди” [3]. Ҳозирги ижтимоий-иқтисодий қарама-қаршиликларнинг энг салбий оқибатларидан бири – бу коррупциянинг ички ишлар органлари фаолиятидаги қонунийлик ҳолатига бевосита таъсири эканлигини ҳақли равишда эътироф этиш лозим.

Методология ва тадқиқот техникаси. Мақоламизда иқтисодий ҳодисаларни ва коррупция билан боғлиқ вазиятларни ҳамда уларнинг ўзаро таъсири ва ўзаро боғлиқлигида ўрганишга тизимли ёндашувга асосланишни идрок этиб, мақола ёзиш жараёнида умумбашарий билимларнинг умумий илмий усули, тизимли, статистик, қиёсий ҳуқуқий, расмий мантиқий, ижтимоий тадқиқот усуллари матбуотдаги ҳужжатлар ва нашрларнинг

мазмунини таҳлил қилиш, иқтисодий фаолият амалиётини ўрганиш умумиллий усулидан фойдаланилди.

Адабиётлар шарҳи ва илмий таҳлиллар. Инсон табиатига коррупциявий жиноятларни содир этишга мойиллик мавжуд. Чунки инсонга хос бўлган худбинлик (эгоизм) хос. Гап шундаки, жамиятда коррупциявий жиноятларни содир этишга мойиллик узок давом этувчи ижтимоий-руҳий жараёнлар таъсирида шаклланади. Бошқача айтганда, коррупцияга мойиллик миллатларнинг генида эмас, балки уни ўраб турган ижтимоий муҳит билан боғлиқ. Бу масалада Р.К. Курбаниязова Ўзбекистонда йиллар давомида коррупциянинг ривожланишини ижтимоий менталитетнинг таркибий қисмига айланган деган фикри [4] мавжуд.

Шу боис куйида айрим тадқиқотчилар таҳлилари “коррупциявий омиллар, ижтимоий муҳитда, ижтимоий муносабатларда, индивидуал ва ижтимоий онгда ҳатто техник жараёнларда ўз ифодасини топадиган кўп ўлчамли ижтимоий ҳодиса ҳисобланади ҳамда бир-бири билан ўзаро боғлиқликда вужудга келади ҳамда ривожланади”, деган фикрни билдиришади.

Жумладан, америкалик иқтисодчи, иқтисодиёт бўйича Нобель мукофоти лауреати (1992 й.) Гэри Беккер 1968 йилда “Жиноят ва жазо: иқтисодий ёндашув” мақоласини эълон қилди, унда муаллиф коррупцияни ўз ичига олган ҳолда жиноятчиликнинг иқтисодий таҳлили асосларини яратди [5].

Г. Беккер коррупциявий хулқ-атвори шахснинг оқилона танлови натижаси сифатида кўриб чиқди. У инсонлар коррупциявий жиноят содир этиш тўғрисида қарор қабул қилишда фойда ва харажатларни таққослашини таъкидлайди. Бу ҳақда у шундай ёзган эди: “агар бу ҳаракатдан кутилаётган фойда шахс ўз вақти ва ресурсларини бошқа йўл билан ишлатишидан олиши мумкин бўлган фойдадан ортиқ бўлса, коррупциявий жиноят содир этади”. Шунингдек у коррупция даражаси учта асосий омилга боғлиқ: а) ҳаракатни аниқлаш эҳтимоли, б) жазонинг қаттиқлиги ва в) иқтисодий шароитлар [5].

Г. Беккер коррупцияга қарши курашиш учун иқтисодий рағбатларни ўзгартиришни таклиф қилади, масалан унинг фикрича, “коррупция ҳолатларини аниқлаш эҳтимолини ошириш”, “коррупциявий ҳуқуқбузарликлар учун жазоларни кучайтириш” ва “ҳалол хулқ-атвор кўпроқ фойда келтирадиган иқтисодий шароитларни яратиш” шулар жумласидандир. Г. Беккернинг ғоялари Сюзан Роуз-Аккерман, Андрей Шлейфер ва бошқа олимлар томонидан ривожлантирилди ва коррупцияни таҳлил қилишда қўлланилди.

Жамиятда коррупцияга қарши хулқ-атвори шакллантириш мақсадида 2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегиясининг 84-мақсадида “...жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш” [6] каби муҳим вазифа белгиланган.

Мамлакатимизда 2017 йилга қадар амалга оширилган ислохотлар ички халқимизга моддий шароитда муносиб яшаш имкониятини тақдим эта

олмаган. Шунинг учун иқтисодчи-бухгалтерлар ва уларнинг раҳбарларида касбий бурчини бажаришдаги маънавий тамойиллари йўқ бўлиб кетишига олиб келгани сир эмас.

Мен иқтисодчи сифатида ходим ҳар қандай шахсий омиллардан қатъи назар, ўз вазифасини ҳалол бажариши шарт. Бироқ, ўтиш даврида жамият бойлар ва камбағалларга бўлинди. Одамларнинг турмуш фаровонлиги кескин ёмонлашди ва бу айрим ходимларни, мансабидан қатъи назар, хиёнат йўлига киришга, хизмат манфаатларига зид боришга, мансаб мавқеидан ғаразли манфаатлар учун фойдаланишга ундагани сир эмас.

Соҳада туб ўзгаришлар рўй бермагунча, коррупцияга қарши кураш самарасиз бўлади, чунки коррупция асос бўлган маънавий таянч ва жамиятда унга нисбатан “бағрикенглик” муносабатини шакллантириш ўзгаришсиз қолади.

Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунида таълим муассасаларида коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ҳуқуқий таълим ва тарбия белгиланган давлат таълим стандартларига мувофиқ амалга оширилиши, давлат таълимни бошқариш органлари таълим муассасаларида ҳуқуқий таълим ва тарбияга, мутахассисларни касбий тайёрлашнинг сифатини оширишга, таълим дастурларини доимий равишда такомиллаштириб боришга қаратилган чоратадбирларни ишлаб чиқиши назарда тутилган [7].

Инсоннинг иқтисодий ҳаётдаги фаол роли, аввало, унинг хўжалик ҳуқуқи мотивацияси билан боғлиқ бўлиб, бунинг асосини икки бирламчи категория – “ҳаётий эҳтиёж” ва “оғир зарурат” тушунчаларининг ўзаро боғланишли ҳосиласи сифатида намоён бўлувчи шахсий (ижтимоий) иқтисодий манфаат ташкил этади [8].

Мотив (лот. *movete* – ҳаракатга келтирмоқ) – шахсни фаолиятга ундовчи ички туртки. Эҳтиёжларнинг қондирилиши билан боғлиқ бўлган.

Коррупция касбий бузилишнинг ёпиқ шакли сифатида жамият ва давлат фаолиятига таҳдид солади. Касбий бузилишнинг ёпиқ шакллари қуйидагиларни ташкил этади:

Шу боисдан ҳам, касбий маҳорат ва маданиятни ошириш, ҳар қандай ҳолатда ҳам қонун, адолат ва инсонпарварлик тамойилларига асосланиб иш кўриш [9] – ҳар бир иқтисодчи, молиячи, банкир ва солиқчи ходимининг энг устувор вазифаси бўлмоғи лозим

Миллий иқтисодиёт ходимларида коррупцияга қарши ҳуққ-атворни шакллантиришда ички (комплаенс) назорат муҳим ўрин эгаллайди.

Ф.Примов комплаенс назорати тизимининг йўқлиги ёки фаолиятининг сустлиги коррупциянинг давлат бошқаруви билан боғлиқ асосий омиллари [10] деб ҳисоблайди.

Албатта миллий иқтисодиётда ҳам коррупциявий жиноятларнинг ходимлар орасида содир этилишининг олдини олишга қаратилган комплаенс (ички) назорат мавжуд бўлиб унинг фаолиятидаги камчиликлар иқтисодчи, молиячи, банкир ва солиқчи ходимлар орасида коррупциявий жиноятларнинг

содир этилишига ҳам замин яратади.

Коррупцияга қарши “комплаенс-назорат” тизими давлат органлари ва хўжалик юритувчи субъектлар, банклар ва хусусий сектор фаолиятини коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги халқаро стандартлар, қонун ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ ташкил этилишини таъминловчи, коррупция хавф хатарлари ва манфаатлар тўқнашувини ўз вақтида аниқлаш ҳамда уларга чек қўйиш, қонун бузилиши ва коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар ҳақида хабар бериш каби қатор профилактик чораларни ўзида мужассам этган самарали тизимдир[11].

Шундай экан иқтисодчи, молиячи, банкир ва солиқчи ходимларида коррупцияга қарши хулқ-атворни шакллантиришда ички (комплаенс) назоратни амалга ошириш фаолиятида ходимларнинг хизмат интизоми билан боғлиқ ходисалар ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Шу ўринда биз, Ф.Примовнинг “...коррупцияга қарши курашишнинг муҳим чораларидан бири интизомий жавобгарликнинг ҳам маъмурий ҳуқуқ билан боғлиқлиги. Миллий ҳуқуқшунослигимизда энг кам ўрганилган масалалардан бири интизомий жавобгарлик ҳисобланади. Европа мамлакатларида коррупцияга қарши курашишда интизомий жавобгарлик энг муҳим чораларда бири сифатида белгиланган” [10] деган фикрларига тўлиқ қўшиламиз.

Хулоса. 1. Миллий иқтисодиёт тармоқлари ходимларининг хизмат интизомини бузганликлари учун интизомий жавобгарлик масалалари уларнинг коррупцияга қарши хулқ-атворининг шаклланишига хизмат қилади. Ҳар қандай салбий хулқ-атворнинг шахсда номоён бўлишида унинг оқибатлари учун жавобгарлик масалалари мавжудлигини хис қилиниши шахснинг салбий хулқ-атвордан тийилишга олиб келади деб хулоса қилишимизга асос бўлади.

2. Комплаенс назорат тизими ходимларнинг хулқ-атворига нисбатан ҳам коррупцияга қарши курашишга оид маълум талабларни белгилайди. Дунё мамлакатларида Корпоратив этика кодекси (Code of Ethics), Совғалар олиш ва бериш сиёсати (Gift policy), Ҳуқуқбузарлик тўғрисида хабар бериш сиёсати (Whistleblowing policy), Порахўрлик ва коррупция сиёсати (Whistleblowing policy), Жиноий даромадларни легаллаштириш ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш сиёсати (Fight against Money Laundering and Terrorist Financing), Маълумотларнинг хавфсизлиги сиёсати, Манфаатлар тўқнашуви сиёсати (“Хитой деворлари” сиёсати “Chinese Walls”) каби коррупцияга қарши курашиш сиёсатини ифодаловчи ички меъёрий ҳужжатлардаги талабларга амал қилмаганлик учун ходимга интизомий жавобгарлик қўлланилиши талаб этилади.

3. Иқтисодиёт тармоқлари ходимари томонидан коррупция жиноятларини содир этиш сабабларини асосий ва қўшимчага бўлиб ўргандик. **Асосий мотив** – шахсий манфаат сифатида ишлаши экан. Кўриб чиқиладиган коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар мотивларида, мансабни худбинлик (эгоизм) билан суиистеъмол қилиш мотивлари ҳам

характерлидир.

Демак, иқтисодиёт тармоқлари ходимларининг коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар содир этишида ўз ғаразли манфаатлари (шахсий манфаат ва худбинлик)ни рўёбга чиқариш биринчи ўринда туради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июлдаги “Коррупцияга қарши курашиш фаолиятини самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5177-сон Қарори
URL: <https://lex.uz/uz/docs/5495533>.
2. Мирзиёев Ш. М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Т., – 2024. – 452-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши курашиш соҳасида юксак халқаро мукофотни топиши маросимидаги нутқи //2023 йил. [Электрон манба]. URL: Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.
4. Курбаниязова Р.К. Давр руҳи ўзгаришларининг ижтимоий менталитетга таъсири: автореф. дис. автореф ... ф.ф.б.ф.д – Тошкент, 2020. – б 18.
5. Гарри Беккер. Преступление и наказание: экономический подход <https://studfile.net/preview/9839981/page:4/>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28-январдаги ПФ-60-сон Фармонида 1-илова // www.lex.uz.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // <https://lex.uz/docs/3088008>.
8. Каллагов Б.Р. Собственность как основная экономическая категория. – Владикавказ., – 2011. – С. 62.
9. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси// «Халқ сўзи» газетаси. 2018 йил 7 дек.
10. Примов Ф. А. Давлат бошқарувида коррупцияга қарши курашишнинг маъмурий-ҳуқуқий жиҳатларини такомиллаштириш. 12.00.02 – Конституциявий ҳуқуқ. Маъмурий ҳуқуқ. Маъмурий ҳуқуқ. Молия ва божхона ҳуқуқи. Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2023. – Б. 35.
11. А. Бурханов, Т. Хайдаров, З. Қодиров, С. Маманов. “Коррупцияга қарши ички назорат (комплаенс) тизимини жорий этиш бўйича” қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, 2021.-64 б.

TALABALARDA INGLIZ TILINI O'RGANISHDA GAPIRISH VA TINGLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIDA

Abdulahadova Shohsanam Adxamjon qizi
University of Business and Science o'qituvchisi

Nuriddinova Fotima Ilxomjon qizi
University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o'rganishda tinglab tushunish va gapirish ko'nikmasini rivojlantirish, til o'rganish ko'nikmalarining turlari va ularning bir biri bilan aloqadorlik xususiyatlari borasida fikr yuritilgan. Bundan tashqari jonli muhitning til o'rganishdagi ahamiyati, roli va uni shakllantirish uchun nimalarga e'tibor berish lozimligi to'g'risida fikrlar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Til o'rgatish jarayoni, til o'rganuvchi, yondashuv, usul, til o'rganish muhiti, ahamiyat, muvoffaqiyatga erishish.

ON THE DEVELOPMENT OF SPEAKING AND LISTENING SKILLS IN STUDENTS LEARNING ENGLISH

Annotation: In this article it was discussed some issues in learning English through listening and then speaking skills. Types of learning skills and their division as receptive and productive were also mentioned with examples. How these two types are important in teaching process and how to teach learners with them effectively. The author shared some ideas from own experience and tries to justify them with examples.

Key words: Language learning, learning environment, approach, way of learning, real life environment, significance and role, to have some success, types of skills.

О РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ И АУДИРОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В этой статье рассматриваются навыки слушания и понимания иностранных языков, а также типы навыков изучения языка и их взаимосвязи. Автор комментирует важность и роль языковой среды в изучении языка, а также то, что необходимо учитывать при формировании этой среды.

Ключевые слова: Изучение языка, учебная среда, подход, способ обучения, реальная жизненная среда, значимость и роль для достижения успеха, типы навыков.

Jamiyatda ko'pchilik insonlar bir tilda gapiruvchi va shu tildagina tushunuvchilar hisoblanadi. Bu insonlar ingliz tilida "monoligual" ya'ni bir tilni egallagan kishilar deb ataladi. Lekin biz hozir har sohada shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv davrida yashar ekanmiz, ko'plab insonlar ikki, uch va

ba'zan to'rt tilni tushunadilar, o'z fikrlarini shu tillarda to'laqonli ifoda eta oladilar. Oxirgi o'n yillik ichida mamlakatimizda til o'rganish davr talabi bo'lgani uchun yoshlar o'rtasida tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kuchaymoqda. Ayniqsa talabalarni tillarni mukammal egallashga bo'lgan ishtiyoqi juda baland va ular bu borada ancha muncha natijalarga ham erishmoqdalar. Oldingi yillarda rus tili bizning hayotimizda oddiy vosita tili sifatida shakllangan edi va har ikki odamning biri bu tilni to'laqonli ravishda bilar edi. Agar ushbu insonlardan rus tilini qay tarzda o'rganganliklari to'g'risida so'ralsa, ular shunchaki yelkalarini qisib og'zaki eshitish orqali o'rganganliklarini aytadilar. Til o'rganishning bu usuli ingliz tilida "communicative way" ya'ni muloqot orqali til o'rganish hisoblanadi. [1;147]

Bu kabi tilni og'zaki eshitish orqali o'rganuvchilarning ikki toifasi mavjud bo'lib, ulardan biri tadqiqotchi sifatida til o'rgansa, yana biri esa hayotiy vaziyat tufayli til o'rganuvchi hisoblanadi. Bu har ikki jihat uchun ham til muhiti juda muhim xisoblanadi. Misol uchun tasavvur qiling siz xorijdasiz, tilni bilmaysiz, siz notanish til muhitida yashayapsiz. Kimdir sizdan ko'chaning keyingi tomoniga qanday qilib o'tish mumkinligini so'rashi mumkin, transport vositasida yo'l xaqini to'lashingizni so'rashi yoki siz o'zingiz bozorda oziq-ovqat narxini so'rashingiz mumkin va xokazo. Siz birinchi hafta ularni barchasini tushunmasligingiz aniq, lekin oradan ikki yoki uch hafta o'tgandan so'ng siz bu kabi gaplardagi so'zlarning barchasini tushunmasangizda undagi asosiy ma'no beruvchi so'zlar orqali gap mazmunini tushuna borasiz (asosiy ma'no beruvchi so'zlar deganda biz asosan ot, sifat va fe'l so'z turkumiga kiruvchi so'zlarni nazarda tutamiz). Sizda tinglab tushunish ko'nikmasi sekin-asta hosil bo'la boshlaydi. Sizning miyangiz so'zlarning lug'aviy ma'nosini shakllantirib boradi, bu esa sizning so'z boyligingizni oshiradi, lekin siz grammatik tushunchaga ega bo'lmaysiz. Bu muhitda til o'rganuvchilar yuqorida keltirib o'tilgan hayotiy vaziyatlar orqali til o'rganuvchilardir. Agar siz o'g'lingiz yoki qizingizni erta til o'rganishini xohlasangiz va ularni kelgusida mukammal til biluvchi sifatida ko'rmoqchi bo'lsangiz erta yoshdan qaysidir til o'rgatish kurslariga yoki yaxshi til biluvchi o'qituvchini topib bolangizga qo'shimcha darslar olishi uchun sharoit qilishga shoshasiz. Siz o'zingiz tushunib yoki tushunmay bolangizga Chunki bola tilni sinfda o'qituvchining tayyorlab kelgan til o'rgatish uchun mo'ljallangan materiallar orqali o'rganadi. Bu biz yuqorida aytib o'tgan tinglab tushunish orqali til o'rganishning birinchi turiga mansub xolatdir. Xar ikki holatda ham til o'rganuvchi subektda tinglash va u orqali nimanidir qabul qilish shundan so'ng uni qayta ishlash jarayoni sodir bo'ladi. [2; 9. Shu o'rinda bir savol tug'iladi "Til o'rganishda doimiy tinglab tushunish muhimmi?" Bu savolga quyidagi ma'lumot orqali qaysidir darajada javob berish mumkin.

Qadimgi grek tarixchisi Gerodotning ma'lum qilishicha miloddan avvalgi 7- asrda Misr xukmdori Psamtik II ilmiy tajriba o'tkazmoqchi bo'ladi. U o'z hukmdorligi vaqtida ikkita yangi tug'ilgan chaqaloqlarni olib cho'ponga topshiradi va ularni butunlay yolg'izlikda tarbiyalash lozimligini va eng muhimi ular xuzurida hech bir so'z aytilmasligi kerakligini buyuradi. Psamtik bu ikki bola

yolg'iz qolganda qanday tilda gapirishi mumkinligini bilmoqchi bo'ladi. Uning fikricha shu ikki chaqaloq gapirishi mumkin bo'lgan til bu insoniyatning eng birinchi shakllangan tili bo'lishi kerak edi. Ikki yildan so'ng cho'pon bu ikki go'dakning bir-biriga "bekos" deb qayta-qayta murojaat qilganini eshitadi. Bu so'z o'sha davrda markaziy Turkiyada yashovchi Fraginlarning tilida "non" degan ma'noni berardi va Psamtik eng qadimgi til bu Fraginlarning tili degan xulosaga keladi, lekin ko'pchilik olimlar bu so'z shunchaki podadagi qo'ylarga taqlid sifatida hosil bo'lgan so'z deb hisoblaydilar. [3; 6]

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki ko'p holatlarda tilni og'zaki eshitib tushunish orqali o'zlashtirgan til biluvchilar til ko'nikmalaridan tinglash va gapirish ko'nikmalarini yaxshi egallaydilar, lekin ularda yozish va o'qish ko'nikmalari sust shakllanadi, Aksincha birinchi toifa ya'ni tadqiqotchi sifatida til o'rganuvchilar tilning grammatik va lug'aviy tuzilishini yaxshi o'zlashtiradilar, lekin gapirish va tinglashga biroz oqsaydilar, chunki ular o'z fikrlarini ifodalashlari uchun o'zlarining qaysi lug'at boyliklaridan va grammatik jihatdan qaysi qoidadan foydalanish mumkinligini qayta-qayta analiz qiladilar. Ularda ko'pincha ikkilanish, ya'ni "nima uchun?" savoli tug'iladi. Bu savolga javob topish uchun og'zaki nutqda o'z malakaviy ko'nikmalarini oshirishga qiynaladilar.

Bizga ma'lumki, tilning to'rt xil til o'rganish ko'nikmasi mavjud bo'lib, ular ikki turga ya'ni "retseptiv" - tilni o'ziga qabul qilish uchun tashqaridan nimadir olish va "produktiv" o'ziga olgan bilimni qayta ishlab tashqariga chiqarish turlariga bo'linadilar. Til o'rganish asosan shu ikki til ko'nikmasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada biz asosan tinglash va undan so'ng gapirish ko'nikmasini shakllantirish borasida fikr yurutar ekanmiz, ayni ta'kidlangan ikki ko'nikma turini uzviy olib borishning ahamiyati borasida ham gapirish muhim deb hisoblaymiz. Chunki tinglash bu "retseptiv" til shakllantiruvchi ko'nikma turiga mansub bo'lsa, ayni vaqtda gapirish "produktiv" turiga kiritiladi. [4;38] Bu ikki til ko'nikmasi oldingi o'rinlarda ta'kidlangan har ikki muhitda bir birini doimiy ravishda taqozo etadi va uzviylikni talab qiladi. Agar yosh bolaga ingliz, rus tilidagi filmlarni yoki multfilmlarni tarjima qilinmagan dublyajsiz, asl holatidagisini tinimsiz ko'rishga yo'l qo'yilsa bola ma'lum yoshga yetganda o'z o'zidan shu tilni tushunib, ma'lum darajada gapira oladigan bo'ladi. Ana shu o'rinda til o'rganishning qolgan ikki ya'ni yozuv va o'qish ko'nikmalarini shakllanishi qay darajada bo'lishiga e'tibor qarataylik. O'z tajribamizdan kelib chiqib aytishim mumkinki, hayotiy vaziyat tufayli til o'rganuvchida til ko'nikmalaridan ayni yozuv to'laqonli shakllanmas ekan, lekin til o'rganuvchida o'qish ko'nikmasi yozuvga nisbatan tezroq va yaxshi shakllanishi mumkin. Tadqiqotchi sifatida til o'rganayotgan insonlarda esa bir vaqtning o'zida barcha til ko'nikmalari rivojlanib boradi. Doimiy til o'rganish jarayonidagi sub'ekt sifatida shuni aytishim mumkinki hayotiy vaziyatlar orqali o'zlashtirgan rus tilimda "retseptiv" til ko'nikmalarim "produktiv" ko'nikmalarimga nisbatan ancha yuqori darajada rivojlangan. Tinglash va o'qish orqali rus tilini mukammal tushuna olaman, lekin gapirishda ba'zan so'z boyligim oqsaydi, yozishga kelganda esa tegishli qoidalarni yetarli darajada bilmaganligim sababli ko'plab xatoliklarga yo'l

qo'yaman. Aksincha ingliz tilini tadqiqotchi sifatida sinf xonasida, qoidalarga asoslangan holda o'rganganligim sababli eng avvalo o'qish ko'nikmam rivojlangan va sekin- asta tinglash va gapirish ko'nikmalarimda yaxshi natijalarni seza boshlaganman. Eng so'ngi o'rinda yuruvchi ko'nikmam bu yozuv ko'nikmasi deb o'ylayman.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, har ikki jihatni ya'ni tinglash va gapirishni teng olib borish, nafaqat rus va ingliz tillari balki boshqa tillar jumladan nemis, fransuz, ispan va boshqa tillar uchun ham o'rinnidir. Bundan besh yoki olti yillar avval aynan shu ikkinchi jihat bizning talabalar orasida keng tarqalgan edi. Ular berilgan matnni o'qib tarjima qilib, ma'lum mashqlarni grammatik jihatdan taxlil qilib, ularni ko'chirib yozib borishga odatlanib qolishgan, ularning tinglash va gapirish ko'nikmalari sust rivojlangan edi. Buning boisi yuqorida aytib o'tganimizdek til muhitini mavjud emasligi edi. Lekin xozirki kunda bu kabi xolat juda kam kuzatilmoqda, chunki barcha til o'rgatuvchilar tilni tinglab tushunib va so'ngra gapirish usulidan keng va samarali foydalanishni yo'lga qo'yganlar va buning natijasida til biluvchilarning ham "retseptiv", ham "produktiv" til ko'nikmalari birdek rivojlanib bormoqda. Ayni vaqtda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki hozirda eshitish ko'nikmasini o'stirish va shu orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun bir qator o'quv qo'llanmalar va darsliklar, internet ma'lumotlari mavjud bo'lib ulardan foydalanish orqali til o'rganuvchilar o'zlarining tushunish va bunga bog'liq holda gapirish ko'nikmalarini egallashlariga imkoniyatlari avvalgi yillardan ko'ra ancha yuqori. Bu esa albatta til biluvchining to'laqonli shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pasy. M Lightbown. How Languages are learned.- Oxford, 2006.
2. Seligson.P. Helping Students to Speak.- Richmond Publishing, 2002.
3. Richard Acklam. Total English.(Student`s book).- Longman, 2000.
4. Thornbury. S. How to teach Speaking.- Pearson Education, 2005.

“XAMSA” DEBOCHASI: MAZMUN VA POETIKA

***Qurbonov Abdulhamid Abduqayumovich,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
University of Business and Science,
kurbanovabdulhamid57@gmail.com***

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining dastlabki “Bismillohir rahmonir rahim” iborasining ta'rifiga bag'ishlangan bobi, uning mazmun va poetikasi tadqiq etilgan. Baytlar birma-bir sharhlanib, shoir g'oyaviy qarashlarini o'zida jam qilgan bir qator istilohiy so'z va iboralarga ilmiy izoh berilgan. Asosiysi esa “Basmala” alohida emas, balki shoirning barcha asarlari doirasida, ularning g'oyaviy va badiiy olami bilan bog'liq holda o'rganilgan. “Basmala”ning Navoiy ijodidagi o'rni, uning boshqa asarlariga munosabati haqida muhim xulosalar chiqarilgan.

Kalit soʻzlar: Alisher Navoiy, “Hayrat ul-abror”, “Basmala”, poetika, tariqat, ishq, vahdat, fano, baqo.

ПРЕЛЮДИЯ К «ХАМСЕ»: СОДЕРЖАНИЕ И ПОЭТИКА

Аннотация: В статье исследуется первая глава дастана Алишера Навои «Хайрат ул-аброр», посвященная определению словосочетания «Бисмиллохир рахмонир рахим», его содержанию и поэтике. Бейты интерпретируются один за другим, а ряд философских терминов и словосочетаний, содержащих идейные взгляды поэта, даются научному объяснению. Главное, что «Басмала» изучается не отдельно, а в рамках всех произведений поэта, в связи с их идейно-художественным миром. Сделаны важные выводы о месте «Басмалы» в творчестве Навои и его отношении к другим его произведениям.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Хайрат ул-аброр», «Басмала», поэтика, тарикат, любовь, вахдат, фано, бако.

THE PREFACE TO "KHAMSA": CONTENT AND POETICS

Abstract: The article examines the first chapter of Alisher Navoi's dastan "Khayrat ul-habrор", dedicated to the definition of the phrase "Bismillakhir Rakhmonir Rahim", its content and poetics. The beits are interpreted one by one, and a number of philosophical terms and phrases containing the ideological views of the poet are given a scientific explanation. The main thing is that "Basmala" is studied not separately, but within the framework of all the poet's works, in connection with their ideological and artistic world. Important conclusions have been drawn about the place of "Basmala" in Navoi's work and its relationship to his other works.

Key words: Alisher Navoi, "Khairat ul-abror", "Basmala", poetics, tariqa, love, vahdat, fano, bako.

Kirish. Nizomiy "Maxzan ul-asror" va umuman olganda, oʻz "Panj ganj"ini "Bismillohir rahmonir rahim" – بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ iborasi bilan boshlagani maʼlum. Shoirning asar sarsuxanida taʼkidlashicha, bu muborak ibora Ilohiy ganj eshigining kalididir:

Bismillohir rahmonir rahim

Hast kalidi dari ganji Hakim. [11;256]

Nizomiydan soʻng "Xamsa"ni "Bismillohir rahmonir rahim" bilan boshlash, uni turli muborak tushunchalarga qiyos qilish qatʼiy adabiy anʼanaga aylandi. Jumladan, Amir Xusrav Dehlaviy "Matlaʼ ul-anvor"da uni qadimiyat mulkidagi muqaddas xutba, deb ataydi:

Bismillohir rahmonir rahim

Xutbai quds ast ba mulki qadim. [7;256]

Abdurahmon Jomiyning "Tuhfat ul-ahror"da yozishicha, "Bismillohir rahmanir rahim" majozan Saxovatli zotning oʻz xoni, yaʼni neʼmatlaridan bahramand boʻlishga chorlovidir:

Bismillohir rahmonir rahim

Hast saloyi sari xoni Karim. [1;221]

Alisher Navoiy esa “Hayrat ul-abror”da uni rishtaga tizilgan necha durri yatim deb ataydi:

Bismillohir rahmonir rahim,

Rishtag’a chekti necha durri yatim. [5;6]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada germeneytika, tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanilgan. Unda baytlar birma-bir sharhlanib, shoir g’oyaviy qarashlarini o’zida jam qilgan bir qator istilohiy so’z va iboralarga ilmiy izoh berilgan. “Basmala”ning Navoiy ijodidagi o’rni, uning boshqa asarlariga munosabati haqida muhim xulosalar chiqarilgan.

Navoiyshunoslikda “Basmala” tadqiqiga bag’ishlangan bir qator risola va maqolalar mavjud. Ularning avvalgisi A.Rustamiy (A.Rustamov)ning “Basmala”ning ma’nosi” nomli kichik risolasidir. Unda “Bismillohir rahmonir rahim” ta’rifida uchrovchi murakkab so’z va iboralar nozik did va zukkolik bilan izohlanib, baytlar birma-bir tahlil qilingan, shu bilan birga, o’rni-o’rni bilan tasviriy vositalar haqida ham, qisqacha bo’lsa-da, ma’lumot berilgan [12]. O.Davlatov esa shu mavzuda yozilgan maqolasida “Maxzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Tuhfat ul-ahror” va “Hayrat ul-abror” dostonlarining ilk boblarini o’zaro qiyoslaydi [9;173]. Muallifning qayd etishicha, Nizomiy “Basmala”da “Allohning yagonaligi, buyukligi va har ishga qodirligi haqida shoirona so’z aytib, qur’oniylar ma’nolari go’zal nazm libosiga o’raydi. “Matla’ ul-anvor” ham Nizomiy dostoniga ancha yaqin bo’lib, bu ikki asar muqaddimasi mazmun va uslubiga ko’ra hamd mavzuidagi keyingi boblar o’xshab ketadi. Bu jihatdan Jomiy asari ajralib turadi. Shoir “Bismilloh”ni ko’proq ramziy uslubda talqin qilib, undagi har bir harf va so’zni, bir tarafdin, turli sharif narsalarga o’xshatsa (“bo” jannat eshigi, “sin” Salsabil suvi, “mim” jannat bulog’i va h.), ikkinchi tarafdin, ularni “Qur’oni karim”dagi turli oyatlarga nisbat beradi (“yo” va “sin” “Yosin”, ar-Rahmon “Rahmon” surasiga va h.). Navoiy muayyan ma’noda Jomiyga payravlik qilib, ma’no va lafz tasvirida kitobat san’atidan foydalanishning betakror namunalarini namoyish qiladi.

O.Avaznazarovning “Hayrat ul-abror” dostoni “Basmalasi” xususida” nomli maqolasi ham ushbu silsila mansub [2;28–31]. Maqola Navoiy “Xamsa”sining A.Pardaev tomonidan qilingan she’riy tabdiliga [6] taqriz tarzida yozilgan. Muallif tabdilda baytlar mazmuni ham, badiiyati ham asliyatdan mutlaqo yiroq tushganligiga e’tibor qaratib, fikr isboti sifatida “Basmala”ning dastlabki besh baytini atroflicha tahlil qiladi.

Biroq, shunga qaramay, mazkur ishlarda “Basmala”ning mazmun va badiiyati to’la ochib berilgan deb aytish qiyin. Chunki A.Rustamiy risolasida bosh maqsad “basmala va Navoiyning unga bergan shoirona sharhi haqida ibtidoiy ma’lumot” berishdan iborat bo’lsa [12], O.Davlatov maqolasida asosiy e’tibor “Qur’on” oyatlari va hadislar talqini”ga qaratilgan [9;173]. Binobarin, “Basmala” mazmun va poetikasini chuqur va atroflicha tadqiq etish navoiyshunoslik oldidagi zaruriy masaladir. Buning uchun, avvalo, uni baytma-bayt sharhlash, ikkinchidan, bir qator istilohiy so’z va iboralarga izoh berish, eng asosiysi esa, “Basmala”ni alohida emas, balki shoirning barcha asarlari doirasida, ularning g’oyaviy va badiiy

olami bilan bog‘liq holda o‘rganish lozim.

Muhokama va natijalar. Navoiy “Basmala”sini mazmun va kompozitsion jihatdan ikki qismga ajratish mumkin:

- 1) “Bismillohir rahmonir rahim” iborasining umumiy ta’rifi;
- 2) iboradagi harflar ta’rifi.

“Bismillohir rahmonir rahim”da Tangri taoloning uch muborak ismi: Alloh, Rahmon va Rahim ismlari, shuningdek, bu ismlarni o‘zida aks ettirgan o‘n to‘qqiz harf, o‘n to‘qqiz harakat yoki belgi darj bo‘lgan. Ulug‘ shoirning chuqur e’tiqod va cheksiz ehtirom bilan ta’riflashicha, bir tarafdin, Alloh ismlari, ikkinchi tarafdin esa, o‘n to‘qqiz harf va o‘n to‘qqiz belgi durlar shodasi, ya’ni bir ipga ketma-ket tizilgan durri yatim – yirik va behad qimmatli durlar donasidir. Ularning har biri esa:

Har dur anga javhari jondin fuzun,
Qiymat aro ikki jahondin fuzun.

Rishtasining o‘zi jahonlar tizilgan rishtadir, – deydi keyingi baytning birinchi misrasida. Yo‘q, – deb e’tiroz bildiradi u tashbehi tafzil, ayni chog‘da ruju’ vositasi bilan ikkinchi misrada bu fikrni rad etib, – o‘sha rishta jahon emas, balki jonlar rishtasidir:

Rishtasi xud iqdi jahon rishtasi,
Dema jahon rishtasi, jon rishtasi.

Baytda jonlar rishtasi jahonlar rishtasidan ustun qo‘yilgan. Zohiran olganda, u ruju’ qoidasiga xilofdek tuyuladi: unga ko‘ra tasvirda kerakli ta’sir va manzara yuzaga kelishi uchun keyingi uzv avvalgi uzvdan yorqinroq bo‘lishi kerak. Ammo ulug‘ shoir hayotiy mantiqqa ham, badiiy mantiqqa ham qat’iy rioya qilgan. Garchi jahon hajman jondan kattaroq, binobarin, jonga nisbatan olami kubro bo‘lsa ham, so‘fiyona falsafaga ko‘ra, inson, aniqrog‘i, Komil inson ko‘ngli, jonsiz olamdan farqli o‘laroq, Alloh makonidir. Bu ma’noda jon jahondan kattaroq, shu ma’noda, jon olami kubro bo‘lsa, jahon uning qarshisida olami sug‘rodir. Umuman, jahon va jon o‘rtasidagi bunday munosabat Navoiy ijodi uchun barqaror holat hisoblanadi. Dostonning “Ishq o‘ti ta’rifidakim” deb boshlanuvchi 9-bobida ham ulug‘ shoir jon va jahon timsollarini keltirib, shunday deydi:

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasun.

Jahon va jonning bunday talqini “Basmala”dagi bosh masala jahon emas, jon ekanligiga bir ishoradir. Shoir bu fikrni inkishof ettira borib, keyingi baytda dur va rishtadan purma’no bir tamsil keltiradi: kimki “Bismilloh”ni tasbeh: necha durri yatimni dona, rishtasini esa ip qilgan bo‘lsa, u albatta baqo ganjiga yetadi:

Ganji baqo zikriga ulkim yetib,
Bu dur ila rishtani tasbih etib.

Bundan keyingi baytlar rishtaning behad zavqnok va sharif tasvirlaridan iborat. Shoir uni shaklan eng mo‘tabar tushunchalarga nisbat beradi, tashbehi tafzil yoki ruju’larning butun bir silsilasini yaratadi: Rishta emas, – deydi u, – balki bir kamand, kamand ham emas, balki bir ariq, bir ariqki, suvlaridir jon suvi, balki hayvon suvi:

Qaysi kamand, o'lmadi hargiz kamand,
Ravzai firdavs g'azolig'a band.
Bal arig'edurki, oqar jon suyi,
Yo'q, demakim jon suyi, hayvon suyi.

Keyingi baytlarda shoir rishta ta'rifini yanada balandroq pardalarga ko'taradi: Yo'q, bu tashbehlarning hech biri to'g'ri emas, – deydi u. – “Bismilloh” bog'i ahad qumrisi oshyon tutgan, yuksak Arsh aro nur taratib turgan qandildir. Ammo shoir bu fikrni ham rad etadi: u qandil ham emas, balki maxzani vahdat – vahdat xazinasiga eltadigan eng yaqin yo'ldir:

Yo'qki, erur maxzani vahdatqa yo'l,
Yo'lu ne yo'l, asru yaqin yo'ldur ul.

Baytda ulug' shoir falsafasida markaziy o'rin tutuvchi bir istiloh tilga olingan. Bu istiloh – vahdat. Vahdat so'zining ma'nosi birlik, birlashishdir. Bu istilohni unga tarkiban muayyan darajada o'xshab ketadigan vahdati vujud bilan chalkashtirmaslik lozim. Vahdati vujud falsafiy tushuncha bo'lib, uning asosida birgina Alloh bordir, Undan o'zga hech narsa mavjud emas: olam ham, odam ham Alloh husni va sifatlarining tajalliysidir, degan so'fiyona tasavvur yotadi. Vahdat esa ma'naviy-ruhiy holat. U fano, shuningdek, yuqoridagi bir baytda zikr qilingan baqo, aniqrog'i, ganji baqo mafhumi bilan uzviy bog'lanib ketadigan tushuncha. Aytish mumkinki, fano va baqo bir silsila bo'lsa, vahdat uning markazida turuvchi halqadir. Baytda vahdat bilan birga kelgan yo'l mafhumi ham bor. Rishta haqida gapirib, shoir uni bejiz erur maxzani vahdatqa yo'l, degan emas. Yo'lning asl nomi tariqat, tariqat esa, ma'lumki, vahdat maxzani – Haq vasliga eltuvchi yo'ldir. Bu yo'lda talab, ishq, ma'rifat, tavhid, istig'no, hayrat maqomlarini bir-bir bosib, fano maqomiga doxil bo'lgan solik Komil insonga aylanadi. “G'aroyib us-sig'ar”dagi birinchi g'azalda aytilganidek, fano maqomida bashariy illatu nuqsonlar butkul mahv bo'lib, inson ko'nglida Maqsud chehrasi jilvagarlik qila boshlaydi:

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar
Chehrai Maqsud, mahv o'lg'ay hamul dam moado. [3;23]

Bu maqomda “Lison ut-tayr”dagi kabi si murg' (o'ttiz qush) Simurg' (bir qush, qushlar shohi) ga aylanib qolganidek, oshiq ham Ma'shuq bilan qovushib, ularning har ikkalasini ham xuddi si murg' – Simurg' deganday, bir ism bilan atasa bo'laveradi. Ana shu holatning nomi vahdatdir:

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Ammo vahdat ham, fano bilan ham yo'l nihoyasi emas. “Fanodan so'ng uning mantiqiy hosilasi baqo keladi, – deb yozadi Ye.E.Bertels, – baqoda inson o'z muvaqqat o'zligining mahv bo'lganini his qilib, ilohiyot dengiziga g'arq bo'lib ketadi, shu bilan birga, unga ayon bo'ladiki, Haq taolo qanday boqiy bo'lsa, u ham shunday boqiydir. Bu, albatta, solik muyassar bo'lishi mumkin bo'lgan eng oliy maqomdir” [8;38]. Ulug' shoirning quyidagi baytini ushbu haqiqatning she'riy ifodasi deb aytish mumkin:

Boqiy topar ulki, bo'ldi foniy,
Rahravg'a baqo fano bo'luptur. [3;144]

Biroq vahdat, fano va baqo saodati hammaga ham muyassar bo‘lavermaydi. Chunki yo‘l azmini niyat qilgan yo‘lchilar birday emas, bu o‘rinda shoir ularni ikki guruhga bo‘ladi: 1) ahli qabul; 2) ahli rad:

Qilg‘uchi bu bodiya qat‘ig‘a mayl,

Ahli qabulu rad erur ikki xayl.

Ulug‘ shoir dastlab ahli raddan so‘z ochadi. Ahli rad yo‘l azmida Rahbari tavfiqning madadi yetmay, undan benasib, bebahra qolganlardir:

Azmig‘a chun qo‘ydi qadam ahli rad,

Rahbari tavfiqdin o‘lmay madad.

Tavfiq ko‘p ma‘noli so‘z bo‘lsa ham, bu o‘rinda unga to‘g‘ri keladigan ma‘no madad yoki hidoyat. Ammo oddiy madad, oddiy hidoyat emas, balki yo‘l qat‘ida rahravga Haqdan yetadigan madad, Haqdan yetadigan hidoyatdir. Bu haqda ulug‘ shoir bir g‘azalida shunday deydi:

Yana hidoyati tavfiq ulki, bergay Haq

Ko‘ngulga dag‘dag‘ai azmi kishvari tahqiq. [4;219]

Hidoyati tavfiq Haq taolodan yetar ekan, baytda zikr qilingan Rahbari tavfiq ham Uning O‘zidir. Ahli radga Rahbari tavfiqdan madad bo‘lmasligining, albatta, o‘z sabablari bor. Ulug‘ shoir bir baytida fano dayrining piri tariqi tili bilan so‘zlab, deydi, betariq, ya‘ni tariqat yo‘liga kirmagan, bu yo‘lda takmili suluk qilmagan el tavfiq hidoyatidan mahrumdir:

Bu nukta surdi fano dayri ichra piri tariq,

Ki betariqqa yetmas hidoyati tavfiq. [4;219]

Hidoyati tavfiq yetmas ekan, “Bismilloh” eng yaqin emas, eng uzoq, buning ustiga cheksiz kulfat va ofat, dardu g‘am bilan to‘la yo‘ldir.

Shoir avvalgi qismda “Bismilloh”ni turli narsalarga qiyoslab, u haqda rangin tashbeh va ruju‘lar yaratgan bo‘lsa, endi “Bismilloh” harflarini birma-bir ta‘rif-tavsif etib, ularni kitobat san‘atining betakror namunalariga aylantiradi. Shoirning san‘atsozlik mahorati g‘oyat rang-barang: u bir o‘rinda harf shaklini vasf etsa, bir o‘rinda ulardan yangi so‘z yasaydi, bir o‘rinda uning ma‘nosiga ishora qilsa, bir o‘rinda ularni birdaniga bir necha ma‘noda namoyish qiladi. Bu harflarning hammasi bo‘lmasa-da, ayrimlari misolida ham shoirning betakror san‘atkorligi haqida yorqin tasavvur hosil qilish mumkin. Chunonchi, “Bismillohning “bo” (ب) si haqida so‘zlar ekan, uni shunday tasvirlaydi:

“Bo”si ibodin urar avval salo,

Yoki degay “lo”, ne bo‘lur juz “balo”.

“Bo” rad ahliga avval to‘xta deydi, so‘ngra “lo” – “yo‘q” deb hayqiradi. “Bo” (ب) ning “lo” deb hayqirishi esa “balo”dan o‘zga narsa emas. Darhaqiqat, “bo” harfiga “lo” salosi qo‘shilsa, “balo” bo‘ladi (icxtiroj san‘ati): ب+لا = بلا = ba+lo.

“Sin” (س) “bo”dan ham dahshatliroq balo. Zero, “bo”ning bitta tishi bo‘lsa, “sin”ning uchta tishi bor. SHoir bu tishlarni nahangning orqasidagi arrasi – suzg‘ichiga o‘xshatadi. Ularning har biri yuz kemanding ofatidir:

“Sin”i nahang arqosining arrasi,

Yuz kemanding ofati har parrasi.

“Ro” (ر) larning rad ahlining boshiga yog‘diradigan zarari ham boshqa harflardan kam emas:

“Ro”larikim zohir etib iqtiron,
Fosh o‘lib ondin zarari bekaron.

“Ro”lari yondashib kelsa, – deydi shoir, – rad ahliga cheksiz zarar yuz ko‘rsatadi. Shoir cheksiz zararga zararning o‘zini ham dalil qiladi, chunki zararda ham ikki yondosh “ro” bor: ضرر. Bugina emas. Baytda “ro”li so‘zlar ketma-ket tizilib, uning bir ma‘nosiga o‘n ma‘no, bir sadosiga o‘n sado qo‘shgan: zohir, iqtiron, zarar, bekaron.

“Ho”si halok etgali qullobvash,
Mahlaka qalbi aro qullobkash.

Baytdagi “ho” hoyi havvaz bo‘lib, u Alloh so‘zining oxiridan joy olgan: الله. Halok (هلاک) ning boshi va mahlaka so‘zining oxiri ham shu harf: مهلكه. Bugina emas, mahlaka qalbi, ya‘ni o‘rtasi ham “ho”dir. Xullas, “ho”ning boshi ham, o‘rtasi ham, oxiri ham ayni halokat: هلاکت. Ular rad ahlini halok etmoq uchun changak shakliga kirgan, halokat joyida o‘tirib, jon qasdida changak tashlaydi.

Ofat ko‘rsatishda “tashdid”ning shiddati barchadan kuchli:

Har sori “tashdid” taaddud bila,
Zohir o‘lub elga tashaddud bila.

“Basmala”da uchta “tashdid” bor. So‘z istilohiy ma‘nodan tashqari, lug‘aviy ma‘nosi ham kasb etgan: qiyinchilik. “Tashaddud” ham “tashdid” bilan o‘zakdosh, uning ma‘nosi ham qiynalish. Taaddud esa ko‘p sonli demakdir. Bu yo‘lda “tashdid”lar ko‘plashib rad ahlining ahvolini tang qiladi, – deydi ulug‘ shoir, – ular qiyinchilik ustiga qiyinchilikdir.

Qisqasi, – deydi u rad ahli haqidagi fikrlarga yakun yasab, – ahli nazar, ya‘ni zohirbinlar qanchalik urinmasinlar, Maqsud jamolini ko‘rishdan mahrumdirlar:

Har nechakim noziri Maqsud o‘lub,
Ahli nazar ko‘ziga mardud o‘lub.

Shunday qilib, betavfiq elning fano va baqo, oxir oqibat esa vahdat xazinasini haqidagi orzulari behuda xayol va quruq vahmdan o‘zga narsa emas.

Ammo “Bismilloh”, uning harflari ahli qabul ayni saodat. Ahli qabul bu yo‘l azmiga jazm qilsa, – deydi shoir endi farah va surur bilan, – “bo”si balo emas, “bo”i bashoratdir:

“Bo”si burun “bo”i bashorat durur,
Shamrasi kirmakka ishorat durur.

“Bashorat”ning ma‘nosi xushxabar. Burun so‘ziga ulug‘ shoir ikki ma‘no jo qilgan: 1) avvalo; 2) avvalgi harf. Shunga muvofiq misra ham ikki ma‘no kasb etgan: a) “Bismilloh”ning “bo”si vahdat xazinasidan bashorat beruvchi – xushxabar keltiruvchi eng avvalgi harf; b) o‘sha bashorat so‘zining avvalgi harfi: بشارت.

Shoir ahli qabul ta‘rifida tasvir va tavsifni harfma-harf yuksaklikka ko‘tara boradi. “Sin” haqida so‘zlar ekan, uni zinaga o‘xshatadi, ammo u oddiy zina emas, balki salomatlik zinasidir: “Sin”i salomat yo‘lining ziynasi. SHoirning “sin”ni

zinaga nisbat berishida chuqur asos bor, u “salomat yo‘lining” zinasi – birinchi harfi bo‘lishidan tashqari, shaklan ham ham zinaga o‘xshab ketadi: س. Lekin shunday ohornok tashbeh ham shoirni qoniqtirmaydi, u ruju’ san’atini ishga solib, “sin” vasfiga yana bir daraja vasf qo‘shadi: Balki saodat yuzi oyinasi. Baytdagi salomat diniy kamolat, saodat esa Haq taolo tomonidan suyukli bandalariga ato etilgan inoyat [12; 22], yuz esa kitobat san’atiga ishorat: u saodat (سعادت) ning yuzi – birinchi harfidir: س. SHoirning bu safar bashorat qilishicha, “sin” oyina, ammo oddiy oyina emas, balki saodat yuzining oyinasidir.

“Mim” ham bu yo‘lda ahli qabulga madadkordir: “Mim”i ochib manzili maqsadg‘a yo‘l. Shoir bashorat “bo”si, salomat zinasi, saodat yuzi kabi iboralarni ikki ma’noda qo‘llab, purma’no iyhomlar yaratganidek, ochib yo‘l iborasiga ham ikki ma’no jo qilgan: 1) maqsad manzili tomon yo‘l ochmoq; 2) maqsad manzili so‘zlarini ochib (boshlab) bermoq. Darhaqiqat, maqsadning ham, manzilning ham boshi “mim”dir: منزل – مقصد. Biroq “mim” maqsad va manzilning boshigina emas, Balki bu manzil aro sarchashma ul. “Mim”ning manzili maqsad aro sarchashma ekanligini uning sarchashmasifat boshchasi ko‘rsatib turibdi: م.

Ravzai jannatg‘a eshik “ro”lari,

G‘unchai vahdatg‘a beshik “ho”lari.

Baytdagi eshik ham ikki ma’noda kelgan: 1) qiriladigan eshik; 2) birinchi harf. Ya’ni “ro”lar ham ravzai jannat eshigi, ham ravzaning birinchi harfi: روضه. Jannatga eshikdan kirilganidek, jannat ravzasiga, ayni chog‘da, ravza so‘ziga ham ana shu “ro”lar orqali kiriladi. Ikkinchi misradagi “ho”lar Rahmon, Rahim ismlaridagi “ho”lardir: رحمان – رحيم. Bu “ho” “hoyi huttiy”. Vahdat so‘zida ham “hoyi huttiy” bor: وحدت. Shoir vahdatni g‘unchaga, “ho”larni esa beshikka qiyos qiladi. Zero, ح ning shaklan ham g‘unchaga, ham beshikka o‘xshashligi bor. Shu bilan birga, g‘uncha yoshlik demak. Yosh bolaning kamol topishiga beshik bois bo‘lganidek, vahdat g‘unchasining ham barg yozib, gul ochishiga “ho” beshiklari boisdur.

Bosh-ayog‘i boshtin-ayoq jon bo‘lub,

Boshdin-ayog‘ jon neki, Jonon bo‘lub.

Bu bayt boshdan oyoq ikki ma’nolidir: 1) “Bismilloh”ning boshi ham, oxiri ham boshdan oyoq jondir, yo‘q, yo‘q, boshdan oyoq jon nimasi, boshdan oyoq Jonondir. Jonon aslida jonning ko‘plik shakli, ammo amalan Jonon Yorning istioraviy ifodasi, Yor esa Allohdir. Alloh vahdat xazinasining yo‘lchilariga qanday ko‘mak bersa, “Bismilloh” ham shunday ko‘mak beradi; 2) vahdat xazinasini qo‘lga kiritgan yo‘lchining boshi ham, oyog‘i ham boshdan oyoq jondir, yo‘q, yo‘q, boshdan oyoq jon nimasi, boshdan oyoq Jonondir. Darhaqiqat, Maqsud vasliga yetib, U bilan vahdat hosil qilgan rahravning, yuqorida fano bobida ta’kidlanganidek, Maqsuddan farqi qolmaydi: boshdan oyoq jon, balki Jonon bo‘lib qoladi. Jon va Jonon tanosubini Haqqa, Haqiqatga yetishishning o‘ziga xos yo‘li – so‘fiyona tariqatning behad ixcham va lo‘nda ifodasi deb aytish mumkin. Jon → Jonon.

Azmida ul qavmg'a dog' uzra dog',

Qat'ida bu xaylg'a bog' uzra bog'.

Ul qavmdan murod ahli rad bo'lsa, bu xayldan murod ahli qabul. Rad ahlining ishi azm, qabul ahlining ishi qat'dir. Azmning ma'nosi mayl, xohish, qat'ning ma'nosi esa kesish, kesib o'tish. SHundan ham ma'lum bo'ladiki, ahli rad tavfiq hidoyati yetmay, aro yo'lda sarson bo'lsa, ahli qabul tavfiq sharofati bilan vahdat yo'lini muqarrar qat' aylaydi. SHuning uchun Azmida ul qavmg'a dog' uzra dog', Qat'ida bu xaylg'a bog' uzra bog'.

Xulosalar. Ulug' shoir "Bismilloh" sharhiga kirishar ekan, aniq bir g'oyaviy niyat bilan qo'lga qalam tutgani ko'zga tashlanadi. Agar ulug' shoir ijodining qalbi bo'lgan bosh g'oyani mo'jiz tarzda ifoda etish lozim bo'lsa, aytish mumkinki, u Haq vasli, unga yetish yo'llaridir. Yo'llar xilma-xil bo'lsa-da, ular ichida, ulug' shoirning qayta-qayta uqtirishicha, eng avvalgisi, ishq, aniqroq qilib aytganda, majoziy ishq yo'lidir. Majoziy ishq, – deydi Navoiy bir she'rida bu haqda, – haqiqat ahli uchun tariqat – o'ziga xos yo'lidir:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,

Nedinki ahli haqiqatqa bu tariqat erur. [4; 512]

Ammo ahli haqiqat uchun ishq yagona yo'l emas. May yoki irfon ham shu jumladandir. Arshi a'lo ham uning irfoni oldida bir past maqom bo'lib qoladi, – deydi ulug' shoir bir tarkibbandida, – Zero, jom orifi yoki Jomlik orif azaliy jomdan mast bo'lgan:

Arsh irfonida bir past maqom,

Masti jomi azaliy orifi jom. [4; 495]

Baytdagi bosh masala Ma'rifatdir. Shuning uchun ishq o'rnini irfon va may, oshiq o'rnini esa orif egallagan. Irfon va may yo'l bo'lsa, orif yo'lchidir. Ammo zohiran so'z orif va irfon haqidadek tuyulsa-da, asosiy masala Haq vaslidan o'zga narsa emas. "Qur'oni karim" aytilishicha, Haq taolo azal chog'i barcha insonlar ruhini yaratib, so'ng ularni o'z huzuriga chorlagan va ularga "Alastu birabbikum?" (Men Robbingiz emasmanmi? "A'rof: 172"), deb xitob qilgan. Haqning tengsiz husnu jamolini beparda ko'rgan barcha jonlar aqlini yo'qotib, behush bo'lib qoladi. Bu odamizod ko'ngliga ilk bor tushgan Haq ishq, ayni chog'da, u muyassar bo'lgan Haq vasli edi. Baytda shu voqeaga ishora bor. Unda aytilishicha, jom orifi yoki Jomiy irfon mayini sipqorib, mastlik, ya'ni Ma'rifat maqomi yetgan. Boshqacha qilib aytganda, uning ruhi irfon nurlari bilan charog'on bo'lib, xuddi azal chog'ida bo'lgani kabi, Haq ma'rifatining ko'zgusiga aylangan.

Bu jihatdan olganda "Bismilloh", xususan, tavsifda bosh o'rin tutgan rishta mafhumining majoziy ishq, may yoki irfondan farqi yo'q. U bejiz yo'l deb talqin qilingan, yo'l qat'i uchun esa yo'lchiga tavfiq yetishi shart qilib qo'yilgan emas. Zero, shoir bir qit'asida uqtirganidek, tavfiq xuddi pir, iste'dod kabi o'zlikdan qutulmoq chorasozidir. Iste'dod bo'lsa-yu, pir bo'lmasa, pir bo'lsa-yu, tavfiq bo'lmasa, kishi Haq vasliga yeta olmay, bu hasratdan bag'ri qon bo'lishi muqarrar:

Ey ko'ngul, tan taxtasin bu qa'ri yo'q girdobdin

Istasang sohilg'a chekmak, bilki, bu oson emas.

Piru iste'dodu tavfiq o'lmasa, bo'lmas bu ish,

Kimdururkim, bag'ri bu hasratdin oning qon emas. [3, 542]

Faqat ulug' shoir bu o'rinda Haq vaslini mazmunga muvofiq vahdat xazinasi deb nomlaydi. Chunki "Hayrat ul-abror" "Farhod va Shirin" yoki "Layli va Majnun" kabi ishq dostoni emas, balki ahli qabulni vahdat maqomiga doxil qiluvchi fazilatlar maqtovi yoki aksincha, ahli radga bu yo'lda mone' bo'luvchi nuqsonlar mazammatidan iboratdir. "Hayrat ul-abror"da bu kabi fazilat va nuqsonlarining butun bir silsilasi mavjud: adl va zulm (3-maqolat), riyoyi xirqapo'shlar va haqiqiy bodano'shlar (4-maqolat), karam va buxl (5-maqolat), qanoat va tama' (7-maqolat), vafo va jafo (8-maqolat), rost va yolg'on (10-maqolat), ilm va jahl (11-maqolat). Umuman olganda, "Basmala"da tilga olingan ahli rad va ahli qabulning ma'nosi keng. Ahli radni "Mahbub ul-qulub"da ta'riflangan avom, ahli qabulni esa xavos deb aytish mumkin. Xusrav, Ibn Salom, Bahrom, Iskandar kabilar ahli rad bo'lsa, Robiya, shayx Iroqiy, Farhod, Majnun kabilar ahli qabuldir. Shu ma'noda "Bismilloh"ni nafaqat "Hayrat ul-abror", ayni chog'da, butun "Xamsa"ning kalidi, balki debochasi deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуррахман Джами. Тухфат ул-ахрор. Москва: Наука, 1983.
2. Авазназаров О. "Хайрат ул-аброр" достони "Басмаласи" хусусида. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2023, № 5/4.
3. Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 3-жилд – Тошкент: Фан, 1989.
4. Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 6-жилд – Тошкент: Фан, 1991.
5. Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 7-жилд – Тошкент: Фан, 1991.
6. Алишер Навоий. Хамса: Абдухамид Пардаевнинг шеърий табдили. – Тошкент: Академнашр, 2022.
7. Амир Хосроу Дихлави. Матлаъ ул-анвор. – Москва: Наука, 1975.
8. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. Москва: Наука, ГРВЛ, 1965.
9. Давлатов О. Алишер Навоийнинг "Хайрат ул-аброр" достонидаги басмала бобининг қиёсий таҳлили. // Ўзбекистонда хорижий тиллар. №1, 2017.
10. Лоҳижй, Шамсиддин Муҳаммад. Мафотих ул-иъжоз фи шарҳи "Гулшани роз". Техрон: Заввор, 1387 х.
11. Низомии Ганҷавӣ. Куллиёт. Дар панҷ чилд. Ҷидди панҷум. – Душанбе: Ирфон, 1984.
12. Рустамий А. Бисмиллоҳнинг маъноси. – Тошкент: Чўлпон, 1999.
13. Шабустарӣ, Шайх Маҳмуд. Гулшани роз. – Техрон: Тахурӣ, 1384 х.

ERRORS IN BOOKS TRANSLATED FROM ENGLISH TO UZBEK: CAUSES AND SOLUTIONS

Abdulkhaimova Odinakhon Abdilbosit qizi
Student of University of Business and Science
odinaabdulkhaimova5@gmail.com

Annotation: This article analyzes common translation errors found in books translated from English to Uzbek. It explores various types of mistakes, including semantic, syntactic, lexical, cultural, and idiomatic errors, illustrated with examples and accompanied by practical solutions. The goal of the article is to identify challenges faced by translators and offer strategies to improve translation quality and cultural accuracy.

Key words: Translation, errors, English, Uzbek, semantic errors, syntactic errors, cultural differences, idioms, translator, quality translation

ОШИБКИ В КНИГАХ, ПЕРЕВЕДЁННЫХ С АНГЛИЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ: ПРИЧИНЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация: В статье анализируются типичные ошибки, встречающиеся при переводе книг с английского языка на узбекский. Рассматриваются семантические, синтаксические, лексические, культурные и идиоматические ошибки, приводятся примеры и предлагаются возможные решения. Цель статьи — выявить проблемы, с которыми сталкиваются переводчики, и предложить пути их преодоления для улучшения качества перевода.

Ключевые слова: Перевод, ошибки, английский, узбекский, семантические ошибки, синтаксические ошибки, культурные различия, идиомы, переводчик, качественный перевод

INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN KITOBLARDAGI XATOLAR: SABABLARI VA YECHIMLARI

Anotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan kitoblardagi keng tarqalgan tarjima xatolarini tahlil qiladi. Unda semantik, sintaktik, leksik, madaniy va idiomatik xatolar turlari misollar bilan ko‘rsatilib, har biriga yechimlar taklif etiladi. Maqola sifatli tarjima yaratishda tarjimonlar duch keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tarjima, xatoliklar, inglizcha, o‘zbekcha, semantik xatolar, sintaktik xatolar, madaniy tafovutlar, idiomalar, tarjimon, sifatli tarjimon.

Introduction

Translation is a bridge that connects different cultures, languages, and worlds of thought. However, this bridge is not always smooth and flawless. Translating books from English to Uzbek is a demanding process that requires not only linguistic knowledge, but also deep understanding of culture, semantics, syntax, and style. Inaccurate translations can lead to serious misinterpretations and reduce the quality of the reading experience. In this extended article, we explore

the wide range of errors that commonly appear in such translations and offer comprehensive solutions to overcome them [2].

Semantic Errors

Semantic errors are one of the most frequently encountered issues in translation. These occur when a translator misinterprets or inaccurately conveys the meaning of a word, phrase, or sentence. Since English and Uzbek belong to different language families, many words and idioms do not have direct equivalents.

Example 1:

English: “He is in charge of the project.”

Incorrect Uzbek: “U loyiha boshqaradi.”

Correct Uzbek: “U loyihaga javobgardir.”

Here, the phrase “in charge of” reflects responsibility, not merely action. Choosing the correct term like javobgar or mas’ul is critical to maintaining the original meaning [5].

Example 2:

English: “She made a scene at the restaurant.”

Incorrect Uzbek: “U restoranda sahna yasadi.”

Correct Uzbek: “U restoranda janjal ko’tardi.”

The literal translation “sahna yasadi” doesn’t make sense in Uzbek. Instead, the idea should be culturally adapted to match local expressions.

Syntactic Errors

Syntactic errors are caused by differences in sentence structure. English follows a Subject-Verb-Object (SVO) pattern, while Uzbek often uses Subject-Object-Verb (SOV). Misalignment of these patterns can lead to awkward or confusing sentences.

Example 1:

English: “She gave him the book.”

Incorrect Uzbek: “U unga kitobni berdi.”

Better Uzbek: “U kitobni unga berdi.”

While both forms might be understood, the latter is more natural and emphasizes the object being given.

Example 2:

English: “They quickly solved the problem.”

Incorrect Uzbek: “Ular tezda muammoni hal qilgan.”

Correct Uzbek: “Ular muammoni tezda hal qilishdi.”

Here, verb placement and tense usage need adjustment to match Uzbek grammar and clarity.

Cultural and Contextual Errors

Culture plays a significant role in translation. Terms and situations common in one culture may not exist in another. Direct translations may confuse readers if cultural references are not adapted or explained [4].

Example 1:

English: “He went to a pub to have a pint.”

Incorrect Uzbek: “U pivo ichish uchun bir kafega bordi.”

Better Uzbek: “U pabga borib, pivo ichdi.”

Since the concept of a “pub” or “pint” is foreign to many Uzbek readers, either a footnote or a culturally equivalent explanation should be provided.

Example 2:

English: “He wore a kilt to the wedding.”

Incorrect Uzbek: “U to‘yga kilt kiyib bordi.”

Better Uzbek: “U shotlandcha an‘anaviy yubka – kilt kiyib, to‘yga bordi.”

When culturally specific items are involved, short explanations enrich understanding.

Lexicographic Errors

Regarding the grammatical proficiency of the students prior to the application of habitual and inductive teaching methods, both the control and experimental groups' proficiency levels are uniformly poor. This fact is proven by pre-test result in both groups in that the control group. After using habitual and inductive teaching strategies, students' grammatical skill has improved, which is positive because both groups' pupils have gotten better at it. The experimental group's pupils' grammar skills appear to improve more than those in the control group for some reason. The post-test results for both groups show this condition. Finally, it can be concluded that the inductive teaching method helps pupils become more proficient in grammar.

References:

1. Coghill, J., & Magedanz S. (2003). English grammar (p. Xvi). New York, Wiley Publishing.
2. Carter, R., & Nunan, D. (2001). The Cambridge guide to teaching English to speakers of other languages (p. 162). New York, Cambridge University Press.
3. Ediger, M. (2003). Teaching English successfully (P. 35). New Delhi, Discovery Publishing House.
4. Gall, M. D., Gall, J.P., & Borg, W. R. (2003). Educational research: An introduction (7th ed.) (p.265). New York, Pearson Education.
5. Hammerly, H. (1975). The deduction/induction controversy. The Modern Language Journal, 59(1/2), 15-18.
6. Krashen, S. (1982). Principles and practice in second language acquisition (pp. 65-78). Oxford, Pergamon.
7. Robinson, P. (1996). Learning simple and complex second language rules under implicit, incidental, rule-search, and instructed conditions. Studies in Second language Acquisition, 18(01), 27-67.
8. Shaffer, C. (1989). A comparison of inductive and deductive approaches to teaching foreign languages. The Modern Language Journal, 73(4), 395-403.
9. Ur, P. (1996). A course in language teaching from practice to theory (p. 4). Cambridge, University Press.

13.00.00- Pedagogika va psixologiya fanlari**O'QUVCHILAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHGA
YO'NALTIRILGAN AKSIOLOGIK YONDOSHUVLAR**

Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
University of Business and Science

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishda xalq pedagogikasining ijtimoiy va milliy xususiyatlarining ahamiyati va afzalliklari haqida so'z boradi. Hamda, jismoniy tarbiya va sport –sog'lom turmush tarzi ekanligi, u bilan shug'ullanish kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanishi, foydalari haqida yozilgan bo'lib, bunday turmush tarzi jarayonida inson tanasidagi barcha a'zolar va tizimlarning harakatiga nisbatan bo'lgan tabiiy talabi qo'shimcha ravishda yuzaga keltiradigan serharakatlik bilan yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish va o'zbek milliy harakatli o'yinlari haqida ma'lumotlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xalq pedagogikasi, ijtimoiy faollik, milliy o'yinlar, urf-odat, an'ana.

**АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ СОЦИАЛЬНОЙ
АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ**

Аннотация: В данной статье говорится о значении и преимуществах социальных и национальных особенностей народной педагогики в повышении социальной активности учащихся. При этом пишется о том, что физическое воспитание и спорт являются здоровым образом жизни, а его польза становится неотъемлемой частью повседневной жизни. В ходе такого образа жизни дополнительно создается естественная потребность в движении всех органов и систем организма человека, или занятия физической культурой и спортом, а также приводятся сведения об узбекских национальных двигательных играх.

Ключевые слова: Народная педагогика, общественная деятельность, национальные игры, обычай, традиция.

**AXIOLOGICAL APPROACHES AIMING AT INCREASING THE SOCIAL
ACTIVITY OF STUDENTS**

Abstract: This article discusses the importance and advantages of the social and national characteristics of folk pedagogy in increasing the social activity of students. It also discusses the benefits of physical education and sports as a healthy lifestyle, the fact that engaging in them has become an integral part of everyday life, and the natural demand for the movement of all organs and systems of the human body in the process of such a lifestyle, as well as information about physical education and sports, and Uzbek national active games.

Keywords: Folk pedagogy, social activity, national games, customs, traditions.

Hozirda dunyoning turli davlatlaridagi xalqlarning madaniy qarashlari va o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratsak madaniyat sohasidagi yutuqlar mavjud muammolarni hal etishda juda katta o'rin tutadi. O'sib kelayotgan avlodni ko'p asrlik tajribasi yordamida o'quvchilarning zamonaviy munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatga tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Qanday qilib xalqning o'z milliy qiyofasi, madaniy xususiyatlarini tiklamasdan turib, bugungi kunning muammolarini hal qilish mumkin? Shubhasiz, ilmiy tajribasida xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llash mumkin bo'lgan ko'p usullar bor. Xalq pedagogikasi shaxsga ijtimoiy xususiyatlarni shakllantirish uchun lozim bo'lgan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar, ta'lim-tarbiya berish yo'llari, vositalarining majmuasi hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi xalqlarning ta'lim-tarbiya masalasiga oid qarashlar, g'oyalar, an'analari asosida shakllanadi. Xalq pedagogikasining tengsiz qadriyati shuki, u birinchidan, o'zida asrlar davomida shakllangan pedagogik haqiqatlarga ega, ikkinchidan esa, hayotiy, amaliy tavsifga ega. U o'z ifodasini xalq pedagogikasining barcha g'oyalari amaliy tajribaga asoslanganligi, amaliyotda sinalgan va yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy faoliyatga qaratilganligida topadi.

Xalq pedagogikasidagi mavjud hayotiy (maishiy, mehnat, axloqiy) va pedagogik ma'lumotlar, kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bular muomala jarayonida ham kattalar, ham bolalar tomonidan bir xil o'zlashtiriladi. Xalq pedagogikasi tarixiy va ijtimoiy tajriba mahsuli bo'lishi bilan birga ijtimoiy axloq va ijtimoiy moslashuv malakalarining shakllanishi vositasi, omili hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi jamiyatning pedagogik madaniyatidagi eng yaxshi qadriyatlarni mujassamlashtirgan bo'lib, bu kattalarga hurmat, mehmondo'stlik mehnatsevarlik axloqlilik rostgo'ylik va boshqalar [3].

Xalq pedagogikasining ijtimoiy xarakteri uni ko'pgina etnomadaniy hodisalar: dunyoqarash, tibbiyot, etika, din, ekologiya, boshqalar bilan o'zaro munosabatida yorqin namoyon bo'lishidadir. Bu muammolar olimlar tomonidan o'rganilmoqda.

O'zbek xalq pedagogikasida shaxs dunyoni hayotiy va shaxsiy tajriba orqali o'zlashtaradi, degan teran fikr mavjud. Chunki shaxs boshqalar bilan muomalaga kirar ekan, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

O'zbek xalqida shunday naql bor: chaqaloq hali shaxs emas, u tom ma'nodagi inson bo'ladimi, yo'qmi-bu uning ota-onasi, uni o'rab turgan muhit va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatiga bog'liq. Shuning uchun ham xalq pedagogikasida "go'dak faqatgina avlodlar tomonidan erishilgan, ishlab chiqilgan turli ong shakllarini o'zlashtirsagina, shaxsga aylanadi", deb ta'kidlanadi. Bolaning tug'ilishi bilan tarbiyani boshlamaslik xalq hayotining rivoji, oldinga intilishiga salbiy ta'sir qiladi. Bu g'oya bir qator xalq rivoyatlari, afsonalari, dostonlarida o'rin olgan. Agar uni zamonaviy tushunchalarda ifodalasak, o'zbek xalq pedagogikasining asosini bolaga g'amxo'rlik qilish, uning sog'ligi haqida

qaygʻurish va hayotini muxofaza qilish, uning aqliy, axloqiy, estetik jismoniy va mehnat tarbiyasi uchun kattalar tomonidan taʼsir qilishning majmuasi tashkil qiladi.

Oʻzbek etnografiyasini oʻrganish uchun turli xil hujjatlarni tahlil qilar ekanmiz, u mukammal inson modeliga mos kelishini eʼtirof etishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Buyuk maʼrifatparvar, olimlar, pedagoglar va shoirlarning asarlarini oʻrganish inson tarbiyasi haqidagi xalq gʻoyalari ularning mazmuniga singdirilganini koʻrsatadi. Ibn Sinoning “Tadbiri manzil” kitobining “Bolalar tarbiyasi va taʼlimi” bobida oila tarbiyasidan, Beruniyning “qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida turli xalqlarning anʼanalaridan, al-Farobiyning “Katga musiqa kitobi”da xalq musiqasidan koʻp misollar mavjud. Nosir Xusravning “Baxt kitobi” da ham oddiy odamlarning mehnatlari ulugʻlanadi.

Xalq pedagogikasini oʻrganish uchun S.R.Rajabov, A.Ismoilova, I.Obidova, S.Temurova, M.Ochilov, A.Otayeva, Z.Mirtursunov, A. Minavarov [4.432] kabi oʻzbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar [3]. Bu mualliflarning ishlarini birlashtirgan holda oʻzbek xalq pedagogikasining quyidagi **milliy yoʻnalishlarini** ajratishimiz mumkin boʻladi:

- bolaning aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasining oʻzaro aloqasi asosida har tomonlama rivojlanishi gʻoyasi;
- shaxsning rivojlanishida oilaviy tarbiyaning yetakchi rolini belgilash;
- xalq pedagogikasi usul va tamoyillarining xalq ijodi namunalarda mujassamlashuvi;
- taʼlim-tarbiyaning pedagogik usullarini birlashtirish;
- xalq pedagogikasining amaliy xarakteri;
- xalq pedagogikasining oʻsib kelayotgan avlodni fuqarolik oila faoliyatiga tayyorlashdagi ijtimoiy ahamiyati.

1-jadval

Oʻquvchilar ijtimoiy faolligini oshirishga yoʻnaltirilgan yondashuvlarning retrospektiv tahlili

Manbalar	Ijtimoiy faollikka berilgan taʼriflar
Avesto	Barchaga mehribon boʻlish, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganlarga koʻmaklashishga tayyor, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun <i>faol kurashishga shay</i> boʻlish ezgu odamlarga xosdir.
Oʻrxun-Enasoy yozma yodgorliklarida	Ijtimoiy faollikni tarkibiy qismlari boʻlgan – <i>jasurlik, vatanparvarlik, bilimlilikmardlik</i> ulugʻlanadi. Yoshlarni Vatan mustaqilligi uchun kurashish va xalqni arosat, tutqinlikdan qutqarishga undash ustuvor oʻrin egallaydi. Sarkardalar <i>xalqparvar, jonkuyar, oʻz xalqining kelajagini oʻylaydigan</i> boʻlishlari lozimligi taʼkidlangan.
“Qurʼoni Karim” va “Hadisi-sharif”	Shaxsning faollikka asoslangan faoliyati va uni tashkil etish masalalariga eʼtibor qaratilgan. Xususan, « <i>Ilmu hunarni Xitoyda boʻlsa ham borib oʻrganinglar</i> », « <i>Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istigʻfor aytadi, xatto dengizdagi baliqlar</i>

	<i>ham», «Olloh aksirgan kishini yaxshi ko‘radi, esnagan kishini esa yomon ko‘radi» kabi hadislardagi iboralarda ijtimoiy xatti-harakat, faoliyatning ahamiyati mukammal yoritib berilgan.</i>
Abu Nasr Forobiy (873-950)	... ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi
Abu Ali ibn Sino (980-1037)	Kamolotga erishishning mezoni ilm - fan sirlarini faol egallashda, deb biladi. Uning fikricha, bilimli kishi <i>jasur, qo‘rqmas</i> hisoblanadi, bilimsiz kishi johil bo‘ladi.
“Politologiya”da n entsiklopedik lug‘atda	Shaxs faolligi siyosiy faollik tarzida talqin etiladi. Ushbu lug‘atda faollik shunday izohlanadi: «Shaxs faolligi obyektiv voqelikka bo‘lgan munosabatda aniq namoyon bo‘ladi. Bu munosabat har bir shaxsning jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lishi, o‘z ining xilma-xil ehtiyojlarini qondirish yo‘lidagi ijtimoiy munosabatlarda qanchalik erkin ishtirok etsa, bu uning siyosiy faolligining o‘rishiga shunchalik ta’sir ko‘rsatadi», deyilgan
«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da	Faollik – mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko‘rsatish, ishchanlik, ta’sirchanlik deb ta’riflanadi. Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan mazkur izoh mohiyatan e’tiborlidir.
Pedagogik entsiklopediyada	Ijtimoiy faollik – 1. ijtimoiy subyektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishini ifodalovchi tushuncha. 2. Subyektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ma’lum ijtimoiy-ma’naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakatidir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi.
Burhoniddin Marg‘iloniy (1123-1197)	«Kitob ul-faroiz» («Majburiyatlar haqida kitob») asari ijtimoiy faollik taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning asarlarida adolatlilik, o‘z davrining <i>huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar saqlash, insof va diyonat, mehr-oqibat</i> kabi ijtimoiy-pedagogik tushunchalar ustivor o‘rin egallagan.
Amir Temur (1336-1405)	«Men sifatlarimning eng avvali deb beg‘arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag‘aldan ustun qo‘ymadim». «Men har kimgaki, va’da bersam, unga vafo

	qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim»
Jaloliddin Davoniy (1427 – 1502)	Inson faqat jamiyatda, kishilar orasida ular bilan birgalikda tashkil etilgan munosabatlar jarayonida faollashadi, degan fikrni ilgari suradi. «Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so'ng muallim ham javobgar sanaladi»
Afsona, ertak, rivoyat, doston, maqol, hikoya	“To‘maris”, “Shiroq” kabi afsonalar, “Alpomish”, “Qirqqiz”, “Go‘ro‘g‘li” singari dostonlar, “Zumrad va Qimmat”, “Egri va To‘g‘ri”, “Ur to‘qmoq”, “Oltin tarvuz”, “Erali va Sherali”, “Qo‘rqmas Botir” kabi xalq og‘zaki ijodida insonni faollikka undovchi fenomenlar mavjud.
Xalq bayramlari	Navro‘zda ko‘cha va hovlilarni tartibga keltirish, atrof-muhitni tozalashda faol ishtirok etish, daraxtlarni oqlash, ko‘chat (kamida uchta), hamda gullar o‘tqazish, xushchaqchaq va shodumon yurish, bir- birlariga yaxshi niyatlar tilash, arazlashgan kishilar bilan yarashish, halol va munosib hayot kechirishga intilish maqsadida ijtimoiy jihatdan faol bo‘lish kabilar.
Xalq xasharlari	Insonlarni faollikka, yurtni obod qilishga, go‘zallikka intilishga undaydi.
Mualliflik ta’rifi	Ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushuncha.

Xalq pedagogikasi xalq og‘zaki ijodi namunalari: maqol, ertaq topishmoq, ashula, doston, rivoyatlarda o‘zining ifodasini topgan. Aynan shularda xalq asrlar mobaynida o‘z ijtimoiy tajribasini umumlashtirgan. Ular hikmatlar shaklida pand, o‘git, nasihat mazmuniga ega bo‘lib xalqning ijtimoiy hayotga bo‘lgan real (hayotiy) qarashlarini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek xalq pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri xalq og‘zaki ijodi matnlarida tarbiyaning vosita, usullarining tavsifi berilganligidadir. Oilaviy an‘analar, tarbiya usullari va vositalari nihoyatda turli-tuman bo‘lib, bu haqda ko‘p sonli manbalar dalolat beradi. Aynan ularda biz mehnat jarayonlarini, yigit va qizlar uchun mo‘ljallangan bayramlarning o‘ziga xos tavsiflarini uchratamiz. Ma’fkura, an‘ana, marosimlar avloddan-avlodga o‘tib keladi. Ularda nikoh marosimi, bolaning tug‘ilishi, mehmonlarni kutib olish va kuzatish, dafn marosimi, mehnat jarayonlarini o‘tkazishning muayyan qoidalari va boshqalar mavjud bo‘lgan. Bu marosimlarda bolalarning doimiy ishtiroki ta’minlanadi. Bu odatlar yordamida o‘zbeklarning an‘anaviy muomala madaniyati shakllanadi. Sobiq sho‘ro tuzumi davrida milliy an‘analarga, odatlarga hurmatsizlik qilish oxir-oqibat axloqiy holatlarning yomonlashuviga olib keldi. So‘nggi yillarda insonlarning tabiat, jamiyat, dinga nisbatan munosabatlarida

erkinlik paydo bo'ldi. Bunday sharoitlarda odat, marosimlar, muomala madaniyatidagi o'ziga xosliklar o'sib kelayotgan avlodning har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash tizimida yanada muhim o'rin tuta boshladi. O'zbek xalqining axloqiy odatlarining mustahkamligi, asosan, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga alohida ahamiyat berilishi bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar. O'zbek xalq pedagogikasida sevgi, oila, bolalar haqidagi qarashlar ko'p yillik tajriba ta'sirida shakllangan. Bu tushunchalarning QOnun va qonuniyatlarida pedagogik amaliyotda sinalgan tarbiya me'yorlari va qoidalari o'z aksini topgan. Xalq pedagogikasida oila inson hayotida eng asosiy tarbiya omili sifatida ko'riladi. Oila jamiyat negizidir. U bolalarga tarbiyaviy ta'sir etishning usullari, odat va an'analarini bilishi, dam olish tartibini, bolalarning mehnat va o'quv mashg'ulotlarini belgilashi, ota-ona va bolalar orasidagi o'zaro munosabatlarning eng qulay me'yorlarini ishlab chiqishi lozim. Chunki bola o'zini qiziqtirgan masalalar bo'yicha eng avval o'z ota-onasi bilan maslahatlashadi. Bu yerda oila a'zolari orasidagi munosabatlar amalga oshadi hamda ota-onaning tarbiyaviy vazifalari aniqlanadi. Oila va oilaviy tarbiyaning u yoki bu xususiyatlari doimo xalq e'tiborida bo'lgan va xalq pedagogikasida o'z ifodasini topgan. Xalq, avvalombor, baxtli oila yaratish uchun kurashgan.

Xalq pedagogikasida oila "baxt manbai", "tabiat go'zalligi", mehnatsevar jamoa sifatida ko'riladi, oilaviy nizolarni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan hal qilishni maslahat beriladi. Xalq pedagogikasida onalikka oliy ijtimoiy qadriyat sifatida qaraladi, oilaning ijtimoiy vazifalarini bolada axloq hurmat, kattalar va kichiklar bilan xushmuomala bo'lish, dehqonchilik chorvachilik turli kasb-hunar malakalarini egallashda e'tirof etilgan. Ajdodlar tajribasini o'rganish zamonaviy pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq tarbiyaning milliy xususiyatlariga murojaat qilish madaniy jihatdan o'z qobig'iga o'ralib qolmasligiga olib kelmasligi kerak. Zamonaviy pedagogika fanining maqsadi milliy xususiyatlar asosida fanning zamonaviy muammolarini yechishga yordam beruvchi, uning rivojiga o'z hissasini qo'shuvchi kuchlarni topishdan iborat.

Ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy xalq o'yinlaridan "Otda chopish", "Qiz quvlash", "Uloq", "Kamonda o'q otish", "Chillak", "Oq suyak", "Besh tosh", "Kurash", "Tortishmachoq", "Mindi", "Varrak uchirish" kabi o'yinlar orqali o'quvchilarda

- botirlik;
- epchillik;
- tezkorlik;
- muvozanatni saqlash;

–qaddi-qomatni shakllantirish kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda juda samarali rol o'ynaydi [2]. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida milliy harakatli o'yinlar orqali o'quvchilarni mashq qildirish quyidagi ijobiy aqliy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Bularga:

- odob-axloq;
- topqirlik;
- ong osti rivoji;

–xotira;

–diqqatning rivojlanishi kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatta jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi asosida o'quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirishga doir tahlillar, kuzatishlar, qiyoslashlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, o'quvchining har tomonlama kamol topishi, uni jamiyatda, tengqurlari orasida ijtimoiy faol bo'lishini ta'minlashda xalq pedagogikasining namunalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. O'quvchilarni milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishlari va kelgusi avlodga yetkazish bo'yicha qilingan sa'y-harakatlar muhtaram prezidentimizning "kelajak bo'g'chadan boshlanadi" degan purma'no so'zlardan ham o'z ifodasini topdi. Darhaqiqat, aslida vatanparvarlik, el-yurtga fidoyilik bir qarashda oddiy, lekin hayot talabi bo'lgan ana shunday dolzarb ishlardan boshlanadi. O'quvchilarda o'zaro muloqotni tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'zni yuqori bo'lib, o'quvchi o'yin davomida boshqa o'yin a'zolari bilan muloqot qilishi, birgalikda ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishi, o'yinning tartib-qoidasiga rioya qilishlari ularda ijtimoiy faollikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmud Qoshg'ariy, «Devonu lug'otit turk». Qayta ishlangan, to'ldirilgan nashr: "Yangi asr avlodi", Toshkent. 2018-yil
2. Zahiriddin Muhammad Bobur, «Boburnoma». "Yangi asr avlodi", Toshkent. 2018-yil
3. Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna, "Xalq pedagogikasi vositasida O'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari" Dis. Namangan-2023.
4. P.F. Lesgaft, "Predvideni i realnost". -M.: AST, 1992.
5. WWW.Pedagog.uz.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIXATLARI

Avazbekova Shohsanam Nurmamat qizi
University of Business and Science o'qituvchisi
shohsanamavazbekova@gmail.com

Annotatsiya: Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilash va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Quyida tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan eng samarali innovatsion texnologiyalar va ularning afzalliklari haqida batafsil ma'lumot berilgan: Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib berish, ularning o'quv jarayoniga ta'sirini baholash va samarali foydalanish usullarini taklif qilish.

Kalit so'z: Tanqidiy fikrlash, texnologiya, shaxsiy fazilatlar, jamiyat, bilim, ko'nikma, refleksiya, ijtimoiy ishlab chiqarish, xulosa, axborot.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: Использование инновационных технологий в преподавании естественных наук позволяет значительно улучшить процесс обучения и повысить интерес учащихся к науке. Ниже приводится подробное описание наиболее эффективных инновационных технологий, используемых в преподавании естественных наук, и их преимуществ: Раскрыть значение инновационных технологий в преподавании естественных наук, оценить их влияние на процесс обучения и предложить методы их эффективного использования.

Ключевые слова: Критическое мышление, технология, личные качества, общество, знания, умения, рефлексия, общественное производство, вывод, информация.

SPECIFIC ASPECTS OF DEVELOPING CRITICAL THINKING IN ELEMENTARY STUDENTS

Abstract: The use of innovative technologies in teaching natural sciences helps to significantly improve the learning process and increase students' interest in science. Below is a detailed description of the most effective innovative technologies used in teaching natural sciences and their advantages: To reveal the importance of innovative technologies in teaching natural sciences, to assess their impact on the learning process and to suggest methods for their effective use.

Keywords: Critical thinking, technology, personal qualities, society, knowledge, skills, reflection, social production, conclusion, information.

Kirish. Mamlakatimiz ta'lim tizimida ona tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarni jamiyatdagi barkamol shaxs qilib tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ona tili darsliklaridagi matnli topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan bajarilishi davomida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratilmoqda. 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturda "O'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish" [1] kabi yo'nalishlar belgilab berilgan. Bu esa pedagogik texnologiyalar vositasida olingan bilimlar oldingi bilimlar bilan o'zaro bog'liq holda qabul qilinishi natijasida ta'limning integratsiyalashgan o'rganish jarayonining sodir bo'lishini, ular asosida axborotlarning ixcham holatda tasviriy ifodalash (xaritalash) orqali fikrlar tartibga solinib, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishini, shuningdek, ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-

yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Bu borada ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammosi bo'yicha bir nechta olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bunga L. S. Vigotskiyning zona to'g'risidagi qoidalari asosida proksimal rivojlanish katta ta'sir ko'rsatgan, shuningdek, D. B. Elkonin va V. V. Davydov; sh. A. Amonashvili va V. A. Suxomlinskiyning rivojlanish ta'limi g'oyalari haqidagi ta'limotlari kognitiv faoliyat, o'qituvchini inkor etish qobiliyati, bahslashish, o'z fikrlaringizni himoya qilish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlashning shakllanishining individual jihatlarini o'rganilgan. S. I. Veksler, A. S. Bayramov, A. I. Lipkina, V. M. Sinelnikovning asarlarida o'quvchilarning mustaqil ravishda tushunish qobiliyatini rivojlantirish masalasini tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. - Tanqidiy fikrlash tushunchasini, uning mohiyatini, elementlarini, o'lchash usullarini va rivojlantirish strategiyalarini o'rganish uchun qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar majmuasidir. Ushbu metodologiya tanqidiy fikrlashning turli aspektlarini aniqlash, tahlil qilish va baholash imkonini beradi [5].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - bu ularning mustaqil fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan muhim pedagogik vazifadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Tanqidiy rivojlanish texnologiyasi elementlaridan foydalanadigan o'qituvchi

o'quvchilarga, birinchi navbatda, quyidagi savollarni berishga o'rgatadi:

- bu haqda nima deb o'ylayman?

- yangi bilimlar ilgari olingan bilimlarga qanday mos keladi?

- yangi materialni o'rganganimdan keyin boshqacha nima qilishim mumkin?

- yangi bilimlar, bizning fikrimizcha, qarorga qanday ta'sir qiladi?

Shu bilan birga o'quvchilarga savolni shakllantirishni o'rgatish oson ish emas. O'qituvchi u har qanday tabiatdagi savollarni bilishi kerak, o'qituvchi bu yerda so'rashi mumkin. Bolaga beriladigan savol, qanday shakldan foydalanishga bog'liq ravishda bo'ladi. Buning uchun, tanqidiy fikrlashdan foydalanish texnologiyasi va boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy shaxsini rivojlantirishga qaratiladi [2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari:

• Emotsionallik: Boshlang'ich sinf o'quvchilari emotsiyalarga beriluvchan bo'ladi, ularning fikrlashi hissiyotlar bilan chambarchas bog'liq.

• Konkret fikrlash: Boshlang'ich sinf o'quvchilari abstrakt tushunchalarni

tushunishda qiyinchilikka duch keladi, ular uchun konkret, ko'rgazmali materiallar muhim ahamiyatga ega.

- Qiziqqonlik: Boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi narsalarga qiziqish bilan qaraydi, ular uchun o'quv jarayoni qiziqarli va o'yinqaroq bo'lishi kerak.

- Ishonuvchanlik: Boshlang'ich sinf o'quvchilari kattalarning fikriga ishonishga moyil bo'ladi, ular uchun avtoritet muhim ahamiyatga ega.

- Ijodkorlik: Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy qobiliyatlariga ega, ular uchun o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyati yaratish muhim.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari:

- O'yinlardan foydalanish: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'yinlar muhim rol o'ynaydi. O'yinlar o'quv jarayonini qiziqarli va dinamik qiladi, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Masalan, "Nima uchun?", "Kim ko'proq savol beradi?", "Rasmi jumboqlar" kabi o'yinlar o'quvchilarning savol berish, ma'lumot izlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

- Ko'rgazmali materiallardan foydalanish: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun konkret, ko'rgazmali materiallar muhim ahamiyatga ega. Rasmlar, diagrammalar, modellar va boshqa vizual vositalar o'quvchilarga tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, darsda hayvonlar haqida gapirilganda, ularning rasmlarini ko'rsatish, tabiat hodisalari haqida gapirilganda, ularning video lavhalarini namoyish etish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

- Savol-javob usulidan foydalanish: Darsda savol-javob usulidan foydalanish o'quvchilarni fikrlashga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va o'z fikrlarini ifoda etishga undaydi. O'qituvchi o'quvchilarga ochiq savollar berishi, ularning javoblarini rag'batlantirishi va xatolarni to'g'rilashga yordam berishi kerak. Masalan, "Nima uchun barglar yashil rangda?", "Agar quyosh bo'lmasa nima bo'lar edi?", "Bu rasmdan nimalarni ko'ryapsiz?" kabi savollar o'quvchilarni fikrlashga va o'z fikrlarini asoslashga undaydi.

- Guruhlarda ishlash: Guruhlarda ishlash o'quvchilarga hamkorlik qilish, fikr almashish va birgalikda qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Guruhlarda ishlash o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini, tolerantlikni va boshqa fikrlarni hurmat qilishni rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilarga biror muammoni hal qilish yoki loyiha ustida ishlash vazifasi berilishi mumkin.

- Ijodiy vazifalardan foydalanish: Ijodiy vazifalar o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish, yangi g'oyalar yaratish va muammolarni hal qilishning original usullarini topish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilarga ertak yozish, rasm chizish, qo'shiq kuylash yoki sahna ko'rinishi tayyorlash vazifasi berilishi mumkin.

- Muammoli vaziyatlardan foydalanish: Muammoli vaziyatlar o'quvchilarni fikrlashga, ma'lumot izlashga va muammoni hal qilish yo'llarini topishga undaydi. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, o'quvchilarga "Nega suv toshqinlari sodir bo'ladi?", "Nega havo ifloslanadi?", "Nega o'simliklar yo'qolib ketmoqda?"

kabi savollarga javob topish vazifasi berilishi mumkin.

- Bahs-munozaralardan foydalanish: Bahs-munozaralar o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish, boshqa fikrlarni tinglash va o'z nuqtai nazarini himoya qilish imkoniyatini beradi. Bahs-munozaralar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, kommunikativ qobiliyatini va tolerantlikni rivojlantiradi.



1-rasm. Tanqidiy rivojlanishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari tuzilishi sxemasi

Emotsionallik: Boshlang'ich sinf o'quvchilari emotsiyalarga beriluvchan bo'ladi, ularning fikrlashi hissiyotlar bilan chambarchas bog'liq.

- **Konkret fikrlash:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari abstrakt tushunchalarni tushunishda qiyinchilikka duch keladi, ular uchun konkret, ko'rgazmali materiallar muhim ahamiyatga ega.

- **Qiziqqonlik:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi narsalarga qiziqish bilan qaraydi, ular uchun o'quv jarayoni qiziqarli va o'yinqaroq bo'lishi kerak.

- **Ishonuvchanlik:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari kattalarning fikriga ishonishga moyil bo'ladi, ular uchun avtoritet muhim ahamiyatga ega.

- **Ijodkorlik:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy qobiliyatlariga ega, ular uchun o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyati yaratish muhim.

Tahlil va natijalar. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda universal strategiya va fanlararo aloqani qo'llash samarali bo'lib, bunday ta'lim quyidagi natijalarini olishga imkon beradi:

1. Savol-javob usulidan foydalanish: O'qituvchi o'quvchilarga ochiq savollar berishi, ularning javoblarini rag'batlantirishi va xatolarni to'g'rilashga yordam berishi kerak. Savollar nafaqat faktlarni eslab qolishga, balki tushunishga, tahlil qilishga va baholashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Misollar:

- "Nima uchun bu hodisa sodir bo'lyapti deb o'ylaysiz?"
- "Bu ma'lumotlar qanday xulosaga olib keladi?"
- "Bu gipotezani qanday sinovdan o'tkazish mumkin?"
- "Bu argumentning kuchli va zaif tomonlari nimadan iborat?"

2. Tajribalar o'tkazish: Tajribalar o'quvchilarga gipotezalarni sinovdan

o'tkazish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. O'qituvchi tajribalarni rejalashtirish, o'tkazish va natijalarni tahlil qilishda o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatishi kerak.

• Misollar:

- O'simliklarning o'sishiga nur, suv va haroratning ta'sirini o'rganish.
- Turli xil materiallarning elektr o'tkazuvchanligini o'lchash.
- Kimyoviy reaksiyalarni kuzatish va ularning tezligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

3. Muammoli vaziyatlardan foydalanish: O'qituvchi o'quvchilarni muammoni hal qilishga undaydigan muammoli vaziyatlarni yaratishi kerak. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarni fikrlashga, ma'lumot izlashga va muammoni hal qilish yo'llarini topishga undaydi.

Misollar:

- Iqlim o'zgarishining sabablari va oqibatlari haqida munozara tashkil qilish.
- Atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirish yo'llarini taklif qilish.
- Energiyani tejash usullarini ishlab chiqish.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish: O'qituvchi o'quvchilarga ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rgatishi kerak. Bu grafiklar, diagrammalar va jadvallarni o'qishni, ma'lumotlardagi tendensiyalarni aniqlashni va xulosa chiqarishni o'z ichiga oladi.

Misollar:

- Turli xil mamlakatlardagi aholi soni haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ularning o'sish sur'atlarini solishtirish.
- Iqlim o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va global haroratning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash.
- Turli xil oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ularning sog'liq uchun foydali ekanligini baholash.

5. Manbalarni baholash: O'qituvchi o'quvchilarga manbalarni baholashni o'rgatishi kerak. Bu manbaning ishonchliligi, ob'ektivligi va aniqligini baholashni o'z ichiga oladi. O'quvchilar turli xil manbalardan (kitoblar, maqolalar, veb-saytlar) ma'lumotlarni solishtirish va eng ishonchli manbalarni aniqlashni o'rganishlari kerak.

Misollar:

- Turli xil veb-saytlarda berilgan ma'lumotlarni solishtirish va qaysi biri ishonchliroq ekanligini aniqlash.
- Turli xil olimlar tomonidan yozilgan maqolalarni solishtirish va ularning nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
- Ommaviy axborot vositalarida berilgan ma'lumotlarning ob'ektivligini baholash.

6. Munozaralar tashkil qilish: O'qituvchi darslarda munozaralar tashkil qilish. Tabiiy fan darslarida tanqidiy fikrlashga o'rgatish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik vazifadir. Tabiiy fanlar o'zining xususiyatlari bilan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda qulay muhit yaratadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa chiqarish mumkin:

birinchidan, tanqidiy fikrlash rivojlantirish tabiiy fanni o'qitish didaktikasi uchun juda yangi, biz tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi haqida faqatgina oxirgi o'n yilliklarda o'rganila boshlandi;

ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda ularda bir vaqtning o'zida va samaraliroq qarorlarni shakllantirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - bu uzoq muddatli va murakkab jarayon. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi, turli usullardan foydalanishi va ularni o'z fikrlarini ifoda etishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va muammolarni hal qilishga undashi kerak. Tabiiy fan darslarida tanqidiy fikrlashga o'rgatish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilim darajasini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha miliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni.

2. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent.2022. 212-bet

3. D.Muminova, M.Qo'ldasheva, S.Tursunov, S.Jurayeva. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar. Darslik. 2023 –yil. – B. 178

4. Грудзинская Е. Ю. Педагогическая технология «Развитие критического мышления через чтение и письмо» в подготовке специалистов: Вестник ННГУ / Е. Ю. Грудзинская. – Выпуск 1(6). – 2005. – С. 181 – 188.

5. Колганова Н.Е. Сущностные характеристики формирования основ читательской компетентности младших школьников/ Н.Колганова // Теория и практика образования в современном мире: материалы международной науч. конф. – СПб: Реноме, 2012. – с. 5 – 8

6. Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня развития читательской компетентности в рамках Национальной программы поддержки и развития чтения: пособие для работников образовательных учреждений / Э.А. Орлова. – М., 2008. – с. 72 28.

7.<http://testolog.narod.ru/Other15.html>

TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKILLANTIRISHDA EKOLOGIK O‘YINLARNING O‘RNI

*Ergasheva Umrinisso Komilovna,
University of Business and Science o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy qadriyatlarni turli ekologik o‘yinlar orqali shakllantirib borish, ta’lim va uni shakllantirish usullari, tarbiyalanuvchilarni tabiatga muhabbatini ruvojlantirish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim –tarbiya, ekologik o‘yinlar, milliylik, - Mashq qilish o‘yinlari (bir yoshgacha), simvolik o‘yinlar (ikki yoshdan to‘rt yoshgacha), qoidali o‘yinlar.

РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ИГР В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У ПЕДАГОГИ

Аннотация: В данной статье речь идет о воспитании у дошкольников национальных ценностей посредством различных экологических игр, о воспитании и методах его формирования, о воспитании у воспитанников любви к природе.

Ключевые слова: Учебно –воспитательные, экологические игры, национальность, - игры-упражнения (до одного года), символические игры (от двух до четырех лет), игры по правилам.

THE ROLE OF ECOLOGICAL GAMES IN FORMING NATIONAL VALUES IN STUDENTS

Annotation: This article is about educating preschoolers about national values through various environmental games, about education and methods of its formation, about educating pupils about the love of nature.

Keywords: Educational, ecological games, nationality, - exercise games (up to one year), symbolic games (from two to four years), games by the rules.

Kirish.

Hozirgi kunda dunyoda ekologik ta’lim bolalar bog‘chasida tarbiyalanayotgan bolalar uchun eng muhim ta’lim va tarbiya yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sayora Yer – bu bizning umumiy uyimiz, u yerda yashovchi har bir fuqaro uning resurslarini asrash va uning qiymatlari hamda boyliklarini saqlashga majbur. Aynan shu joyda tabiatga, "yaratilgan olam"ga, o‘ziga va atrofidagi insonlarga nisbatan to‘g‘ri va ijobiy munosabatni shakllantirish boshlanadi.

Bolalar bog‘chasi davri - bu bolaning dunyoqarashi asoslari shakllanadigan, o‘ziga, boshqa insonlarga va atrofdagi olamga bo‘lgan munosabatlari shakllanadigan yosh davridir. Aynan ushbu yoshdan boshlab bola tabiat bilan tanishishi, uni o‘rganishi, unga tegishi va kuzatishi kerak; hayvonlar va o‘simliklar olami haqida tasavvur hosil qilishi zarur. Bola tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirish, unga g‘amxo‘rlik qilish va uni asrab-avaylashni o‘rganishi muhimdir [1].

Ota-onalar bunday xulq-atvor namunasini ko'rsatishlari mumkin: park yoki hovuzda qushlarni ovqatlantirish, qush uychasini yasash yoki hayvonlarga zarar bermaslik. Shunda bola o'zini butun hayotning bir qismi sifatida tushuna boshlaydi, ya'ni u yashayotgan atrof-muhitning bir parchasi ekanligini anglaydi.

Erta yoshda bolalarda tabiat haqida dastlabki tushunchalar va orientatsiyalar shakllanadi. Agar bu ta'lim va tarbiya tizimida muntazamlilik va tizimlilik bo'lmasa, ekologik muammolarni hal etish imkoniyati bo'lmaydi. Bola hayvonlar va o'simliklarga suv, ovqat va g'amxo'rlik kerakligini tushunishi zarur; ular ham og'riq his qiluvchi tirik mavjudotlardir.

Tarbiya shuni anglatadiki, u har tomonlama bo'lishi kerak, chunki agar bolalar kichik yoshda xona o'simliklari uchun suv kerakligini bilmasalar, bu ekologik bo'lmaydi. Yakuniy natija — tirik mavjudotlarga to'g'ri munosabatni shakllantirishdir va bu kattalar bilan bolalar o'rtasidagi hamkorlik va o'yin orqali amalga oshiriladi. Katta va bola orasidagi hamkorlik dunyoni o'rganish va unga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini beradi. Agar bola uyining devorlaridan tashqarida nima borligini bilmasa, u rivojlanmaydi; bu yerda atrof-muhitga to'g'ri munosabatni shakllantirish mumkin emas.

Adabiyotlar tahlili.

Ryzhova N. A. erta yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashga quyidagi ta'rif berdi: «bu bolaning ta'limi va rivojlanishining uzluksiz jarayoni bo'lib, u ekologik tushunchalar va bilimlar tizimini, tabiatga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni, atrof-muhit holatiga mas'uliyatli yondashuvni shakllantirishga qaratilgan» [2].

Mahanova M. D. ekologik tarbiyalangan shaxsni «shakllangan ekologik ong, tabiatga ekologik jihatdan yo'naltirilgan xulq-atvor va faoliyat, insonparvar tabiatni muhofaza qilish munosabati bilan ajralib turishi» deb belgilaydi [3].

Yasvin V. A. ga ko'ra, ekologik tarbiya — bu “ekologik bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, qarashlar, e'tiqodlar va axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayoni” hisoblanadi [4].

Erta yoshdagi bolalarni tarbiyalashning bir sohalaridan biri ham ekologiya bo'lib, bu ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi; u shaxsiyatni butunlay shakllantiradi: ruhiy jarayonlarni (o'ylash, nutq, qabul qilish, xotira va boshq.) rivojlantiradi hamda to'laqonli rivojlanishga yordam beradi.

Emotsional soha, axloqiy tarbiya. Asosiy ekologik bilimlarga asoslangan holda, tabiatdagi sabab-oqibat munosabatlarini tushunish orqali bola ekologik jihatdan ma'lumotli va xavfsiz xulq-atvor me'yorlariga ega bo'ladi va barcha tirik mavjudotlarga ehtiyotkorlik bilan qarashni o'rganadi. Fedoseeva P. G.ning fikricha, bolalikda ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi "ekologik madaniyatning boshlanishlarini shakllantirish va bu asosda bolalarda tabiatga ilmiy-tanqidiy, emotsional-axloqiy, amaliy faoliyat munosabatini rivojlantirish" [5].

Agar bolalar har kuni tabiatga, o'simliklarga va hayvonlarga e'tiborli hamda g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishning ijobiy misollarini kuzatsalar, bu ularning ichki dunyosida tabiatga muhabbat va g'amxo'rlik hissini shakllantiradi. Nikolaeva S.N. ning mualliflik kontseptsiyasida aytilishicha, bolalar ekologik

tarbiyasining maqsadi ekologik madaniyatning boshlanishlarini shakllantirishdir, bu esa quyidagilarni anglatadi: "tabiatning barcha xilma-xilligi bilan ongli-to'g'ri munosabatni shakllantirish; uni himoya qiluvchi va tabiatdan moddiy hamda ruhiy qiymatlarni yaratadigan insonlarga; o'zini tabiat bir qismi sifatida his qilish; hayot va salomatlik qiymatini tushunish hamda ularning atrof-muhit holatiga bog'liqligini anglash".

Nikolaeva S.N. ga ko'ra "tabiat haqida bilimlar va ularning ekologik yo'nalishi, ularni haqiqiy hayotda turli faoliyatlarda (o'yinlarda, mehnatda, turmushda) qo'llay olish qobiliyati" bolaning ekologik madaniyatining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Bolangizning yoshlari davomida kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro aloqada bo'lish orqali bolaning ijtimoiy rivojlanishi kuchaymoqda. Ushbu bosqichdan boshlab bola inson o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi kerakligini bilib oladi. Inson qanday bo'lmasa, uning faoliyat natijalari shunday bo'ladi va u atrofidagi dunyoni shunday yaratadi. Shundan kelib chiqib, ekologik tarbiyaning ustuvor yo'nalishi – o'z-o'zidan rivojlanayotgan insonni yaratish qobiliyati bo'lishi zarur; bu inson o'ziga mos ravishda yashaydi va atrofidagi odamlar bilan uyg'unlikda bo'ladi.

Tadqiqot metadalogiyasi.

Tabiatga muhabbatni rivojlantirish – bu yaxshilikni o'z ichiga olishi kerak, mas'uliyatni o'rgatish, tabiiy muhitga qo'shgan hissangizni tahlil qilishga motivatsiya berish zarur, masalan: Men qushlarga qanday qilib yaxshilik qila olaman? Shaharni qanday qilib toza qilish mumkin? Uydagi hovlini qanday qilib go'zal qilish mumkin?

Ekologik tarbiya zamonaviy yo'nalishga tegishli bo'lib, u bolalarni tabiat bilan tanishtirishdan farq qiladi. Hozirgi kunda bolalar ekologik madaniyatini shakllantirish pedagogik muammolarning ustuvorlaridan biridir. Buning yechimi tizimli va uzluksiz ekologik tarbiya va ta'limni amalga oshirish sharti bilan amalga oshirilishi mumkin.

Shubhasiz, o'yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatidir. O'yin orqali bola dunyoni anglaydi va u katta hayotga tayyorgarlik ko'radi. O'yinda bola qoidalarni rioya qilayotganini o'rganadi, bu esa uni kattalar hayotida ham ma'lum qoidalarga amal qilishga yo'naltiradi. Hech qanday boshqa faoliyat bolani o'yin kabi jalb qila olmaydi. Bu esa hissiy sohani rivojlantirishga yordam beradi va bevosita munosabatlar bilan bog'liqdir.

Shu sababli, bola o'yinda his-tuyg'ularni boshdan kechira turib rivojlanadi. Buni bilmasdan ham amalga oshiradi, chunki uning oldida o'yin vazifasi bor, ta'lim vazifasi emas. O'yin imkoniyatlari bolalarga ta'lim materialini olish va muvaffaqiyatli egallash imkonini beradi. O'yinda bolalar tabiatga, o'simliklar va hayvonlarga rahm-shafqat ko'rsatishni, ularga g'amxo'rlik qilishni, muhtojlarga yordam berishni o'rganadilar; tabiat jarayonlarini kuzatishni va ulardan zavq olishni biladilar; har bir inson tabiatning bir qismi ekanligini tushunib yetadilar; shuning uchun uni himoya qilish va sevish kerakligini anglaydilar. Kattalar... Bolalar uchun qoidali o'yinlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Ular

orasida: harakatli o'yinlar, o'yin-kulgi va didaktik o'yinlar mavjud. Har birida aniq dastur mazmuni, maqsadlar va ta'lim berish vazifalari yotadi. O'yinlar tarbiyachining rahbarligida o'tkaziladi, garchi ba'zi hollarda bolalarning mustaqilligi ham yo'q qilinmaydi. Bolalar o'yin mazmunini yetarlicha yaxshi egallagach va uni tashkil qilish qobiliyatiga ega bo'lgach, ular mustaqil ravishda o'yinlarni o'tkazishlari mumkin, bu esa o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tahlillar va natijalar

O'yinning xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bolaning o'yinda mustaqilligi va erkinligi (o'zlari o'yinni tanlaydilar, rollarni belgilaydilar, qoidalarni muhokama qiladilar (umumiy qaror bilan ularni hatto o'zgartirishlari mumkin), mazmunni tanlaydilar, kim bilan o'ynashni erkin tanlaydilar, jarayonga erkin qo'shiladilar va undan chiqadilar).

2. O'yin ijodiy xarakterga ega.

3. O'yin hissiy jihatdan boydir.

Bolalar o'yinlarini turli tasniflash usullari mavjud. Bu yerda ularning farqlovchi belgilari asos sifatida olinadi. Fröbel pedagogik maqsadlarga ko'ra birinchi tasniflashni amalga oshirdi va barcha o'yinni sensorli, motorli va aqliy deb bo'lishdi. Keyinchalik Karl Gross tomonidan boshqa tasniflash taklif qilindi, u instinktlar asosida bo'lib, o'yinni tajriba va maxsus deb bo'lgan ikkiga bo'ldi.

Keyingi tasniflash yosh davrlariga asoslangan bo'lib, uni J.Piaje taklif qilgan. U quyidagi turdagi o'yinlarni ajratib ko'rsatdi:

- Mashq qilish o'yinlari (bir yoshgacha);
- Simvolik o'yinlar (ikki yoshdan to'rt yoshgacha);
- Qoidali o'yinlar (to'rt yoshdan yetti yoshgacha).

Keyingi tasniflashning asosi bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi birlik haqidagi g'oya bo'lib, uning muallifi Lesgaftdir.

O'yinlarni ikki toifaga ajratilgan: taqlid o'yinlari va qoidali o'yinlar. Keyingi tasnifni N.K. Krupskaya taklif qilgan. U o'yinlarni quyidagi turlarga bo'lgan:

- 1 – bolalarning mustaqil, ijodiy, erkin o'yinlari;
- 2 – qoidalar bilan tashkil etilgan o'yinlar.

Bachcha yoshidagi bolalarning intellektual faoliyatini rivojlantirish uchun bir necha guruhlar mavjud:

I guruh – predmetli o'yinlar (o'yinchaklar va predmetlar bilan manipulyatsiya). O'yinchaklar orqali bolalar rang, shakl, material, hajm, hayvonlar olami, insonlar olami va boshqa narsalarni bilib olishadi.

II guruh – ijodiy, syujet-rol o'yinlari. Bu o'yinlarda syujet intellektual faoliyat shakli sifatida belgilangan.

Biz Novoselovning tasnifini ko'rib chiqdik. O'yinlarni quyidagi mezonlarga ko'ra ajratish mumkin:

- ijodiy (syujet-rol);
- qoidali o'yinlar (didaktik harakatli).

Tashkil etish joyiga ko'ra:

- ochiq havoda o'yinlar;
 - ichki joylarda o'yinlar.
- O'tkazish vaqtiga ko'ra:
- kunning birinchi yarmida;
 - kunning ikkinchi yarmida.

Tashkilot turiga ko'ra:

- guruhli;
- kichik guruhli;
- individual.

Bolalar bog'chasidagi tarbiya va ta'lim dasturi yoshdagi bolalar uchun quyidagicha o'yinlarni tasniflaydi:

- teatrlashtirilgan;

Ekologik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

1. Rolli ekologik o'yinlar (ijodiy o'yinlar).

Ushbu o'yinlar ekologik faoliyatni modellashtirish va konstruksiyalashni nazarda tutadi, masalan, "Kelajak shahrini quramiz" (bolalar arxitektor, muhandis, quruvchi va ushbu shaharning aholisi rollarini taqsimlaydilar; o'yinning maqsadi - qurilish shartlari va ekologik me'yorlar va qoidalarni saqlash haqida boshlang'ich tushunchalarni shakllantirishdir, tabiatga zarar bermasdan).

O'yin oldindan suhbat o'tkazishni talab qiladi, bu yerda shahar ekologik toza va chiroyli bo'lishi kerakligi haqida e'tibor qaratiladi, unda hamma yashashni xohlaydi. Shundan so'ng bolalar albomlar, kitoblar, Internetdan yoki jurnallardan tasvirlar bilan tanishadilar. Kartochkalar – sxemalar tuziladi, chizmalarga muvofiq ishlanadi, inshootlarni tahlil qilinadi va yechimlar qidiriladi. Bolaning atrofdagi dunyo haqidagi tushunchalari qanchalik ko'p bo'lsa, uning g'oyasi shuncha qiziqarli bo'ladi; masalan, agar u hayvonot bog'ida bo'lgan bo'lsa, albatta bu taassurot uning shahrini qurishda asos bo'ladi. Bu uchun u kubiklardan va boshqa materiallardan foydalanib qushlar va hayvonlar uchun katakchalar yasaydi hamda o'yinchiq bilan to'ldirib tashqi dunyodagi vaziyatni modellashtiradi.

Kattalarning vazifasi bolani o'yinni rivojlantirishga va yangi g'oyalarni amalga oshirishga rag'batlantirishdir. Mashina kelajak shahriga qurilish materiallari va yangi qurilish texnikasini olib keldi. Bola o'yinda ushbu harakatlarni proyeksiyalash orqali qatnashishga kirishadi. U qurilishdagi boshqaruvchini belgilaydi, yordamchilarni tanlaydi yoki hatto ekologik xavfsizlik muhandisini belgilaydi. Shu tarzda u ularning funktsional majburiyatlarini va mas'uliyatlarini aniqlaydi: yuklab olish, qabul qilish, qurilish maydonchasining tozaligi va chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish.

Xulosalar

Bu o'yinda kattalar ham qandaydir rolni bajarishlari lozimki, bu jarayonda o'z qiziqishini ko'rsatishsin. Katta kishi... Chet elda, qanday boshqarilishini tushunish uchun, muvaffaqiyatli zindon aralashuvi ko'proq vaqt oladi. Bola shaharchasini qurib bo'lgach, u uni o'z xotirasida mavjud bo'lgan hayvonot bog'i kabi yangi ob'ektlar bilan jihozlaydi. U har xil hayvonlarni olib keladi, ularni boshlab, to'siqlar, kataklar va akvariumlar quradi. U hayvonlarga to'g'ri ovqat

berishga va ularning yangi uylarida kerakli barcha narsalarni ta'minlashga harakat qiladi. Hayvonot bog'i va butun shahar hududini ko'zga ko'rinadigan va chiroyli qilish uchun yashil ekinlar o'stirmoqda. Parkda plastikdan o'ralgan joylar va gulzorlarga qurishadi. Boshqa bolalar ham buni qilishi mumkin. Har biri belgilangan ob'ekt yoki vazifani boshqaradi. Agar bola hayvonlar uchun o'z vaqtida va muntazam ovqat berishdan mas'ul bo'lsa, u qanday va qanday hayvonni qachon va qanday ovqat bilan boqishni bilishi kerak. Kattalar o'yin ishtirokchilariga yo'naltiruvchi savollar berishi, ularning bilimlarini kengaytirishi mumkin, shuningdek, bolalarga haydovchilarni boshqarish orqali hayotlarini yanada to'liqroq ko'rsatishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bolalarda o'z vazifalariga nisbatan javobgarlik hissi shakllanadi. U o'z ahamiyatini anglaydi, bu esa o'z qiymatini tushunish, tabiatga, atrofida qilargalarga va jamoa ruhiga nisbatan hurmatni keltirib chiqaradi.

O'yin ishtirokchilari bog'lar, parklar chizishlari, fontanlarni, sarallarni qurishlari va daraxtlar va gullarni joylash joylarini belgilashlari mumkin. Bola o'yin jarayonida ishtirok etganda, u boshqalar tomonidan aytilgan fikrlar, izohlar va harakatlarga munosib va do'stona munosabatda bo'lishni o'rganishi, eshitish va tinglash qobiliyatini rivojlantirishi kerak. O'yin jarayonini nazorat qilib, tabiat bilan o'zaro aloqani o'z ichiga oladigan turli xil vaziyatlarni oldindan ko'rish kerak.

Bolalar atrofida yashovchi hayvonlar bilan tanishtirilganda, ularni parvarish qilish va ularga g'amxo'rlik qilishda faol ishtirok etish imkonini berish zarur (suvi bilan ta'minlash, ovqat berish, tozalash, o'ynash, sevilish, sayr qilish va uxlayotganda bezovta qilmaslik). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qiziqarli bo'lishi uchun foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ergasheva U. Maktabgacha ta'lim sohasida pedagog olimlarning milly qadriyatlar asosida ekologik tarbiya berishga oid qarashlari //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1.
2. Vakulenko Y Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga muhabbatni tarbiyalash: ekologik bayramlar, viktorinalar, mashg'ulotlar va o'yinlar // ISPR. - Volgograd: O'qituvchi, 2016-157
3. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'quvchilar oilalari bilan o'zaro munosabatlar: o'yin seminarlari ekologik madaniyat bo'yicha: darslik / T. N. Zenina. Moskva: Ped markazi ta'lim, 2016 159 s.
4. Volkov, B. S., inson rivojlanishi psixologiyasi / B. S. Volkov, N. V. Volkov Tomonidan Yaratilgan. M.: akademik loyiha, 2014 224 s.
5. T. N. Zenina. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'quvchilar oilalari bilan o'zaro munosabatlar: o'yin seminarlari ekologik madaniyat bo'yicha: darslik // Moskva: Ped markazi ta'lim, 2016 159 s.
6. Ergasheva U. "MA'NAVIY MA'RIFIY" ISHLAR BO 'YICHA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SIFATINI OSHIRISH //Молодые ученые. – 2024. – T. 2. – №. 21. – С. 51-53.

7. Ergasheva U. ILK ADABIY TA'LIM TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH ASOSI SIFATIDA //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 30. – С. 183-186.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI INTEGRATION- AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA MASHG'ULOT DAVOMIDA FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.

Mo'minova Shoxista G'ulomjon qizi
University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mashg'ulot davomidagi faolligini oshirishda aksologik yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Aksologik yondashuv orqali o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularda ijtimoiy moslashuvchanlik, madaniy va axloqiy bilimlarni shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada o'quvchilarni mashg'ulot davomidagi faolligini rivojlantirishda badiiy asarlar, madaniy meros, o'yin usullari va dialogik ta'limning roli ko'rsatilgan. Shuningdek, mazkur yondashuvning bolalar ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'siri, ularning shaxsiy va jamiyatga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan metodlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Sinf, o'qituvchi, o'quvchi, jamoa, kreativ, metodika, ma'naviyat, tarbiya, muloqot, ko'nikma, integratsiya.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ВО ВРЕМЯ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИОННО-АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА.

Аннотация: Анализируется значение аксологического подхода в повышении активности младших школьников в процессе обучения. Через аксологический подход выделены возможности привития учащимся национальных и общечеловеческих ценностей, формирования социальной адаптивности, культурно-нравственных знаний. В статье показана роль художественных произведений, культурного наследия, игровых методов и диалогического обучения в развитии активности студентов в процессе обучения. Также описано положительное влияние такого подхода на духовный мир детей, методы, направленные на повышение их личностной и социальной адаптивности.

Ключевые слова: Класс, учитель, ученик, команда, kreativ, методика, духовность, образование, общение, навыки, интеграция.

WAYS TO INCREASE THE ACTIVITY OF PRIMARY STUDENTS DURING LESSONS BASED ON THE INTEGRATION-AXIOLOGICAL APPROACH.

Abstract: The importance of the axological approach in increasing the activity of primary school students during classes is analyzed. The axological

approach highlights the possibilities of instilling national and universal values in students, forming social adaptability, cultural and moral knowledge in them. The article shows the role of works of art, cultural heritage, game methods and dialogical education in developing the activity of students during classes. The positive impact of this approach on the spiritual world of children, methods aimed at increasing their personal and social adaptability are also described.

Keywords: Class, teacher, student, team, creative, methodology, spirituality, education, communication, skills, integration.

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda fan va madaniyatning eng soʻnggi yutuqlari asosida kelajagimiz boʻlgan yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublari keng joriy etilmoqda. Binobarin, jamiyatda yuksak maʼnaviy fazilatga ega shaxslarni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy anʼanalarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq gʻoyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning taʼlimga eʼtiborni kuchaytirish borasidagi “Biz taʼlim va tarbiya tizimining barcha boʻgʻinlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni oʻzimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”, degan soʻzlari sohada tizimli islohotlarni amalga oshirish zarurligini isbotlamoqda [3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Integratsion-aksiologik yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish muammolari yuzasidan R.Safarova, A.Musurmonov, P.Musayev, A.Ch.Choriyevlar tadqiqot ishlarini olib brogan boʻlsalar, oʻquvchilarni ijtimoiy faolligi masalalarida A.A.Salomov, B.Abdullayeva, K.Abdullayeva, T.Egamberdiyevlar bir qator muammolarni tadqiq qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mashgʻulot davomida oʻquvchilarning faolligini integratsion aksiologik yondashuv asosida fikr-mulohazalar koʻlamining kengaytirilganligi, muloqot qilish usullari, milliy qadriyatlarimizni oʻrgatish metodikasining yangi xulosalar bilan boyitilganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-60-sonli farmonlarida “Hayotga kirib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ularning taʼlim–tarbiyasini barpo etayotgan yangi Oʻzbekiston talablariga mos holda sifat jihatdan yuqori pagʻonaga koʻtarish”, ayniqsa yosh avlodimizning integrativ yondashuv asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash ularning bandligini taʼminlash, hayotda oʻz oʻrnini topishi, jamiyatning munosib aʼzolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi dolzarb ekanligi taʼkidlangan [5]. Mazkur muammoni hal

etishda uzluksiz ta'lim turlari ayniqsa, o'rta ta'lim maktablari (boshlang'ich sinflari) da darslarni fanlararo tashkil etish salmoqlidir.

Aksiologik yondashuv - bu ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar tizimiga yo'naltirilgan nazariy g'oyalar majmui bo'lib, ularning o'zagi inson hayoti, erkin ijodiy faoliyat va insoniy muloqotning qadriyatini tushunish va tasdiqlashdan iborat.

Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi umuminsoniy madaniyatning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini o'zlashtirishdir.

Falsafiy lug'atlarda aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan sifatida ta'riflanadi. Batafsilroq ta'rif "Pedagogik lug'at" da G.M. Kadjaspirova (M. 2000): aksiologiya - bu shaxs, jamoa, jamiyatning moddiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy va psixologik qadriyatlari, ularning voqeliklar olami bilan aloqasi, qadriyatlar va me'yoriy tizimdagi o'zgarishlar haqidagi falsafiy ta'limot. tarixiy rivojlanish jarayoni.

Axloqiy tarbiya vazifalari maktab uchun an'anaviydir, ammo bugungi kunda bu "kattalar" jamiyatining barcha a'zolari tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlar tizimini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini tashkil etish haqida emas, balki keng doiradagi qadriyatlarni tanlashni tashkil etish haqida. zamonaviy sivilizatsiya qadriyatlari (etnik-madaniy, mintaqaviy, milliy, davlat va boshqalar). d.).

Qadriyat-aksiologik yondashuvning mohiyati bugungi kunda, birinchi navbatda, sodir bo'layotgan voqealarni baholash (g'oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqalar) vaziyati bilan belgilanadi, unda inson doimiy ravishda, uning dunyoga munosabatini belgilaydi. Individual qadriyatlar tizimi shaxsni madaniyat bilan tanishtirish orqali shakllanadi. Madaniyatni (moddiy va ma'naviy) egallash jarayonida shaxs shaxsga aylanadi. Madaniyat- "tiriklar tomonidan o'zlashtirilgan va keyingi avlodlarga o'tkaziladigan hayot va insoniy munosabatlarning tabiiy va ijtimoiy sharoitlarini takomillashtirish, ma'naviyat va insoniylashtirishning eng yuqori darajasi" [6]. Bu inson ruhining hodisasi, insoniy g'oyalarning ichki mohiyati, insonparvarlik va axloqiy maqsadlar bilan yoritilgan odamlarning ramziy ravishda qat'iy faoliyatidir. Adabiyot ma'naviy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, so'z san'ati bilan tanishish, ayniqsa, maktab yillarida shaxs shaxsiyatining qadriyat sohasini shakllantirishning muhim bosqichiga aylanadi. Ilmiy adabiyotlarda berilgan qadriyatlarning ko'plab ta'riflarini umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkin qiymatlar- bular shaxs ongining shakllantiruvchi birliklari bo'lib, ular insonning hayot sohalari: dunyo, boshqa odamlar, o'ziga nisbatan doimiy munosabatini belgilaydi. Ushbu munosabatlar to'plami mohiyatan shaxsning axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi, bu ayniqsa ongli bo'lganida, shaxsiy qadriyatlar paydo bo'lganda, ongli umumiy semantik shakllanish sifatida qaralganda kuchli bo'ladi. Bu yondashuv 19-asr 2-yarmi va 20-asrda mustaqil ilmiy fan sifatida shakllangan qadriyatlar falsafiy nazariyasiga asoslanadi. ilmiy fikrning turli sohalarida, jumladan, pedagogikada, xususan, ta'lim nazariyasida (V.A.Karakovskiy, I.B.Kotova, V.V.Kraevskiy va boshqalar) qadriyatlar nazariyasiga keng murojaat qilindi.

Zero, o'rta ta'lim o'quv dasturlariga hayot va kelajak faoliyat uchun zaruriy bilimlar bilan qurollantiradi, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida aqliy qobiliyatlarini o'stiradilar, ilmiy salohiyatlarini yuksaltiradilar, jismoniy kuchlarini rivojlantiradi, ilmiy dunyoqarashlari tarkib topib, zamonaviy bilimlarni puxta egallashlariga xizmat qiladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirib, uning ta'limiy-tarbiyaviy yo'nalishlarini modernizatsiya qilish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e'tibor bermoqlikni davrning o'zi ko'rsatmoqda. Integrativ yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish muammolari yuzasidan R.Safarova, A.Musurmonov, P.Musayev, A.Ch.Choriyev, A.A.Salomov, B.Abdullayeva kabi o'zbek olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu va boshqa tadqiqot ishlarida fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlararo aloqadorlik asosida tanlangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan hal etilgan. Jumladan, V.N.Fedorova o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib, o'quv fanlariaro aloqadorlik tabiiy fanlar bilan atrof-muhit hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va izchillikda ifodalashning didaktik sharti sifatida namoyon bo'lishi asoslarini tarkib toptirishning pedagogik, psixologik, metodik jihatlarini tadqiq qilgan. O'quvchilarda matematik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida uning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tadqiqotchi olimlar turli yo'nalishlarda tahlil qilganlar. Chunonchi, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkinlar matematik bilimlar asosida o'quv jarayonini faollashtirish, M.K.Ashirova matematikaning boshqa fanlar bilan fanlararo aloqadorligi xususiyatlari A.M.Matyushkin, V.T.Kudryavtseva, L.S.Vigotskiy, B.G.Ananayev, G.F.Fedores matematik ko'nikma va malakalarni fanlararo aloqadorlikda shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari, o'quvchilarda bilishni takomillashtirishning qonuniyatlarini o'z tadqiqotlarida ochib berganlar. Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda quyidagi ahamiyatga molik vazifalar turibdi:

1. Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasi mavzusining dolzarbligini aniqlash o'rganish zaruriyatini asoslash;
2. Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasi mavzusida chop etilgan darsliklar, qo'llanmalar, monografiyalar, turli ilmiy darajalarni olish uchun yozilgan dissertasiyalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;
3. Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish borasida faoliyat olib borgan olimlar, fan doktorlari va nomzodlari faoliyatini o'rganish va o'rganilmagan jihatlarini

aniqlash; Shunday ekan bu vazifalarni og‘ishmasdan bajarishimiz va o‘quvchilar savodxonligini matematik bilimlarini yanada rivojlantirishimiz lozim.

Boshlang‘ich sinflarda har bir o‘qituvchining dars berishi, alohida olingan integratsiyaning bir usuli deb qarasa, fanlararo aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. Boshlang‘ich maktabda integratsiyaning amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o‘qish, tabiat haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni va yana ko‘pgina narsalarni o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o‘qituvchi (ta‘lim berish) va o‘quvchi (ta‘lim olish) harakatlarining mos kelishini ko‘zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlash asosida o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog‘liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lishi, masalan, o‘qish darslarida qish fasliga doir she‘r yoki matnni o‘qishdan oldin o‘qituvchi mavzuni tabiatshunoslik bilan bog‘liqligi haqida “tabiatshunoslik darsida biz qish faslida bo‘ladigan tabiat hodisalarini, undagi o‘zgarishlarni o‘rganadilar. Ushbu she‘r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan” degan fikr bilangina cheklansa, unda o‘quv fanlari o‘rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo‘ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi [7]. Boshlang‘ich ta‘limdagi o‘qish darslarini ona tili shuningdek, tasviriy san‘at, tabiiy fanlar, texnologiya fanlari bilan bog‘lab o‘quvchilarning tasavvurlarini boyitish joiz. Chunki bunday darslar o‘quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Xulosa qilib aytganda, o‘quv fanlariaro aloqadorlik hodisasi murakkab va serqirra didaktik jarayondir. Fanlararo aloqadorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o‘zaro bog‘langan holda rivojlanishi har zamonda ta‘limning asosini tashkil etadi va ta‘limning taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Choriyev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O‘FMJ, 2006. - 138 b.
2. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.- T.: “Noshir”, 2013.-720 b.
3. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”. - 2014. - 512 b.
4. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. -T.: Noshir, 2012. 320 b.
5. Sharipov Sh. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti: p.f.d., diss. avtoref. -Toshkent, 2012. - 46 b.

6. Ergasheva M.X., Ta'lim jarayonini tadqiq etishda sinergetik metodologiyaning ahamiyati, Zamonaviy ta'lim /Современное образование 2020, 10 (95), 32-39 b.

7. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.fan dok. diss. -T., 2005.- 391 b. 2-TOM, 11-SON 1044

8. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va echimlari. // Pedagogik ta'lim. -2000.- 3- son. - B.11.

IQTISODIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH – ZAMONAVIY MUTAXASSIS TAYYORLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

*Mullaboyeva Nargiza Sharopaliyevna
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
University of Business and Science,*

*Normurodova Saodatxon Nozimjon qizi
Kokand Universiteti magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy mutaxassislarda iqtisodiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari, ularni tashkiliy shakllari, mazmuniy xususiyatlari va rivojlantirish omillari haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy faoliyat, iqtisodiy kompetentlik, modernizasiyalash, innovasiya, raqobat, ta'lim sifati, mantiqiy fikrlas.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОДГОТОВКИ СОВРЕМЕННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация: В данной статье представлены научно-теоретические сведения о вопросах развития экономической компетентности современных специалистов, их организационных формах, содержательных особенностях и принципах развития.

Ключевые слова: Профессиональная деятельность, экономическая компетентность, модернизация, инновации, конкуренция, качество образования, логическое мышление.

FORMATION OF ECONOMIC COMPETENCE – AS AN IMPORTANT FACTOR IN TRAINING A MODERN SPECIALIST.

Abstract: This article presents scientific-theoretical information about the issues of development of economic competence among modern specialists, their organizational forms, substantive features and development principles.

Keywords: Professional activity, economic competence, modernization, innovation, competition, quality of education, logical thinking.

Kirish. Dunyoda ta'lim va iqtisodiyotning integratsiyalashuvi globalashuv sharoitida ta'lim muassasalari xodimlarida iqtisodiy kompetentlikni

shakllantirishning variativ shakllarni ishlab chiqish, iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy ta'limni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Bunda, ta'lim muassasalari xodimlarida iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish borasida ilmiy-pedagogik izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, iqtisodiy ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida bo'lajak maktab menejerlarining iqtisodiy malakasi, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "... uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [1] ustuvor yo'nalishlari belgilangan, shu munosabat bilan pedagogik tizimni takomillashtirish muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, innovasion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish shuningdek, ta'lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalar, ta'lim tizimida zamonaviy fikrlaydigan, innovatsiyalarni qo'llab quvvatlovchi, raqobat o'sib borayotgan ta'lim xizmatlari bozorida raqobatlasha oladigan va iqtisodiy kompetentligi shakllangan menejer hamda mutaxassislariga talab oshib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan bo'lajak menejerlarni iqtisodiy kompetentligini shakllantirishni tizimli, metodologik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 25 dekabrda 681-son "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida bo'lajak umumiy o'rta ta'lim direktorlari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun Menejerlik kurslari maktab direktorlarini tanlash, tayyorlash va ularni uzluksiz malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan tizimda kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik sertifikatini olishga tayyorlashda menejerlik ko'nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi. Menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan nomzodlar orasidan maktab direktori lavozimiga nomzodlar zaxirasi shakllantiriladi. Endilikda nomzodlar faqat Menejerlik sertifikati mavjud bo'lgan va mazkur nomzodlar zaxirasiga kiritilgan kadrlar orasidan tanlab olinadi. Bizningcha, bunday amaliy ishlar, jahon iqtisodiyotida global muammolar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni shiddatli o'zgarishlaridan kelib chiqib, uzoq yillar davomida ta'lim tizimida to'planib qolgan muammolarni

bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lib, vaqtinchalik yechim sifatida shakllantirilayotgan nomzodlar zaxirasidagi bo'lajak ta'lim tashkilotlari rahbarlarida, shunchaki, tashkilot rahbari emas, balki aynan ta'lim tashkilotining menejerlikka xos bo'lgan zamonaviy fikrlaydigan, innovatsiyalarni qo'llab quvvatlovchi, raqobat o'sib borayotgan ta'lim xizmatlari bozorida raqobatlasha oladigan strategik rahbar kadrlarga xos menejerlik bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashdan iborat. Bu borada, mehnat bozoriga hozirgi ta'lim islohotlari davrida strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonunida (O'RQ-637-son 23.09.2020 yil) ko'zda tutilgan ta'lim turlari bo'yicha bakalavriat va magistraturada ta'lim tashkilotlari menejmenti ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish, ta'lim tashkilotlari boshqaruv strukturasiga menejer lavozimini kiritish dolzarb yechimini kutayotgan masalalardan biri deb hisoblaymiz.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda iqtisodiy kompetentlikka ega bo'lishi zarurligi to'g'risida gapirar ekanmiz, biz avvalo iqtisodiy kompetentlik mazmunini yoritib berishimiz kerak. Bunda, "iqtisodiy bilimdonlik", "iqtisodiy tafakkur", "iqtisodiy ta'lim", "iqtisodiy kompetentlik", "iqtisodiy madaniyat" tushunchalarini mazmuni o'rganish zaruriyati tug'iladi. "Iqtisodiy pedagogika" sohasi olimlarining fikricha, iqtisodiy bilimdonlik, mushohadalilik va onglilik shaxsning kasbi va mutaxassisligidan qa'tiy nazar, jamiyatning faol a'zosi sifatida bilishi lozim bo'lgan, mantiqan yaxlit dunyoqarashga ega bo'lishi uchun idrok eta olishi shart bo'lgan, tabiat va jamiyatning iqtisodiy qiyofasi va uning dinamikasini ko'ra olishi, tushuna olishi va baholay olish qobiliyatidir [6]. Xususan, iqtisodiy tafakkur – insonning iqtisodiy jihatdan voqea-hodisalarni tahlil qilishi, unga baho berish va qaror qabul qilish; kishidagi iqtisodiy ong, iqtisodiy qarashlar, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy bilim va tushunchalar, iqtisodiy xatti-harakat majmuidan iborat bo'lib, uning asosida iqtisodiy madaniyat paydo bo'ladi. N.I.Xasanxonova iqtisodiy tafakkur tarkibida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: iqtisodiy odam; iqtisodiy ong va xulq-atvor; iqtisodiy faoliyat; iqtisodiy ta'lim-tarbiya; iqtisodiy madaniyat. Mazkur iqtisodiy tafakkur qismlarining uyg'unligi jamiyatning nafaqat iqtisodiy ahvoliga, balki ijtimoiy tuzilishiga ham bog'liq [7]. Iqtisodiy madaniyat-jamiyat a'zolarining iqtisodiy hayotidagi ommaviy ijodiy ishtiroklari va o'zaro munosabatlari, ularning iqtisodiy bilimlari, xo'jalik yuritishdagi mahorati va malakasi, iqtisodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanganligini sifat tavsifidir. Iqtisodiy ta'lim iqtisodiy tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, uning samarasi tadbirkorlik, resurslardan tejamli foydalanish, bank krediti bilan ishlash, pinhoni iqtisodiyotdan saqlanish va soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish, uy xo'jaligini yuritishda hisob-kitob, yangiliklarga intilish va jamiyat iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokida namoyon bo'ladi.

A.Yu.Misailovning fikricha, iqtisodiy kompetentlikning tarkibi bir-biriga bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlardan iborat:

- motivatsion - jamlangan va yetarlicha barqaror ehtiyojlar tizimi, iqtisodiy faoliyat uchun muhim sabablar, turli iqtisodiy kompetensiyalarga ega bo'lishga qiziqish bilan tavsiflanuvchi;

- kognitiv - asosiy iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi tizim (iqtisodiyot, iqtisodiy qonunlar, talab, taklif, mahsulot), iqtisodiy nazariyalar, tushunchalar, modellar, davlatning iqtisodiy siyosatini olib borishga yondashuvlar, iqtisodiyotning xalqaro muammolari; kasbiy faoliyatda iqtisodiyot asoslari (qonunlar, korxonaning iqtisodiy faoliyati usullari, iqtisodiy rejalashtirish, nazorat va audit va boshqalar);

- amaliy - iqtisodiy muammolar va vaziyatlarni hal qilish, iqtisodiy ko'nikma va qobiliyatlar kombinatsiyasiga asoslangan iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borish, biznes rejalarni tuzish, buxgalteriya hisobini yuritish, turli xil iqtisodiy vaziyatlarda kasbiy muammolarga iqtisodiy yechim tanlashni amalga oshirish, iqtisodiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish, fuqarolik iqtisodiy xatti-harakatlariga rioya qilish va boshqalar;

- shaxsiy - bir qator muhim iqtisodiy fazilatlardan iborat: faollik, mustaqillik, ijodkorlik, samaradorlik, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik.

[5]

Iqtisodiy kompetentlik tushunchasi bilan yondosh mazmunda, muammo sifatida belgilangan ta'lim tashkilotlari menejerlarining iqtisodiy kompetentligi negizida qanday sifatlar aks etishi, uning mohiyati, o'zlarida iqtisodiy kompetentlikning qanday sifatlarini yoritish olishi zarurligi borasida yuzaga keladigan savollar «ta'lim tashkiloti menejerining iqtisodiy kompetentligi» tushunchasini mohiyatan tadqiq qilish zaruriyatini belgilaydi.

Bu borada olim LLJuklines o'zining ilmiy ishlarida ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligini quyidagicha ta'riflagan: ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy kompetentligi - shaxsiy sifatlar tavsifi bo'lib, kompetensiyalar tizimidan iborat bo'lgan, bilimlar, ko'nikmalar, ish tajribalari asosida oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilishga harakatlarni safarbar qilish va rahbarning muayyan iqtisodiy muammolarni hal qilishga tayyorlik darajasi [6].

Ye.A.Varkinaning ilmiy ishlarida «iqtisodiy kompetentlik - bu shaxsning integrativ sifati bo'lib, maxsus kompetensiyalar (marketing, tadbirkorlik, xujalik-huquqiy) majmui bilan tavsiflanadi shuningdek, egallangan iqtisodiy bilim, ko'nikma va tajribalarni va ma'lum faoliyat usullarini qo'llay olish qobiliyatini aks ettirib, ustuvor qadriyatlar va motivlar bilan tartibga solinadigan doimiy shaxsiy rivojlanish asosida ta'lim muassasasi faoliyatini ta'minlashdir deb ta'riflangan [6].

Ta'lim tashkiloti menejerining iqtisodiy faoliyati, tashkilot moliyaviy faoliyatini rejalashtirish, ijro etish, nazorat va boshqarishdan iborat bo'lib, tashkilotning iqtisodiy barqarorligini, moliyaviy mustaqilligini ta'minlash faoliyatida, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, moliyaviy resurslarni rejalashtirish va boshqarish, moliyaviy resurslar ijrosini ta'minlash va nazorat kabi funksiyalarini o'z ichiga oladi. Bunda: moliyalashtirish manbalarini kengaytirish - budget mablag'lari, to'lov kontrakt mablag'lari, xomiylik mablag'lari, maqsadli buyurtma mablag'lari, grant mablag'lari, ishlab chiqarish va turli xizmatlarni

tashkil etish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan iborat bo'lishi mumkin; moliyaviy resurslarni rejalashtirish va boshqarish - xarajatlar va daromadlar reja smetalarini shakllantirish, tuzish, tasdiqlash, mehnat resurslari, asosiy vositalar va tovar moddiy zaxiralardan samarali foydalanishni tashkil etish va boshqarishni nazarda tutadi; moliyaviy resurslar ijrosini ta'minlash va nazorat - muassasaning o'quv, xo'jalik, kommunal faoliyatlari ijrosini tashkil etish, moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, mehnatga haq to'lash, rag'batlantirish shuningdek, joriy, rejali, davriy, uzluksiz nazoratlarni qamrab oladi.

Ta'lim tashkiloti faoliyatining ma'lum jarayonlarida, ta'lim menejerining iqtisodiy roli o'zgarib turadi va har bir iqtisodiy faoliyatga mos huquq va majburiyatlar majmui, shuningdek bilim, ko'nikma va malakalar talab etiladi. Ta'lim tizimidagi ko'p yillik faoliyat tajribasidan kelib chiqqan holda, belgilash mumkinki ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini tashkil etuvchi komponentlar qatorida bilish hamda motivatsion komponentlari ham muhim o'rin egallaydi.

Bilish komponenti - faoliyatning asosini tashkil etadigan zarur iqtisodiy-huquqiy bilimlarning yig'indisi bo'lib, real iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qila olish, iqtisodiy muammolarni yechish usulini tanlay olish, rejalashtirish, qaror qabul qilish kabi bir qator vazifalarni bajarishda iqtisodiy bilimlar to'plamini mujassam etadi. Iqtisodiy sohaga oid qonuniyatlarni bilmasdan turib faoliyatni amalga oshirish samarasiz bo'ladi. Iqtisodiy tushunchalarni, ta'riflarni qonunlarni, iqtisodiy nazariya va faoliyat uslublarini bilish odatiy va nostandart iqtisodiy muammolarni hal qilishda rahbar imkoniyatni ta'minlaydi.

Motivatsion komponent - motivlar, shaxsning individual ahamiyatli qadriyatlari va iqtisodiy boshqaruv faoliyati yo'nalishi uchun muhim xususiyatlar yig'indisi sifatida qaraladi [4].

Ta'limi tizimi boshqaruv xodimlarining tayanch mutaxassisliklari va ish stajlari turlichaligi bois, ularning iqtisodiy kompetensiyalarni egallashga bo'lgan motivlari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, yangi iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, iqtisodiy bilimlarni tizimlashtirish, iqtisodiy bilimlarga qiziqish, iqtisodiy sohadagi ko'nikmalarni rivojlantirish, oddiy va murakkab iqtisodiy vaziyatlarda muammolarga yechim topish (sertifikat olish, malaka oshirish vaqti, buxgalteriya xizmatiga ishonchsizlik) va shu kabilar. Iqtisodiy kompetenlik o'z navbatida yangi iqtisodiy bilimlar, ko'nikmalar va tajribalarni o'zlashtirish negizida rahbarning oddiy va murakkab iqtisodiy sharoitlarda o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga xizmat qiladi.

Demak, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida, ta'lim tizimi tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tizim boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy faoliyatlari sohasiga oid seminar-treninglar, vebinarlar, boshqaruvning iqtisodiy muammolariga oid konferensiyalar, mustaqil iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish, qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish asosida malaka oshirish uzluksizligini ta'minlash;

- bevosita malaka oshirish kurslarida, o'quv dasturlari va tegishli modullar mazmunlarini tizim boshqaruv xodimlarining real iqtisodiy faoliyatlari natijasida yuzaga keladigan o'quv ehtiyojlari va talablariga moslashtirish;

- ta'lim tizimi boshqaruv xodimlari malaka oshirish jarayonlarining turli shakllarida, iqtisodiy kompetentlik tarkibini tashkil etuvchi kompetensiyalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;

- ta'lim tizimi boshqaruv xodimlari iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etilishi muhimdir;

- jahon iqtisodiyotida global muammolar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni shiddatli o'zgarishlaridan kelib chiqib, ta'lim turlari bo'yicha bakalavr, magistr darajadagi ta'lim tashkilotlari menejerlarini mehnat bozoriga tayyorlab borish maqsadga muvofiqdir [4].

Xulosa. Iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish muammosi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning o'zgarishi, ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uning mutaxassislar kasbiy tayyorgarligiga ta'siri yuzasidan dolzarb hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasi talabasida iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan iqtisodiy kompetentlik komponentlarni jamlash (shaxsiy sifatlari, iqtisodiy kompetentlik), muvaffaqiyatli kasbiy-iqtisodiy faoliyati uchun zarur bilimlarni to'plashni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida» gi farmoyishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70- modda.

3. Видярин В.И. Экономическая теория: учеб. Для вуз. - М.: ИНФПА-М., 2003.-715 с.

4. Мисаилов А.Ю. Компьютерное сопровождение формирования экономической компетентности у студентов учреждений среднего профессионального образования. Автореферат. - М., 2013.

5. Saidaxmedova N.I., Kurbaniyazov Sh.K. Interrelations of organizational structures in the management process through prospective development strategy of the higher education institution. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) vol. 11, ISSUE 12, december (2023).

6. Овакимян Ye.Ye. Развитие экономической компетентности студентов вузов. Автореферат. - Челябинск, 2010.

7. Tojiboyeva D. va boshq. Iqtisodiy pedagogika. - T.: Modul va texnologiya. –2012. – 256 bet

8. Xasanxonova N.I. Iqtisodiy tafakkurning tarkibiy qismlari uyg'unligini ta'minlash yo'llari. Iqtisod va moliya / ekonomika i finansi 2014, 2.

ZAMONAVIY O'QITUVCHI SHAXSINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirzaliyev Otabek Rustamali o'g'li
University off Business and Science magistranti
mirzaliyevotabek252@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Maqolada o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijtimoiy va psixologik omillar, uning o'quvchilar bilan munosabati, shaxsiy va professional xususiyatlari, shuningdek, pedagogik muhitdagi ijtimoiy roli muhokama qilinadi. O'qituvchining psixologik holati, emotsional barqarorligi va stressga chidamliligi, shuningdek, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari uning samarali ishlashiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy o'qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarga ruhiy yordam ko'rsatuvchi, ularning psixologik holatini tushunib, ijtimoiy integratsiyasini ta'minlovchi shaxs bo'lishi ham kutilyapti. Ushbu ishda o'qituvchining psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarining pedagogik faoliyatdagi o'rni, uning shaxsiy rivojlanishi va o'qituvchining o'quvchi bilan o'zaro munosabatlaridagi o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ishda zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan metodik tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy o'qituvchi, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, empatiya, kommunikativlik, stressga bardoshlilik, motivatsiya, talaba bilan muloqot.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ

Аннотация: В данной научной работе изучаются социально-психологические особенности современного учителя. В статье рассматриваются социально-психологические факторы педагогической деятельности учителя, его взаимоотношения с учениками, личностные и профессиональные особенности, а также его социальная роль в педагогической среде. Психологическое состояние педагога, его эмоциональная устойчивость и стрессоустойчивость, а также навыки социального общения напрямую влияют на эффективность его деятельности. От современного учителя ждут не только знания, но и духовной поддержки учеников, понимания их психологического состояния и обеспечения их социальной интеграции. В работе рассматривается роль психологических и социальных навыков учителя в педагогической деятельности, его личностном развитии, а также изменениях во взаимоотношениях учителя с учеником. В работе также даны методические рекомендации, необходимые для развития социально-психологических характеристик современного учителя.

Ключевые слова: современный учитель, социально-психологические характеристики, эмпатия, коммуникация, стрессоустойчивость, мотивация,

общение с учениками.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PERSONALITY OF A MODERN TEACHER

Abstract: This scientific work studies the socio-psychological characteristics of the personality of a modern teacher. The article discusses the social and psychological factors in the pedagogical activity of a teacher, his relationship with students, personal and professional characteristics, as well as his social role in the pedagogical environment. The psychological state of a teacher, emotional stability and stress resistance, as well as social communication skills, directly affect his effective work. A modern teacher is expected not only to be a provider of knowledge, but also to be a person who provides psychological support to students, understands their psychological state, and ensures their social integration. This work discusses the role of a teacher's psychological and social skills in pedagogical activity, his personal development, and changes in the teacher's relationship with students. The work also provides methodological recommendations necessary for the development of the socio-psychological characteristics of a modern teacher.

Key words: modern teacher, social psychological characteristics, empathy, communication, stress tolerance, motivation, communication with students.

Kirish.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy psixologik xususiyatlari – ta'lim tizimining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. O'qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, motivator va ijtimoiy o'zaro munosabatlar tashkilotchisi sifatidagi roli bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy psixologik xususiyatlari, uning o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishi, ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan o'zaro aloqalari, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy ko'nikmalari, psixologik holati, hissiy intellekti va muloqot qobiliyati ta'limning samarali bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi.

O'qituvchining ijtimoiy psixologik kompetensiyasi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning o'zini anglashiga va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining ijtimoiy va psixologik jihatlarni chuqur anglab, ularni o'z faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati ta'limning yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini, uning o'quvchilarga ta'sirini va o'zaro munosabatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida adabiyotlar tahlilini amalga oshirayotganda, o'qituvchining faqat pedagogik va ilmiy jihatlari emas, balki uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ham ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiyat, o'zini anglash,

ijtimoiy munosabatlar, emotsional va motivatsion xususiyatlar o'qituvchining ishiga yuksak ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsiyat va o'qituvchining ta'lim jarayoniga ta'siri.

O'qituvchining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, eng avvalo, uning shaxsiyati bilan bog'liq. Shaxsiyat - bu insonning o'ziga xos ichki tuzilmasi, uning odatlari, qadriyatlari, psixologik holati va boshqalar. Zamonaviy o'qituvchi shaxsining psixologik jihatlari haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari (masalan, jismoniy va aqliy salohiyat, emotsional barqarorlik, intellektual rivojlanish) o'quvchilarga motivatsiya berish, ularni o'qitish va o'zaro munosabatlar uchun muhimdir.

Xususiyatlar: Zamonaviy o'qituvchi, odatda, yuqori emotsional intellektga ega bo'lishi kerak. Bu o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatlarini, xususan, murakkab vaziyatlarda muomala qilishini osonlashtiradi.

Empatiya: O'qituvchining empatiyasi (o'quvchilarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga mos ravishda munosabatda bo'lish) ta'limda samaradorlikni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, empatik o'qituvchilar o'quvchilarning o'zlarini yaxshiroq his qilishlariga yordam beradi va ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi [2].

O'qituvchining ijtimoiy rollari

O'qituvchi o'zining professional roli bilan birga, ijtimoiy rollarini ham bajaradi. Bu rollar orqali o'qituvchi o'quvchilarga ijtimoiy normalarni o'rgatadi, ularga muloqot qilishni, jamoaviy ishlashni o'rgatadi. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan, o'qituvchining ijtimoiy roli, uning sinfdagi va jamiyatdagi mavqeini belgilaydi.

Rollar va ta'sir: O'qituvchining jamiyatdagi rolini to'g'ri anglash, uning o'z ishiga bo'lgan javobgarlik va majburiyatlarini tushunishga yordam beradi. O'qituvchining ijtimoiy pozitsiyasi, uning o'quvchilarga va ularning ota-onalariga ta'sirini belgilaydi.

Kommunikatsiya: Zamonaviy o'qituvchilar ta'lim jarayonida samarali kommunikatsiya orqali o'quvchilarning fikrlarini va hissiyotlarini anglaydi va ularga tegishli ravishda javob qaytaradi. Bu kommunikatsiya qobiliyati o'qituvchining psixologik xususiyatlarini yoritadi va o'qitishning sifatini yaxshilaydi.

Motivatsiya va ishga bo'lgan munosabat

O'qituvchining o'z ishiga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining yuqori motivatsiyasi o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ichki va tashqi motivatsiya: O'qituvchining ichki motivatsiyasi (ta'limni o'z maqsadiga aylantirish, o'quvchilarga yordam berish, o'zini rivojlantirish) o'z ishiga nisbatan yuqori motivatsiyani yaratadi. Shu bilan birga, tashqi motivatsiya (ish haqining o'zgarishi, martaba ko'tarilishi) ham o'qituvchining ijtimoiy psixologik jihatlarga ta'sir qiladi.

O'qituvchining stressga qarshi chidamliligi

Zamonaviy o'qituvchilar ko'pincha stressli vaziyatlarga duch keladilar, chunki ular ta'lim jarayonida ko'plab muammolar va qarorlar qabul qilishlari kerak. O'qituvchining stressga chidamliligi, uning ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta'minlaydi.

Stress boshqaruvi: O'qituvchining stressni boshqarish qobiliyati uning o'zini va o'quvchilarni muvaffaqiyatli boshqarishiga yordam beradi. Stressni samarali boshqarish o'qituvchining motivatsiyasini, ishlash qobiliyatini va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi [4].

Zamonaviy o'qituvchi va uning psixologik tayyorgarligi

Zamonaviy o'qituvchilar ta'lim metodologiyalariga yangilik kiritish, yangi texnologiyalarni o'rgatish va shaxsiy rivojlanishlarini davom ettirishda psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari zarur. Ularning psixologik tayyorgarligi o'quvchilarga muvaffaqiyatli o'rgatish uchun muhimdir.

Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari uning professional faoliyatining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiyat xususiyatlari, kommunikatsiya qobiliyatlari, emotsional barqarorlik, motivatsiya, stressni boshqarish kabi omillar ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining psixologik tayyorgarligi va uning o'zgaruvchan ijtimoiy-psixologik muhitga moslashish qobiliyati o'quvchilarning ta'lim olishda muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavzusi bo'yicha tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda bir nechta asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Ushbu metodologiya o'qituvchining ijtimoiy va psixologik tomonlarini o'rganish, uning shaxsiy fazilatlarini va pedagogik faoliyatga ta'sirini tahlil qilishga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadini belgilash:

O'qituvchining shaxsiy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini tushunish, uning o'qitish faoliyatidagi ahamiyatini aniqlash.

O'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, motivatsiyasi, hissiyotlarini, ijtimoiy o'zaro aloqalarini va psixologik holatlarni o'rganish.

Tadqiqot metodlari:

Intervyu: O'qituvchilar bilan chuqur intervyular o'tkazish orqali ularning psixologik va ijtimoiy holatini aniqlash.

Fokus guruhlar: O'qituvchilar va o'quvchilardan tashkil topgan guruhlar orqali ijtimoiy va psixologik o'zgarishlarni muhokama qilish.

Badiiy asar tahlili: O'qituvchilarning o'qitish usullari va metodlari, shuningdek, ular tomonidan qo'llaniladigan ijtimoiy-psixologik yondashuvlar bo'yicha tahlil.

Nazariy asoslar:

Ijtimoiy psixologiya: O'qituvchining o'quvchilar va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini o'rganish, ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish.

Shaxsiyat nazariyasi: O'qituvchining shaxsiy xususiyatlari (masalan, extrovertlik, introvertlik, empatiya va hokazo) va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri.

Motivatsiya nazariyasi: O'qituvchining o'z ishiga bo'lgan motivatsiyasi, ularning maqsadlariga erishish uchun qanday ruhiy holatda bo'lishi.

Kognitiv-psixologik yondashuv: O'qituvchining qaror qabul qilish, ta'lim metodlarini ishlab chiqish va o'quvchilarni boshqarishdagi psixologik jarayonlar.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

O'qituvchilarning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini tushunish, ta'lim jarayonini yaxshilash va o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berishga yordam beradi.

O'qituvchining o'zining psixologik holatlarini boshqarish, stress va boshqaruv stresslarini kamaytirish, o'quvchilar bilan to'g'ri aloqalar o'rnatish bo'yicha treninglar ishlab chiqish.

Metodologik yondashuv:

Multidisipliner yondashuv: Ijtimoiy psixologiya, pedagogika, psixologiya va pedagogik psixologiya kabi fanlararo yondashuvlar yordamida o'qituvchining shaxsiy va professional xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish.

Birinchi darajali (empirik) ma'lumotlarni to'plash: O'qituvchining o'z faoliyatini qanday bajarishini kuzatish, sinfda va sinfdan tashqari faoliyatini o'rganish.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar statistik tahlil (kvantitativ metodlar) va tematik tahlil (kvalitativ metodlar) orqali tahlil qilinadi. Ushbu tahlil natijalari o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy-psixologik holatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Bu metodologiya o'qituvchining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to'liq o'rganishga imkon beradi va ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilishda bir nechta asosiy jihatlar mavjud. Bular o'qituvchining shaxsiy va professional xususiyatlari, jamiyatdagi o'rni, o'quvchilarga ta'sir qilish usullari, hamda pedagogik faoliyatda o'zgarishlarni qabul qilish qobiliyati kabi omillarni o'z ichiga oladi.

- **Ijtimoiy faollik va jamiyat bilan aloqalar:** Zamonaviy o'qituvchi jamiyatda katta ijtimoiy ro'l o'ynaydi. O'qituvchining o'z o'quvchilari, ularning ota-onalari, hamkasblari va umumiy jamiyat bilan aloqalari o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy psixologik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy o'qituvchilar o'zlarining kasbiy ro'lini faqat ma'lumot berishdan iborat emas, balki jamiyatni rivojlantirishga, o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berishda ham ko'rsatadilar.

- **Empatiya va hissiy intellekt:** Zamonaviy o'qituvchida empatiya (boshqalar hissiyotlarini tushunish va ularga moslashish qobiliyati) va hissiy intellekt (o'z hissiyotlarini boshqarish va boshqalarga ta'sir qilishni anglash qobiliyati) juda muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarning ichki holatlarini tushunishi va ularga yordam berishga tayyor bo'lishi kerak. Bu qobiliyat o'qituvchining

o'quvchilar bilan samarali aloqalar o'rnatishiga va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olishiga imkon beradi.

- **Innovatsion fikrlash va o'rganishga ochiqlik:** Zamonaviy o'qituvchilar o'qitish metodikalarini va texnologiyalarini doimiy ravishda yangilab borishadi. Innovatsion fikrlash, yangi o'quv texnologiyalarini o'zlashtirish va o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni etkazish zamonaviy o'qituvchining asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu, o'qituvchining o'zini doimiy ravishda rivojlantirishi va o'quvchilarga eng yangi bilimlarni taqdim etishi uchun zarurdir.

- **Kommunikativ qobiliyat:** Zamonaviy o'qituvchi o'zining kommunikativ qobiliyatlari bilan ham ajralib turadi. O'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Bu qobiliyat nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, balki sinfdagi o'quv muhitini ham sog'lom qiladi.

- **O'zini-o'zi anglash va refleksiya:** Zamonaviy o'qituvchi o'zining professional faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilishi va o'z-o'zini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Bu o'qituvchining o'z ishini refleksiya qilish va o'z ishida yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Refleksiya o'qituvchiga o'zining ish uslubini va pedagogik yondashuvini doimiy ravishda yaxshilashga yordam beradi.

Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha jihatlardan iborat. Bu o'qituvchining o'zini qanday anglashiga, o'quvchilarga qanday ta'sir qilishiga va jamiyatdagi o'rniga bog'liq.

O'qituvchilarni rivojlantirish uchun ularning empatiya, kreativlik, kommunikativ qobiliyatlari va innovatsion fikrlashni mustahkamlash kerak.

O'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi nafaqat o'zining, balki butun ta'lim tizimining muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda o'qituvchilarning psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish zaruriyatga aylangan.

Umuman olganda, zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ta'lim jarayonini boshqaruvchi shaxs sifatida rivojlanishi zarur.

Xulosa va takliflar

Zamonaviy o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari uning pedagogik faoliyatini samarali va muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarga ijtimoiy va psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o'qituvchilar o'z talabalari bilan ijtimoiy munosabatlar o'rnatishda, ularning psixologik holatini tushunishda va moslashishda katta mahoratga ega bo'lishlari zarur.

O'qituvchining empatiya, sabr-toqat, ijodiy fikrlash, moslashuvchanlik kabi psixologik xususiyatlari uning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. O'qituvchining shaxsiy va professional qobiliyatlari hamda o'zini tutish tarzlari, o'zgaruvchan jamiyat sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib,

talabalarga nafaqat bilim, balki insoniy qadriyatlarni ham o'rgatishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, o'qituvchining o'z shaxsiyatini doimiy ravishda rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va ijtimoiy muhitga moslashish kabi psixologik yondashuvlari uning pedagogik samaradorligini oshiradi. O'qituvchilar o'z faoliyatida inson huquqlarini hurmat qilish, talabalarining ehtiyojlarini inobatga olish, va ularni qadr-qimmatli insonlar sifatida hurmat qilish kabi ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni amalga oshirgan holda, o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli davom ettirishlari mumkin.

Takliflar

O'qituvchining ijtimoiy psixologik kompetensiyasi: Zamonaviy o'qituvchi o'zining ijtimoiy va psixologik kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak. Bu kompetensiyalar o'qituvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning psixologik holatini anglash, motivatsiyani oshirish va muammolarni hal etishda yordam berishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'qituvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, ularning ruhiy va emotsional holatini tushunishi va ularga muvofiq pedagogik yondashuvni tanlashi zarur.

Empatiya va hissiy intellekt: Zamonaviy o'qituvchida empatiya va hissiy intellektning yuqori darajasi bo'lishi kerak. O'qituvchi o'qituvchilarning hissiyotlarini, holatlarini sezib, ularni qo'llab-quvvatlash va ularga mos pedagogik yordam ko'rsatishi lozim.

O'qituvchi o'z emotsiyalarini boshqarish va ijtimoiy muhitda hamohanglikni saqlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvchanlik: Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy psixologik xususiyatlaridan biri ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvchanlikdir. Pedagog yangiliklarga, zamonaviy texnologiyalar va metodikalarga ochiq bo'lishi kerak.

O'qituvchi o'z faoliyatida jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olib, o'qituvchilarga yangi bilim va ko'nikmalarni o'rgatishda davom etishi lozim.

O'qituvchining roli va ta'sir kuchi: O'qituvchining o'qituvchilarni ijtimoiy muhitda qanday shakllantirishi ham katta ahamiyatga ega. Ularning shaxsiyatini, dunyoqarashini, axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli muhimdir.

O'qituvchining shaxsiy xulq-atvori, ijtimoiy mavqei va muomala madaniyati o'qituvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik barqarorlik va stressni boshqarish: O'qituvchi o'zining psixologik barqarorligini saqlash va stressga qarshi kurashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchining ruhiy holati uning professional samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy o'qituvchi, shuningdek, stressni boshqarish va o'zini his-tuyg'ularidan mustahkam usulda foydalanish bilan o'qituvchilarga ham yordam berishi mumkin.

O'qituvchining tashkiliy va liderlik xususiyatlari: Zamonaviy o'qituvchida yuqori tashkiliy va liderlik xususiyatlari bo'lishi kerak. O'qituvchi

o'zini guruh boshlig'i sifatida namoyon qilib, o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi ijtimoiy muhitda to'g'ri qarorlar qabul qilish va o'quvchilarni maqsad sari yo'naltirishda muvaffaqiyatli bo'lishi kerak.

Pedagogik innovatsiyalar va o'qituvchining psixologik yondoshuvi: Zamonaviy pedagogika o'qituvchilardan innovatsion yondoshuvlarni talab qiladi. O'qituvchi yangi metodlarni va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqib, o'quvchilarga o'rgatishda psixologik yondoshuvlarni tatbiq etishi zarur.

Shu bilan birga, o'qituvchining o'z pedagogik uslublarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi o'quvchilarni psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари. Пед. фанл. докт. дисс. ...- Т.: 2003.-276 б.
2. Алексеев А. А. Личность и сознание.-Л.: ЛГПИ, 1989. -152 с.
3. Аликулов Х. Шарқ мутафаккирлари ахлоқ ҳақида.-Т.: 1972.-486.
4. Аликулов Х. Жалолиддин Довоний.-Т.: 1992.-72 б
5. Айний С. Эсдаликлар.-Т.: 1953.-312 б.
6. Durham W.H. (1991). Coevolution. Stanford, C A: Stanford University Press.
7. Johnson D., Johnson R. Constructive Conflict in the schools // Journal of Social issues vol. 50, № 1, 1994. P. 117-137.
8. Айний С. Эски мактаб.-Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
9. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды.-В 2-х томах.- М.: 1980.- 287 с.
10. Анастаси А. Психологическое тестирование (пер. с англ.).-М.: МГУ,- 1980,-515 с.
11. Андреева Г.М. Социальная психология.-М.: МГУ, 1980.-515 с
12. Ataxo'jayeva, S. (2023). EMPIRICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH LANGUAGE TEACHERS.
13. Ataxo'jayeva, S. A. (2020). INGLIZ TILINI O'RGATISHDA LOYIXA ISHINI TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI. Science and Education, 1(1), 403-406.

JISMONIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA YANGI USUL VA YONDASHUVLAR

Nazarov Anvarjon Tug'unboyevich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
University of Business and Science

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya fanini o'qitishda motivatsion yondashuvlar va munosabatlar tizimini yaratishning ijtimoiy-pedagogik zarurati ortib borishi. Bu esa darslarni sifatli tashkil etish, kadr sifatida tayyorlash tizimini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylanayotganligi. Shu ma'noda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini zamon talabalari asosida o'qitish, kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash ehtiyojini yuzaga kelishi haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim va tarbiya jarayoni, oliy ta'lim muassasalari, jismoniy kamolot, barkamol shaxs, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tayyorgarlik, o'qituvchilarni innovatsion motivatsion faoliyatga yo'naltirish, kasbiy mahorat.

НОВЫЕ МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: В данной статье возрастает социально-педагогическая необходимость создания системы мотивационных подходов и отношений в обучении физическому воспитанию. Это факт, что качественная организация занятий и совершенствование системы подготовки кадров становится актуальной задачей. В этом смысле представлены теоретические сведения и практические рекомендации о необходимости подготовки будущих учителей физической культуры на базе современных студентов, развития их профессиональных знаний и умений, подготовки их к инновационной деятельности на основе творческого подхода.

Ключевые слова: Учебно-тренировочный процесс, высшие учебные заведения, физическая зрелость, всесторонне развитая личность, здоровый образ жизни, физическая подготовка, нацеливание педагогов на инновационную мотивационную деятельность, профессиональные навыки.

NEW METHODS AND APPROACHES TO ORGANIZING THE PHYSICAL EDUCATION PROCESS

Abstract: This article discusses the growing socio-pedagogical need to create a system of motivational approaches and relationships in teaching physical education. This makes it an urgent task to improve the quality of classes and the system of training personnel. In this sense, theoretical information and practical recommendations are presented on the need to train future physical education teachers based on the needs of modern students, develop their professional knowledge and skills, and prepare them for innovative activities based on a creative approach.

Keywords: Educational and upbringing process, higher educational institutions, physical development, harmonious personality, healthy lifestyle, physical training, orientation of teachers to innovative motivational activities, professional skills.

Kirish. Inson yangiliklarga intiluvchan bo'lganligi uchun vazifalarni bajarishning yangicha, samarali yo'llarini izlab topishga harakat qiladi [3]. Demak, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida innovatsion motivatsion faoliyatga yo'naltirishda ulardagi muvaffaqiyatga erishish istagi, ehtiyoji va shaxsiy mas'uliyatni to'g'ri muvozanatlay olish ko'nikmalarini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotchi Ye.M.Rojkov motivatsiya biror bir qiyinchilikni yengib o'tishdir. Bu insonlar yoki g'oyalar bilan nazorat qilish, tashkil etish orqali qiyinchiliklarni yengishdir. Uni qanday amalga oshirish mumkinligidan qat'iy nazar o'ta tezkorlik bilan mustaqil bajarishdir. To'siqlarni yengib o'tish va yuqori natijaga erishish shaxs o'zini - o'zi namoyon etishi, atrofdagilar bilan musobaqalashishi, o'z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli qo'llashi bilan o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirishiga olib keladi deb tushuntiradi [7]. Demak, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun motivatsiya o'z kasbiy faoliyatida yaxshi natijalarga erishish istagi, ijtimoiy talab va ehtiyojga asoslanadi.

Hozirda zaxiradagi kadrlardan o'z vaqtida foydalanilmasligi, kadrlarni yillab joyida "qotib qolishi", motivatsiyaning yo'qligi idora va tashkilotlarda kadrlar qo'nimsizligiga sabab bo'lmoqda. Kadrlarda tajriba, ko'nikma va malaka mujassam bo'lishi bilan birga, ularni qo'llab-quvvatlovchi ishonchli **"motivator"**, ya'ni uning tajribasini ommaga havola etuvchi **"hamkor"** bo'lishi o'ta muhim hisoblanadi. Insonda muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasining dominantligi o'zini-o'zi baholashni pasayishiga sabab bo'ladi. Qayta-qayta muvaffaqiyatsizlikka uchrash insonni o'ziga bo'lgan ishonchni pasayishiga, tushkunlikka va surunkali qo'rquvga olib kelishi mumkin. Ana shunday insonlarda asosan muvaffaqiyat motivatsiyasining rivojlanish darajasi ancha past bo'ladi.[8] Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarda ham motivatsion ta'lim orqali kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, shaxsiy rivojlanish asosida yuqori natijalarni ko'rsatish, o'quvchilarda jismoniy madaniyatni shakllantirishda jonbozlik ko'rsatishga yo'naltirish talab etiladi.

Rus olimi A.N.Leontev faoliyatni motiv bilan bog'laydi. Uning fikricha, motiv shaxs bilan bog'liq, individ bilan emas. Zero, faoliyat motiv bilan bog'liq ekan, motiv shaxs tomonidan faoliyatni nima uchun amalga oshirilayotganligini anglashidir [9]. Boshqa bir olim X.Xekxauzen fikricha motivatsiya – shaxsning psixodinamik tizimi bo'lib, tashqi muhitga nisbatan shaxsning hayotiy munosabatini belgilovchi va uning faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tashkillashtiruvchidir. Motivatsiyaning xususiyati va dinamikasi qator faktorlar orqali yuzaga keladi. Psixik jarayonlar vaziyat, irodaviy, emotsional, shaxs tuzilishiga bevosita bog'liq bo'lgan (ehtiyaj, qadriyatlarga yo'nalganlik), shaxsni tashqi olamga munosabati, shaxsiy faollik, natijalarni rejalashtirish, oldindan belgilashdir. Demak, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion

pedagogik faoliyatga tayyorlash, jismoniy ta'limni takomillashtirish, ularni ish samaradorligini oshirishda ulardagi motivatsiya va boshqa omillar bo'lgan vaziyat, irodaviy, emotsional, tashqi olamga munosabat, shaxsiy faollik, natijalarni rejalashtirishni ham o'zni yuqori hisoblanadi.

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari guvohlik berishicha, so'ngi yillarda turli xil darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalarning son ortmoqda. Ko'pgina talabalar standart o'quv dasturlarida nazarda tutilgan yuklamalarni bajarishga to'liq xolatda tayyor emasligi ma'lum bo'lmoqda. Bu ko'rinishdagi talabalar tomonidan mashg'ulotlar rejimlari (berilgan yosh guruhlari o'chun fiziologik jixatdan asoslangan standartlarga muvofiq) doirasida tuzib chiqilgan o'quv mashg'ulotlari dasturlarini bajarish qiyin amalga oshiriladi. Bu xolat sezilarli sondagi talabalarning jismoniy tayyorgarligi va ular tomonidan bajariluvchi normativ testlar o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan bog'liq xisoblanadi. "Ko'pgina talabalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga nisbatan zaruriy motivatsiya mavjud emasligi vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Bunday talabalarda ko'pgina xolatlarda amaliy mashg'ulotlarda nafaol xolatda ishtirok etish, elementar mashqlarni bajarish holatida bo'lmaslik, jismoniy yuklamalardan qochish, shuningdek organizmning barcha tizimlarini optimal darajada funktsiya bajarishi uchun talab qilinuvchi natijaga erishishda qat'iylik namoyon bo'lmasligi kuzatiladi. Bunday talabalarning jismoniy faoliyatini faollashtirish muhim masala sifatida qolmoqda. Bu talabalarni o'qitish jarayoni uslubiyati va uni tashkil qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega xisoblanadi. Bu xolat turli xil darajada jismoniy jixatdan rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalarga xarakatlarga oid holatlarni o'rgatishda yangi uslubiyatni ishlab chiqish talab qilinishiga olib keladi. Keyingi yillarda ta'lim tizimiga yangi innovatsion jarayonlarni keng tadbiiq etilishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga innovatsiyalar ta'lim jarayonidagi tashabbuslarning jamlanishida va yangiliklarni kiritilishida ifodalanmoqda hamda ular birgalikda katta yoki kichik global o'zgarishlarga olib kelmoqdalar. Bir qator tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport fanlarini o'qitishda, mashg'ulotlar jarayoniga yangi innovatsion, texnologik vositalarni qo'llab o'quv mashg'ulotlarini olib borishga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi aniqlangan. O'qituvchi tayyorlashning namunaviy tizimi va uning individual, ijodiy faoliyati o'rtasida printsiplial qarama – qarshilik vujudga kelmoqda" [10]. Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda talabalarning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash yo'lidagi ortib boruvchi faolligini taklif etadigan va rag'batlantiradigan o'quv jarayonini tashkil etishda yangi usul va yondashuvlar ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асомова Р.С. Касб танлаш мотивацияси ва унинг динамикаси: Автореф. псих. фан. ном. ... дисс. – Тошкент.: 2002. –Б. 28.
2. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии. Москва.: Прогресс. 2000. –С. 68.

3. Макклелланд Д. Мотивация человека. СПб. 2007
4. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. Москва.:2005. – С. 39.
5. Психология мотивации и эмоций /Под ред. Ю. Б. Гиппенрейтер, М В. Фаликман. – М.: АСТ:Астрель, 2009. – 704с.
6. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения/Х.Хекхаузен. – СПб.: Речь, 2011. с.240
7. Рожков Е.М. Мотивация достижения успеха и избегания неудач в работах отечественных и зарубежных ученых. Психологические науки. Выпуск №3. 2014. С. 44
8. Райгородский Д.Я. (ред.составитель) Практическая психодиагностика. Методики и тесты. Учебное пособие. – Самара: Издательский дом «БАХРАХ - М», 2008. С.672
9. Леонтьев А.Н. Деятельность, Сознание, Личность. / А.Н. Леонтьев. – М., 2004. – 351 с.
10. Козлова Г, Рузиева М. Жисмоний маданият ўқитувчиларининг коммуникатив компетенциясини юксалтириш зарурияти. // "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" журналі. 2022. № 4.
11. [https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Motiv_\(psixologiyada\)](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Motiv_(psixologiyada))
<http://bilig.academiascience.org>

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA "YANGI O'ZBEKISTON TARIXI" FANINI O'QITISH STRATEGIYASI

Sodiqjonov Javohir Akmaljon o'g'li
University of Business and Science magistranti
javohir091sodiqjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida "Yangi O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish jarayoni tahlil qilinadi. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun tarix fanini moslashtirish, raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida xalqaro va milliy tajribalar o'rganilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, moslashtirilgan ta'lim, interfaol metodlar, tarix fani, Yangi O'zbekiston tarixi, raqamli texnologiyalar, differensial yondashuv.

СТРАТЕГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ИСТОРИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА» В СРЕДЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируется процесс преподавания предмета «История Нового Узбекистана» в условиях инклюзивного образования. Рассматриваются возможности адаптации преподавания истории для учащихся с особыми образовательными потребностями, использование цифровых технологий и инновационных методов. В ходе

исследования изучены международный и национальный опыт, а также даны рекомендации по совершенствованию образовательного процесса на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, учащиеся с особыми потребностями, адаптированное обучение, интерактивные методы, предмет истории, История Нового Узбекистана, цифровые технологии, дифференцированный подход.

STRATEGY FOR TEACHING THE SUBJECT "HISTORY OF NEW UZBEKISTAN" IN THE ENVIRONMENT OF INCLUSIVE EDUCATION

Annotation: This article analyzes the process of teaching the subject "History of New Uzbekistan" in an inclusive education setting. The study explores the possibilities of adapting history lessons for students with special educational needs, utilizing digital technologies and innovative methods. International and national experiences have been examined, and recommendations for improving the educational process based on modern pedagogical approaches are provided.

Keywords: Inclusive education, students with special needs, adapted learning, interactive methods, history subject, History of New Uzbekistan, digital technologies, differentiated approach.

Kirish. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga, jumladan, maxsus ehtiyojli bolalarga ham sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. "Yangi O'zbekiston tarixi" fani o'quvchilarda milliy ong, vatanparvarlik va tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida differensial yondashuv, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar hamda interfaol pedagogika usullaridan foydalanish zarur. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 100 mingdan ortiq maxsus ehtiyojli o'quvchi ta'lim olishda inklyuziv yondashuvdan foydalanmoqda. O'qitish usullarining moslashuvchanligi tarix fanining samaradorligini 35% oshirishi mumkinligi tadqiqotlarda isbotlangan.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim – jamiyatning har bir a'zosiga, jumladan, maxsus ehtiyojli shaxslarga ham bilim olish uchun teng imkoniyatlar yaratib beradigan muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Shu bois, inklyuziv ta'lim jahon miqyosida ham, milliy ta'lim tizimimizda ham dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. **Yangi O'zbekiston tarixi** fanini inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar milliy va xalqaro tajribalar asosida o'rganildi. Milliy va xalqaro tadqiqotlar asosida inklyuziv ta'limning ahamiyati va Yangi O'zbekiston tarixi fanini o'qitish jarayoni o'rganildi:

1. Vigotskiy L.S. (1978) – "Ijtimoiy ta'lim nazariyasi" asarida inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari bayon etilgan [5].

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari (2021-2023) – inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy asoslar tahlil qilindi.

3. John Dewey (1938) – "Tajriba va ta'lim" asarida interfaol ta'lim metodlarining samaradorligi yoritilgan.

4. UNESCO (2022) – "Inclusive Education: Best Practices" tadqiqotida

maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'lim dasturlarini moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston tarixi fanini inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitishda differensial yondashuv va moslashtirilgan materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Empirik va nazariy tahlil asosida natijalarni tahlil qilindi. Statistik tahlil – inklyuziv ta'lim sharoitida tarix fanining o'zlashtirish darajasini baholash [1]. Eksperimental yondashuv – interfaol va innovatsion metodlarni joriy qilish natijalarini tahlil qilish [1]. Anketalar va suhbatlar – o'qituvchi va o'quvchilarning fikrlarini o'rganish. Tadqiqot 2023-2024 o'quv yilida 5 ta inklyuziv ta'lim maktabida 200 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi.

Tahlillar va munozaralar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

- Interfaol metodlar (klaster, munozara, rol o'yinlari) yordamida o'qitish o'quvchilarning faolligini 40% oshirdi.
- Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalar (audiokitoblar, interfaol videolar, mobil ilovalar) qo'llanilganda bilim o'zlashtirish darajasi 30% ga yaxshilandi.
- Dars jarayonida grafik va vizuallardan foydalanish tarixiy ma'lumotlarni tushunishni 50% ga oshirishga yordam berdi.

1-jadval

Inklyuziv ta'limda "Yangi O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish samaradorligi (%)

Metodlar	Eksperiment oldidan	Eksperimentdan keyin	O'sish (%)
Oddiy ma'ruza	55%	60%	+5%
Interfaol metodlar	50%	78%	+28%
Raqamli texnologiyalar	52%	82%	+30%

Tahlil natijalariga ko'ra:

- Oddiy ma'ruzalar samaradorligi past bo'lib qolmoqda.
- Interfaol va texnologik metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning qiziqish va bilim olish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan.

Xulosa. Yangi O'zbekiston tarixi fanini inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitishda individual yondashuv, raqamli resurslar va interfaol metodlar asosiy rol o'ynaydi.

Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim metodlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Kelajakda inklyuziv ta'lim muhitida tarix fanini o'qitish samaradorligini yanada oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Yangi O'zbekiston tarixi fanini inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Individual yondashuv, raqamli resurslar va interfaol metodlar ushbu fanning samarali o'qitilishida muhim rol o'ynaydi. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'lim mazmunini moslashtirish, ularning qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini

oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim metodlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Xususan:

Interfaol metodlar (munozara, guruh mashg'ulotlari, rolly o'yinlar) o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini 40% ga oshirdi.

Raqamli resurslar (audiokitoblar, interfaol darsliklar, mobil ilovalar) qo'llanilganda bilim o'zlashtirish darajasi 30% ga yaxshilandi.

Grafik va vizuallardan foydalanish tarixiy ma'lumotlarni tushunish va eslab qolish samaradorligini 50% ga oshirishga yordam berdi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida tarix fanini o'qitishda duch kelinadigan muammolar:

Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv materiallarining yetarlicha mavjud emasligi.

Pedagoglarning inklyuziv ta'lim bo'yicha malakasi yetarli darajada emasligi, ularni maxsus kurslar orqali tayyorlash zarurati.

Texnologik ta'minotning yetarli emasligi, ya'ni barcha maktablarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatining mavjud emasligi.

Kelajakda inklyuziv ta'lim muhitida tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Xususan:

Adaptiv ta'lim tizimlarini ishlab chiqish – sun'iy intellekt asosida individual yondashuvni yo'lga qo'yish.

Ta'lim jarayonida AR/VR texnologiyalaridan foydalanish – tarixiy voqealarni vizual tarzda jonlantirish orqali ta'limni yanada samarali qilish.

Inkluziv ta'limga ixtisoslashgan pedagoglarning malakasini oshirish – o'qituvchilarni inklyuziv metodlarni qo'llashga o'rgatish.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv resurslarini ko'paytirish – audio va braille darsliklar, interfaol testlar, ovozli va subtitrlil videodarsliklarni keng joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan holda Yangi O'zbekiston tarixi fanini o'qitish milliy qadriyatlarimizni singdirish, tarixiy ongni shakllantirish va o'quvchilarning teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Kelajakda bu yo'nalishda texnologik yangiliklar va innovatsion pedagogik metodlarni yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tavsiyalar. Raqamli texnologiyalar va audiovizual vositalardan keng foydalanish. Tarixiy voqealarni o'rganishda interfaol metodlarni ko'proq qo'llash. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan darsliklar va resurslarni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vigotskiy L.S. (1978). "Psixologik rivojlanish nazariyasi."
2. UNESCO (2022). "Inclusive Education: Best Practices."
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori.
4. John Dewey (1938). "Tajriba va ta'lim".

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MADANIY QADRIYATLARGA XURMAT XISSINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.

Xolmatova Adolat Muxammadjonovna
University of Business and Science o'qituvchisi
xolmatoaadolat4@gmail.com

Annotatsiy: Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha. Milliy-ma'naviy qadriyatlar – “milliylik”, “ma'naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xatti-harakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Qadriyat, millatlararo, elat, milliy markazlar, tarixiy ildizlar, umuminsoniy.

МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ УВАЖЕНИЯ К КУЛЬТУРНЫМ ЦЕННОСТЯМ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ.

Аннотация: Ценности — понятие, используемое для выражения важности вещей и событий, материальных и духовных богатств общества. Национально-духовные ценности включают в себя социальные явления, сконцентрированные на пересечении понятий «национальность», «духовность» и «ценность». Допустим, некоторые народы обращают внимание на направление влияния образования и мышления, сформировавших в ходе исторического развития высокие способности в определенной области производства. Они имеют свои особенности в национальном характере, отношении к жизни и общественным событиям. Существуют определенные положительные различия в поведении в сфере моральной, правовой и политической культуры. Подобное разнообразие может стать фактором, ускоряющим не только наше благосостояние, но и наше развитие.

Ключевые слова: Ценность, интернационал, народ, национальные центры, исторические корни, общечеловеческий.

METHODOLOGY FOR FORMING RESPECT FOR CULTURAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.

Abstract: By values, we mean a concept used to express the significance of things and events, material and spiritual wealth of society. National-spiritual

values include social phenomena concentrated at the intersection of the concepts of "nationality", "spirituality" and "value". For example, some nations pay attention to the direction of the influence of upbringing and thinking, which formed high competence in a certain field of production during historical development. They have their own characteristics in their national character, attitude to life, social phenomena. There are also certain positive differences in behavior in the areas of moral, legal, political culture. Such diversity can be a factor accelerating not only our wealth, but also the pace of our development.

Keywords: Value, interethnic, people, national centers, historical roots, universal.

Kirish.

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishta yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, qomusimizning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir», [1] - degan qoida ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov shunday yozadi: "Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, butunbutun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiysiyosiy falokatlariga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butunbutun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan" [2]. Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor Millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqlool royasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda. Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarning vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urfodatlarini, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 100 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda. Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rnini borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu

zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi O'zbekiston fuqarosi ekanligani namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi. Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan fikrni bejiz aytmagan. Bashariyat tushunchasi rangorang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barq urib turadi. E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy histuygulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin. Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barqarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalarni madaniy qadriyatlarga xurmat xissini shakllantirishda mashg'ulotlarni mazmunli o'tkazish lozim. Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi.

Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo'lishi mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama

Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqolol yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniy ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi. O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli o'zbekistonliklarning har bir avlodi milliy istiqolol g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliy totuvlik va bag'rikevtlikni yanada mustaxdsamlab boradi. Zero, milliy g'oya - barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir. Respublikada istiqomat qilib turgan 136 millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega.

O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin. Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni halq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi tug'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq tug'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, halq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi – «Avesto» zardo'shtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy G'oyalar yorqin ifodalangan. Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga hos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga ega. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalariga tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G'arbda qadriyatlar bilan shug'ullanadigan falsafiy soha Aksiologiya (aksio -qadriyat, logos - ta'limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo'ladi. Biz Suqrot va Aflotun, Arastu va Hegellar katta e'tibor bergan bu mavzuning G'arb falsafasida o'z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi – «Avesto» zardo'shtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy G'oyalar yorqin ifodalangan [3]. Mustaqillik va qadriyatlar mavzusi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarning ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi, jamiyat a'zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo'nalishidir. Qadriyatlarni mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy omillaridan biri sifatida qadrlanishi borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'uliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Istiqlol asrlar davomida shakllangan o'ziga hos sharqona va o'zbekona qadrlash masalalari va me'yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. Mustaqillik istiqlol davrining eng asosiy qadriyatidir. Zero, mustaqil bo'lmagan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon to'kis bo'lmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma'naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo'lishi aniq. Faqat mustaqillikka ushbu holatni tubdan o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismiga aylantiradi. Shu sababdan ham istiqlol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va

bu boradagi yangi tamoyillardan ta'limtarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda.

Natiya

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va millatlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi hislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan halos bo'lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgaya harakatlarga sabab bo'lmoqda. Hozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrabavaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi. Qadriyatning mazmuni va ahamiyati «baho» tushunchasida to'la-to'kis aks etmasligi, turlicha ifodalanishi ham mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrini, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo'ladigan hollar ham uchraydi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog'liq jihatlarni tashkil qiladi. Qadriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri tug'ri tushunilmasa, unga tug'ri baho berib bo'lmaydi. Aynan shu ma'noda qadriyatni baholash unga bo'lgan munosabatni ham ifodalaydi, bu esa o'z navbatida kishilarning talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog'liqdir. Qadriyatni baholashda qancha hilmahil maqsad va ehtiyojga ega bo'lgan kishilar ishtirok etsa, uning haqiqiy bahosini aniqlash ham shuncha qiyinlashib boraveradi. Qadriyatlar va ijtimoiy jarayonlar. Odamlar bitta jamiyatda, bir davrda va o'xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar tug'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Qadriyatning ob'ekti va sub'ekti. Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan bu tushuncha bog'langan ob'ekt o'rtasida farq bor, deb qaraladi. Agar qadriyat berilgan qadrni ifodalaydigan falsafiy tushuncha sifatida qaralmasa, unga ta'riflarning son-sanoqsiz bo'lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko'p. Qadriyat tushunchasi esa ularning

birortasi uchun tugʻridan-tugʻri ism, atama yoki bevosita nom boʻla olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon boʻladi. Ana shunga koʻra, hammada ham qadrlash tuygʻusi doimo bir hil boʻlavermaydi, ijobiy va salbiy qarashlar, turli hil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga koʻra bir-biriga mutlaqo ziddek boʻlib koʻrinadigan yahshilik va yomonlik, haqiqat va haqsizlik, bahtsaodat va Qam-kulfat, taraqqiyot va tanazzul kabi tushunchalar hayotning bir-biriga zid va chambarchas bogʻlangan tomonlarini ifodalaydi. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, qadriyatlar jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pogʻonasiga chiqib oladi, boshqalarini hiralashtirganday boʻlib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga intilish nisbatan kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganida – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida -istiqlol, urush davrida - tinchlik, tutqunlikda - erkinlik, kasal va bemorlik onlarida - salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi. Qadriyatlar tizimi. Har qanday jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urugʻ, qabila, elat, halq, millat), ijtimoiy subʼektlar va boshqalar oʻziga hos qadriyatlar tizimiga ega boʻladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy boʻlmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli holatlarda namoyon boʻladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud boʻladiki, u oʻsha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini oʻtaydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik, sinf va partiyalar ham ana shunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat koʻrsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qoʻllaydilar.

Xulosa.

Bu milliy gʻoya amal qiladigan ustuvor gʻoyalar sifatida milliy bagʻrikenglik va dinlararo bagʻrikenglikka asoslash turli xalqlar va millatlar oʻrtasida oʻzaro hamjihatlik totuvlikni taʼminlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir. Chunki milliy gʻoya «aholining barcha qatlamlarida mafkuraviy, madaniy-maʼrifiy, tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda olib borish - bu zamon talabidir. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur, chunki mafkura boʻlmasa odam, jamiyat, davlat yoʻlini yoʻqotishi muqarrar». Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, milliy bagrikenglik - turli milatga mansub kishilarning birbirlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urfodati va anʼanalarini, milliy madaniy merosini hurmat qilishni, ularning shaʼni, qadrqimmatini, ornomusini qadrlash orqali amalga oshadigan oʻziga xos maʼnaviy kenglikni (bagrikenglikni) anglatadi. Milliy bagrikenglik bunga zid boʻlgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga taʼminlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uygun koʻrish va taʼminlash asosida mustahkamlanib boradi. U yoki bu qadriyatning ahamiyatini aniqlashda ana shunday tizimlar mavjud ekanligini unutmaslik, uning biror davr, ijtimoiy birlik, soha, jarayon va boshqalar uchun qanday mavqega ega ekanligini nazardan qochirmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O'zbekiston 2018.
2. Islom Karimov. "yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" toshkent Ma'naviyat 2008
3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. To'shkwnt O'zbekiston 20171. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008 yil.
4. Karimov I.A. O'zbekiston – mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2011.
5. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yahada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezon. 19 jild.T. O'zbekiston, 2011.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. T., O'zbekiston, 2012.
5. Falsafa. T., 2006.

XAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'SMIRLAR BILAN ISHLASHDA PEDAGOGNING ROLI.

Xolmirzayev Shavkat Abdulazizovich
University of Business and Science katta o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada xamkorlik texnologiyasi asosida o'smirlar bilan ishlashda pedagogning roli va ta'lim jarayonidagi ahamiyati o'rganilgan. Maqolada xamkorlik texnologiyalarini qo'llashning o'smirlarning akademik yutuqlari, ijtimoiy faolligi va psixologik holatini qanday yaxshilashga imkon berishini ko'rsatuvchi ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xamkorlik metodlari yordamida o'quvchilarning o'zaro aloqalari mustahkamlanib, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi.

Kalit so'zlar: Xamkorlik texnologiyasi, Pedagogik hamkorlik, O'smirlar bilan ishlash, Akademik yutuqlar, Ijtimoiy faollik, Pedagog malakasi, Ta'lim jarayoni, Pedagogik metodlar.

РОЛЬ ПЕДАГОГА В РАБОТЕ С ПОДРОСТКАМИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ СОТРУДНИЧЕСТВА.

Аннотация: В данной статье исследуется роль педагога и важность образовательного процесса при работе с подростками на основе технологий сотрудничества. В статье приводятся научные исследования и статистические данные, которые демонстрируют, как применение технологий сотрудничества способствует улучшению академических достижений подростков, социальной активности и психологического состояния. Также рассматривается, как использование методов сотрудничества помогает укрепить взаимоотношения между учащимися и развить навыки работы в группе.

Ключевые слова: Технология сотрудничества, Педагогическое сотрудничество, Работа с подростками, Академические достижения,

Социальная активность, Педагогическое мастерство, Образовательный процесс, Педагогические методы.

THE ROLE OF THE EDUCATOR IN WORKING WITH ADOLESCENTS BASED ON COLLABORATIVE TECHNOLOGY.

Annotation: This article examines the role of the educator and the significance of the educational process when working with adolescents based on cooperative technologies. The article presents scientific research and statistical data demonstrating how the application of cooperative technologies helps improve adolescents' academic achievements, social activity, and psychological well-being. It also discusses how the use of cooperative methods strengthens interpersonal relationships among students and enhances group work skills.

Keywords: Cooperative technology, Pedagogical cooperation, Working with adolescents, Academic achievements, Social activity, Pedagogical competence, Educational process, Pedagogical methods.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'smirlarni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashga ham qaratilgan. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun pedagoglarning o'z pedagogik faoliyatini yangicha yondashuvlar bilan boyitishi zarur. Xususan, xamkorlik texnologiyasi asosida o'smirlar bilan ishlashda pedagogning roli juda katta ahamiyat kasb etadi. Xamkorlik texnologiyasi o'quvchilarni faqat passiv bilim oluvchilar sifatida emas, balki faol ishtirokchilar, o'z fikrlarini erkin bildiruvchi va o'zgalar fikrini hurmat qiluvchi shaxslar sifatida shakllantiradi.

Xamkorlik texnologiyasi-bu o'quvchi va pedagog o'rtasida o'zaro hamjihatlikni ta'minlaydigan, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga undaydigan pedagogik metodologiyadir. Ushbu texnologiya ta'lim jarayonini demokratiyaga asoslangan holda olib borishni taqozo qiladi, bunda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki hamkor, maslahatchi, motivator va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida ishtirok etadi. Xamkorlik texnologiyasida o'smirlar o'zaro muloqot qilish, fikr almashish, jamoaviy muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. O'smirlar o'qish jarayonida nafaqat bilimlarni olish, balki o'zaro munosabatlar, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, va ijodiy fikrlashni o'rganadilar. Pedagog bu jarayonda o'quvchilarni nafaqat o'z bilimlarini to'plashga, balki jamoada ishlashga, boshqalar fikrlarini hurmat qilishga, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga yo'naltiradi.

Xamkorlik texnologiyasining o'smirlar bilan ishlashdagi o'rni shundaki, bu yondashuv o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini, mustaqil fikrlashini va qarorlar qabul qilishda o'z imkoniyatlarini his etishlarini rivojlantiradi. Pedagogning roli esa shaxsiyatni rivojlantirishda, ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, xamkorlik texnologiyasining o'smirlar bilan ishlashda pedagogning roli

nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. O'smirlar bilan ishlashda xamkorlik texnologiyasining ta'siri va pedagogning roli haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'plab ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Xususan, Allamova Shahista Yuldashboyevnaning "Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini shakllantirishning psixologik asoslari" nomli maqolasida o'smirlarning intellektual muvaffaqiyatlarini shakllantirishda pedagogik hamkorlikning o'rnini ta'kidlanadi [1]. Shuningdek, pedagogik hamkorlikka asoslangan shaxsga yo'naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiyalar haqida M. To'xtaxo'jayeva va S. Nishonovaning "Pedagogika" darsligida ma'lumotlar mavjud [2].

Xamkorlik pedagogikasi-bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. Bu pedagogik modelda o'qituvchi o'quvchilarni faqatgina bilim olish jarayonida emas, balki ular bilan birgalikda fikr almashish, qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishda ishtirok etishga undaydi. Xamkorlik pedagogikasida o'qituvchi va o'quvchilar teng huquqli hamkordir. Bunda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki maslahatchi, yo'l boshchi va qo'llab-quvvatlovchi sifatida ishtirok etadi. O'quvchilar esa o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, ijodiy fikrlashga va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatiladi.

Xamkorlik pedagogikasining o'smirlar bilan ishlashdagi o'rnini. O'smirlar - bu o'ziga xos yosh davrida bo'lgan shaxslar bo'lib, ular ichki dunyo, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar bilan yuzma-yuz keladilar. Bu yosh davri-o'zlikni anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish, yangi maqsadlar va qiymatlar tizimini shakllantirish davri hisoblanadi. Shu sababli, o'smirlar bilan ishlashda xamkorlik pedagogikasining o'rnini juda katta.

-Shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv; Xamkorlik pedagogikasi o'smirlar bilan ishlashda ularga o'z fikrini erkin ifodalash, ijtimoiy vazifalarni va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini ochiq bildirish, jamoada ishlash va o'zaro yordam ko'rsatish kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

-Samarali muloqot va boshqaruv; Xamkorlik pedagogikasi muloqotning yuqori darajasini ta'minlaydi. O'smirlar o'z fikrlarini erkin bildirishga va boshqalar bilan o'zaro hamjihatlikda ishlashga o'rganadilar. Bu o'z navbatida ularning ijtimoiy mas'uliyatni, jamoaviy ishlashni va umumiy qarorlar qabul qilishni rivojlantiradi.

-O'quvchilarning shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatni his qilishini oshirish; O'smirlar xamkorlik pedagogikasida o'quv jarayoniga faollik bilan ishtirok etadilar. Bu ularning shaxsiy mas'uliyatni his qilishiga yordam beradi. O'smirlar o'zlarining o'quvdagi muvaffaqiyatlariga, guruhdagi rolga va umumiy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

-Muammolarni hal qilishda kreativ yondashuv; Xamkorlik pedagogikasi o'smirlarni kreativ fikrlashga va muammolarni birgalikda hal qilishga undaydi. O'smirlar o'zlarining ijodiy yondashuvlarini va turli qarashlarini bildirishi

mumkin, bu esa ular uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogning roli.

Xamkorlik pedagogikasi asosida o'smirlar bilan ishlashda pedagogning roli nafaqat bilimlarni yetkazishda, balki o'quvchilarning rivojlanishiga yordam berish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda ham muhimdir.

-Yo'l boshchi va qo'llab-quvvatlovchi; Pedagog xamkorlik pedagogikasida o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishga, ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beruvchi yo'l boshchi sifatida ishlaydi. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularga ishonch yaratish va ularning o'z fikrini hurmat qilish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir.

Maslahatchi va rahbar; Pedagog o'smirlarga jamiyatda va o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda maslahatchi sifatida yordam beradi. Ularning fikrlarini tinglab, maslahatlar berish va qo'llab-quvvatlash orqali, pedagog o'smirning ichki dunyosini va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

-Motivator; Pedagog o'smirlarni rag'batlantirishi va motivatsiya qilish orqali, ularga o'z imkoniyatlarini aniqlashga va harakat qilishga yordam beradi. O'smirlarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish va ularni yangi yondashuvlarga undashda pedagogning roli katta.

-O'quv jarayonida hamkor; Pedagog o'quvchilarga faqat bilim beruvchi emas, balki hamkordir. Ular bilan birgalikda ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi, birgalikda muammolarni yechishga harakat qiladi va jamoaviy ishni rivojlantiradi.

Xulosa. Xamkorlik pedagogikasi o'smirlar bilan ishlashda pedagogning roli va ta'lim jarayonidagi o'rni jihatidan katta ahamiyatga ega. Xamkorlik texnologiyasi o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat akademik yutuqlarga, balki o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik hamkorlik o'quvchilarni jamiyatda faollikka, o'zaro hurmat va hamjihatlikka yo'naltiradi, shu bilan birga, pedagoglarning malakasini oshiradi va ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Amaliy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xamkorlik texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari o'rtacha 15% ga yaxshilanishiga olib keladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va psixologik holati ham sezilarli darajada yaxshilanadi. Xamkorlik pedagogikasi metodlari nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning shaxsiy va jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda xamkorlik texnologiyasining ta'lim tizimida kengaytirilgan qo'llanilishi natijasida, o'smirlar va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro aloqalar yanada mustahkamlanadi, o'quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatlari yanada rivojlanadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun pedagoglar o'z malakalarini muntazam ravishda yangilab borishlari va innovatsion metodlarni qo'llashda davom etishlari zarur. Xamkorlik pedagogikasi metodlarini kengroq tarqatish va yanada chuqurroq tadqiq etish, ta'lim tizimini rivojlantirishda

muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. PEDAGOGIK MAHORAT ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 10
2. O'zbekiston faylasuflar1 milliy jamiyati nashriyoti toshkent - 2010
3. Jurayev B.T. (2022). Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Buxoro: Fan va ta'lim.
4. Buxoro davlat universiteti. (2022). Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbiqlari maqolasi. Uniwork. uniwork.buxdu.uz
5. Scienceweb. (2023). Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbiqlari. api.scienceweb.uz
6. To'xtaxo'jayeva M., Nishonova S. (2020). Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi.
7. Sirdaryo viloyati pedagoglarini malakasini oshirish markazi. (2023). Pedagogik hamkorlik metodlarini qo'llashning samaradorligi. sirdaryomoi.uz
7. N.Ziyouz (2023). Pedagogika darsligi. n.ziyouz.com
8. Renessans Ta'lim. (2023). Pedagogik hamkorlik: nazariya va amaliyot. renessans-edu.uz
9. Pedagogika va mehnat ta'limi. (2023). Pedagogik hamkorlikda samarali boshqaruv. menejment.uz
10. Pedagogik diagnostika va korreksiya o'quv fani. renessans-edu.uz

ТИББИЁТ ПЕДАГОГИКА ВА УНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИГА ОИД АЙРИМ ИЛМИЙ МУЛОҲАЗАЛАР

*Феруза Закирова,
Ўзбекистон Республикаси
ИИВ Марказий поликлиникаси
бошлиғи, педагогик фанлари бўйича
фалсафа доктори(PhD) , полковник.*

Аннотация: Мазкур мақолада ИИВ курсант ва тингловчиларининг тиббий компетентлигини оширишда тиббий педагогиканинг имкониятларининг аҳамияти ёритилган.

Калит сўзлар: Тиббиёт, педагогика, тиббий педагогика, таълим, тарбия, саломатлик, соғлом турмуш тарзи, ҳаёт сифати, рухий зўриқиш (стресс).

НЕКОТОРЫЕ НАУЧНЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О МЕДИЦИНСКОЙ ПЕДАГОГИКЕ И ТЕНДЕНЦИЯХ ЕЕ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ

Аннотация: В данной статье освещаются значение возможностей медицинской педагогики в повышении медицинской компетентности курсантов и стажеров МВД.

Ключовые слова: Медицина, педагогика, медицинская педагогика, образование, обучение, здоровье, здоровый образ жизни, качество жизни, психическое напряжение (стресс).

SOME SCIENTIFIC CONSIDERATIONS ON MEDICAL PEDAGOGY AND TRENDS IN ITS FORMATION AND DEVELOPMENT

Abstract: This article highlights the importance of the possibilities of medical pedagogy in increasing the medical competence of cadets and trainees of the Ministry of Internal Affairs.

Key words: Medicine, pedagogy, medical pedagogy, education, training, health, healthy lifestyle, quality of life, mental tension (stress).

Кириш.

Соғлиққа бўлган эҳтиёж ҳар бир инсон ҳаётининг исталган вақтида энг асосийларидан биридир. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев халқимизга қарата: “Ҳаётда ўз исботини топган бир ҳақиқат ҳам доим ёдимизда туриши зарур: фақат соғлом ва баркамол миллатгина буюк ишларга қодир бўлади. Бинобарин, шундай экан, халқнинг саломатлиги даражаси мамлакатимизнинг салоҳияти, ҳаёт сифати ва келажак авлодларнинг тақдирини белгиловчи, миллий хавфсизлигимизни таъминловчи энг муҳим кўрсткичлардан бири ҳисобланади” [1].

Маълумки, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Аҳолига тиббий ва ижтимоий-тиббий хизмат кўрсатиш қулайлиги ва сифатини оширишга, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантиришга, тиббиёт муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлашга йўналтирилган ҳолда соғлиқни сақлаш соҳасини, энг аввало, унинг дастлабки бўғинини, тез ва шошилишчи тиббий ёрдам тизимини янада ислоҳ қилиш” [2] каби вазифалар белгиланган эди.

Шу боис ҳам янги Ўзбекистон тарихида давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан илк ислохотлар айнан фуқароларнинг саломатлиги ва хавфсизлигини таъминлаш соҳаларида бошланди. “Халқимиз Яратгандан, аввало, тинчлик-хотиржамликни сўрайди. Шундан сўнг, ўз уйим, бошпанам бўлса, оилам, бола-чақам билан соғ-саломат яшасам, дейди. Биз халқимизнинг ана шундай орзу-ниятларини рўёбга чиқариш учун иккита масалага, яъни ички ишлар ва соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилишга катта эътибор қаратаёلمиз” [3], деган эди.

Ўтган 8 йил мобайнида мамлакатимизда соғлом турмуш тарзини қарор топтириш учун жамиятда, энг аввало, тиббий маданият ва саводхонликни шакллантиришнинг ўрни бекиёс эканлиги идрок этирилди. Ҳар бир инсон ўз саломатлигини асрашга қаратилган маълум кўникмаларни билса, тиббиётга оид билимлардан бохабар бўлсагина, соғлом турмуш тарзини қарор топтиришга хизмат қилаши кенг аҳоли қатламига сингдирилди.

Барча учун сифатли ва профессионал тиббиётни яратиш – Янги

Ўзбекистон тараққиёт стратегияларининг муҳим йўналишидир. Булар: 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси (2017 йил 7 февраль, ПФ-4947) ва 2022-2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегияси (2022 йил 28 январь, ПФ-60 фармони) [4] ҳамда “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида [5] (2023 йил 11 сентябрь, ПФ-158).

Инсоннинг иш фаолиятини, бўш вақтини сарфлаш шакли, иқтисодий ва маънавий хоҳиш-истакларини қондириш жараёни турмуш тарзи деб юритилади. Турмуш тарзининг соғлом бўлиши жамият ривожига муҳим саналади. Соғлом турмуш тарзи меҳнат унумдорлигини оширади, сифатли иқтисодий ўсиш бўлади.

Соғлиққа нисбатан “турмуш тарзи” тушунчасини инсон саломатлиги боғлиқ бўлган меҳнат, маиший, дам олиш фаолияти тизими сифатида аниқлаш мумкин. Кўпгина олимлар бу концепцияни инсоннинг мафкуравий интилиши ва маънавий саломатлиги омиллари билан тўлдиришни зарур, деб билишади.

“Соғлом турмуш тарзи” тушунчаси умуман турмуш тарзига нисбатан торроқдир. “Соғлом турмуш тарзи” – бу одамлар саломатлигини сақлаш, яхшилаш ва мустаҳкамлашга қаратилган фаолиятдир. У икки усулда шаклланади: биринчидан, хавф омилларини камайтириш ва бартараф этиш орқали; иккинчидан, шахс саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш учун шароит яратиш орқали.

Мамлакатимизда ижтимоий соҳалар, айниқса, одамларда энг кўп эътироз уйғотаётган соғлиқни сақлаш, таълим-тарбия, табиий газ ва электр энергияси, ичимлик суви таъминоти, коммунал хизмат, йўл қурилиши соҳаларида мавжуд аҳволни ижобий томонга ўзгартириш ишлари фаоллашди.

Бугунги кунда жаҳонда миллий, диний ва умуминсоний қадриятларни асраб-авайлаш, ижтимоий-фалсафий жиҳатларини ҳамда маънавий жараёнларни таъминловчи омил усул, ва тартибга солувчи восита сифатида тадқиқ этиш илмий ва амалий аҳамиятга эгадир. Шахс муайян маданий-тарихий асосларга, хусусан, аجدодлар меросига, унинг ҳаётбахш тамойилларига таянгандагина маънавий-ахлоқий камолотга эришади. Зеро, бугунги кунда тарихий хотирани уйғотиш, маънавий-ахлоқий тамойилларни ўрганиш ва тиклашга бўлган эҳтиёж уларни ўрганишнинг долзарблигини кўрсатмоқда. Бинобарин, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармонининг “Маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш” бешинчи устувор йўналишида буюк аждодларимизнинг бой илмий таълимотларини чуқур ўрганиш ва уни кенг тарғиб этиш вазифаси белгиланди [3].

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон”(2024) асарининг “Фақат соғлом халқ, соғлом миллатгина буюк ишларга қодир” номли бобида: “Исбот талаб қилмайдиган ҳақиқат

шуки, одамзод ҳамиша Яратгандан, энг аввало, ўзи ва оила аъзоларининг, яқинларининг соғлигини тилайди, ҳар бир инсон соғлом бўлиш ва узоқ умр кўришни орзу қилади. Чиндан ҳам, саломатлик – бебаҳо неъмат ҳисобланади.

Ота-боболаримиз ҳам азалдан бу масалага жиддий аҳамият қаратганлар. Аждодларимизнинг асрлар давомида Шарқ тамаддунининг ажралмас ва муҳим қисми сифатида узлуксиз ривожланиб келган беқиёс тиббий тафаккури ва мероси ҳозирги кунда ҳам инсоният равнақига ҳизмат қилмоқда” [1].

Таҳлиллар. Тиббиётимиз педагогикаси тарихига назар олсак, унинг илдизи ниҳоятда чуқур эканлигига гувоҳ бўламиз. Хусусан, кўпчилик олимлар юртимизда тиббиёт илмининг пайдо бўлишини қадимги зардуштийлик таълимоти ва ҳатто, ундан олдинги даврларга бориб тақалишини эътироф этишади. Хусусан, зардуштийлар таълимотининг жамланмаси ҳисобланган қонунларнинг асосий қомдасини ўзида мужассам этган “Авесто” китобининг бизгача етиб келган қисмида одам анатомияси ва физиологияси бўйича бугунги замонавий тиббиёт ва илм фандаги қарашларга анча яқин бўлган қизиқарли тиббий маълумотларни учратиш мумкин. Расмий нашрларда таъкидлаганишича, “Авесто тиббиёти”га оид илмий хулосалар қадимги аждодларимизнинг тиббий тафаккури антик Юнонистонда фаолият кўрсатган Алкмеон, Гиппократ каби машҳур файласуф ва табобат илми даҳолари билан бир пайтда ва ўзаро таъсирда ривожланган, дейиш учун асос бўла олади” [1].

Имом Бухорий тўплаган ҳадисда Муҳаммад (с.а.в.) давридаги саломатлик ва тиббиётга оид қимматли фикрлар мавжуд. Унинг башоратли тиббиёт ҳақидаги ҳужжатлари анъанавий даволаш усуллари ва уларнинг илмий асосларини ўрганувчи замонавий тадқиқотчиларнинг қизиқишини уйғотди, ҳадисларда инсоннинг хулқ-атвори ва ахлоқининг кенг доирасига тўхталиб, психология ва ахлоқ соҳасидаги замонавий тадқиқотлар учун асос яратади.

Буюк муҳаддис бобомиз Имом Бухорий ҳазратларининг “Ал-Жоме ас-саҳиҳ” асарида шундай мазмундаги ҳадиси шариф келтирилади: “Икки неъмат борки, кўпчилик одамлар вақтида унинг қадрига етмай алданиб қолганлар. Булар – сиҳат-саломатлик ва фароғат”. Яъни тана сиҳатини асраб-авайлаш масаласига инсоннинг муқаддас бурчи ва ҳаққи сифатида қараш ғояси ўтмишда ҳам, ҳозир ҳам тараққёт фалсафасининг ўта муҳим қисмларидан ҳисобланади. Имом Бухорий меросининг гултожи бўлмиш энг ишончли ҳадислар тўплами – “Ал-жомеъ ас-Саҳиҳ” китоби ислом динида Қуръони каримдан кейинги иккинчи муқаддас манбаъ бўлиб, аҳли ислом эътиқодига кўра, у башарият томонидан битилган китобларнинг энг улуғи ҳисобланади. Мана, ўн икки асрдирки, бу китоб миллионлаб инсонлар қалбини имон нури билан мунаввар этиб, Ҳақ ва диёнат йўлига чорлаб келмоқда.

Ҳадис” арабча сўз бўлиб, ўзбек тилида “гап”, “сўз”, “хабар”, “ҳикоя”, “янги”, “замонавий” деган маъноларни англатади. Истилоҳда эса Пайғамбар

(с.а.в.) томонидан айтилган сўзлар, қилинган ишлар, унинг тақрирлари, ташқи кўриниши ва ахлоқига оид сифатлар ҳақидаги маълумотларни ўз ичига қамраб олган ривоятларга нисбатан қўлланилади.

Хусусан, “Ал-жомеъ ас-саҳиҳ” асарида илм, одоб, кийиниш, овқат ейиш, одамлар билан муомала қилиш кенг ёритилган. Бу асарда инсонни комилликка ундайдиган инсоний фазилятлар қаторида, ахлоқий жиҳатдан пок, меҳрибонлик, саховатлилик, очиқ кўнгиллилик, ота-онага эътибор, катталарга ҳурмат, болаларга ғамхўрлик ва қариндошлар, камбағал ва муҳтожларга меҳр-оқибат, юртга муҳаббат, меҳнат ва касбни улуғлаш, ҳалоллик, поклик, ўзаро дўстлик, тинч-тотув яшаш каби фазилятлар юксак қадрланади”[6].

Гарчи, уни “Авиценна” сифатида Ғарбда машҳур қилган унинг тиббий мероси, хусусан, “Тиб қонунлари” бўлсада, “Шайх ар-раис” номи, энг аввал, унинг буюк файласуфлигига ишорадир.

Ибн Синонинг табобатда қилган ишлари унинг номини бир неча асрларга шу фан соҳаси билан чамбарчас боғлади. Олимнинг табобат тараққиётидаги буюк хизмати шундаки, у ўзигача ўтган турли халқ намояндалари томонидан асрлар давомида тиб илми соҳасида тўпланган маълумотларни саралаб, муайян бир тартибга солди ва уларни ўз тажрибалари билан бойитган ҳолда маълум назария ва қонун-қоида асосида умумлаштирди. Бунга унинг «Тиб қонунлари» ва бу асарнинг жаҳон тиб илми тарихида тутган мавқеи ва қозонган шуҳрати ёрқин далилдир. Ибн Синонинг табобат соҳасида қилган ишлари ўша давр табobatiни бир неча асрларга илгарилатди ва айрим соҳаларда ҳатто ҳозирги замон тиббиётига яқинлаштирди ҳам. Олим яшаган даврда бу соҳада антик олимларнинг, хусусан Гиппократ, Гален, Диоскорид ва бошқанинг таълимоти устувор эди. Ибн Сино ҳам ўз тиббий фаолиятида уларнинг назарий қарашлари ва амалий кўрсатмаларига таянди, лекин уларни Ҳиндистон, Хитой, Ўрта Осиё, Шарқ олимларининг ҳамда уз тажрибалари ва билимлари асосида ривожлантирди ва бойитди. Ибн Синонинг даҳо табиб сифатида шуҳрат қозонишининг асосий омилларидан бири – унинг тиб назариясини, хусусан, анатомия – инсон гавдаси тузилишини мукаммал билишлигидир.

Касалликни даволашда Ибн Сино шахсий гигиена, уйқу ва жисмоний машқларнинг аҳамияти катталигини уқтирган.

Абу Али ибн Сино орадан ўн аср ўтса ҳам ноёб қиммати ва илмий аҳамиятини йўқотмаган “Тиб қонунлари” асари билан ўзига ўлмас ҳайкал қўйиб кетди.

Ибн Сино ўзининг бой ва серқирра илмий мероси билан кейинги давр Шарқ ва Ғарб маданиятининг ривожига катта таъсир кўрсатди.

Форобий таълимотида Фозиллар шахри ҳокимининг фазилятлари” [7] муҳим ўрин тутди. Қуйида Форобийнинг “Фозиллар шахри” ҳокимининг 12 та фазилятларидан бирини келтирамиз.

Бундай шаҳарга ҳоким бўладиган одам (Аллоҳдан бошқа) ҳеч кимга бўйсунмаслиги керак. Фозиллар шахрининг биринчи бошлиғи шу шаҳар

аҳолисига имомлик қилувчи оқил киши бўлиб, у табиатан ўн иккита хислат-фазилатни ўзида бирлаштирган бўлиши зарур.

Фозиллар шаҳри ҳокими аввало тўрт мучали соғ-солим бўлиб, ўзига юкланган вазифаларни бажаришида бирор аъзосидаги нуқсон ҳалал бермаслиги лозим, аксинча, у соғ-саломатлиги туфайли бу вазифаларни осон бажариши лозим.

Аждодларимиз меросини ўрганиш тиббий педагогиканинг нақадар зарурият эканлигини билдиради.

Маълумки, хизмат ва ҳаёт фаолияти давомида Ички ишлар ходимлари турли омиллар сабаб бир ёки бир неча бор стресс ҳолатига тушиб қолади. Стресс ходимлар фаолиятига салбий таъсир кўрсаталди. “Стресс” инглизча сўздан олинган бўлиб, босим, кучланиш, танглик деган маъноларни англатади. Яъни оғир шароитларда одамда пайдо бўладиган психик (руҳий) танглик ҳолати ҳисобланади. Фанда стресс ҳақида дастлаб канадалик физиолог Г. Селье (1936) гапириб ўтган.

Шу боис Ички ишлар органларининг таълим муассасаларида курсант ва тингловчиларига чидамлилик ва бардошлилик каби сифатлар ҳақида англатиш зарур.

Ушбу муаммо бўйича, Абу Райҳон Беруний, Абу Али Ибн Сино, Абу Наср Форобий, Алишер Навоий, Абу Бакр ар-Розий, Исмоил Журжоний, Масихий Ал Карвакий, Чағминий каби Шарқ мутафаккирларининг асарларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Улар ўз асарларида шахснинг инсонларни тушуниш, мулоқотмандлик, суҳбатдошнинг хулқ-атвори, хатти-ҳаракатлари, кечинмаларига нисбатан адекват сезувчанлик, ахлоқий установакалар каби сифатларининг намоён этилишини “юқори даражадаги ахлоқий сифатлар” [8] деб таърифлаганлар.

Улуғ мутафаккир К. Д. Ушинскийнинг қуйидаги фикрлари эътиборга лойиқ: “Тарбия –бу инсон руҳиятининг энг катта масаласидир. Педагогика биринчи ва олий санъатдир. Чунки, у инсон табиатининг ўзи мукамаллигини ифодалашга интилади”, деган бўлса рус ёзувчиси Л. Н. Толстой бу масалада қуйидагича фикр юритади: “Тарбия ҳам, таълим ҳам бир-биридан ажралмас. Илмни бермасдан туриб, таълим бера олмаймиз. Билим тарбиявий аҳамиятга эга” [9]. Мутафаккир ва педагог Л.Н.Толстой яна шундай ёзган эди: “Таълим педагогиканинг предмети эмас, балки педагогика эътибор бермаслиги мумкин бўлган ҳодисалардан биридир. Кенг маънода таълим, бизнингча, инсонни ривожлантирувчи, унга кенг дунёқарашни берувчи, янги маълумот берувчи барча таъсирларнинг йиғиндисидир” [10].

Шу боис таъкидлаш зарурки, замонавий тиббий таълим, инновациялар ва рақамли технологиялар замонавий тиббий педагогиканинг шаклланишига олиб келади. Ички ишлар таълим муассасалари ўқув режалари, дастурлари, ўқув–услубий материаллар ва назарий машғулотлар курсант ва тингловчилар тиббий маданиятини оширади.

Тиббий педагогика инсоннинг саломатлигини таъминлаш орқали

уларнинг умрини узайтиради. Тиббий педагогика - бу тиббий таълимнинг педагогик таркибий қисми бўлиб, у тиббий амалиёт билан боғлиқ таълим ва тарбиянинг объектив жараёнларини ўрганади.

Ички ишлар органлари фаолиятидаги яна бир муҳим жиҳатга эътибор қаратиш зарур. Бу аввало, жисмоний куч, махсус воситалар ва ўқотар қуролларни қўллашнинг ахлоқий мазмунини аниқлаш: зўравонлик фақат қонунда назарда тутилган ҳоллардагина қўлланилиши мумкин, зўравонлик янада ёмонликни бостиришга хизмат қилгани учун қўлланилиши мумкин ва бунда ёвузлик тушунчаси белгиланган. Қонунга кўра, зўравонлик қўлланилиши мумкин, чунки ёвузликка қарши курашнинг бошқа усуллари самарасиздир; зўравонлик қонуний асосли қўлланган тақдирда, ички ишлар ходими етказилган зарарни минималлаштиришга, биринчи тиббий ёрдам кўрсатишга ва энг қисқа муддатда ёрдам кўрсатиш чораларини кўришга мажбурлигини англатиш.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонунида таълим ва тарбияга таърифлар берилган. Ушбу таърифларни “Тиббий педагогика”нинг мазмун-моҳиятини ойдинлаштиришда фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Булар: [11].

тарбия — аниқ мақсадли ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида ёш авлодни ҳар томонлама камол топтиришга, уларнинг онгини, маънавий-ахлоқий қадриятлар ва дунёқарашини шакллантиришга қаратилган тизимли жараён;

таълим — таълим олувчиларга чуқур назарий билим, малакалар ва амалий кўникмалар беришга, шунингдек уларнинг умумтаълим ва касбий билим, малака ҳамда кўникмаларини шакллантиришга, қобилиятини ривожлантиришга қаратилган тизимли жараён.

Бизнингча Ички ишлар вазирлиги тизими таълим муассасаларида “Тиббий педагогика”ни фан сифатида ўқитиш ва уни жорий этиш ходимларда зарур касбий компетенцияни ривожлантиришда муҳим ўрин тутди.

Янги Ўзбекистон аталмиш воқеликни вужудга келтириш ва мустаҳкамлаш учун ҳар бир инсондан, халқимизнинг ҳар бир вакилидан, айниқса, давлат хизматчиларидан алоҳида ички қувват, чексизликка туташувчи ботиний куч талаб этилмоқда. Таълим масканларида ёшларга билим бериш жараёнида англашиниладики, ана шу ички куч ҳар бир инсон руҳида яширин бўлар экан. Қанча инсон бўлса, шунча тақдир бор, ҳар бирининг ўз маънавий олами борлигига амин бўласиз. Демак, ўз Ватанининг жонкуярини тарбиялаш ва уларнинг яшириниб ётган салоҳиятини юзага чиқариш муқаддас касб экан. Демак, мустақил шахсни тарбиялар эканмиз, инсон маънавиятни ўзи учун кашф этиши кераклигини уқтиришимиз зарур бўлади.

Бунинг учун, аввало, курсант ва тингловчиларнинг руҳидаги худбин майлларни, ёлғон ҳою ҳавасларни, рўёларни енгиб, чексиз қудрат манбаига қалбини очиши борасида аждодларимиз меросига таяниш зарур бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Т., – 2024. – 180-б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – №6 (766). – 70 модда. – Тошкент: Адолат, 2017. – 38-б.
3. Шавкат Мирзиёев турли унвонлар, орден ва медалларни ўз эгаларига топширди // URL: <http://xs.uz> (Халқ сўзи, 07.12.2017).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли фармони фармони. www.uza.uz.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030 стратегияси” тўғрисидаги ПФ-158 фармони. www.uza.uz.
6. https://www.ajtmr.com/papers/Vol12Issue1/Vol12Iss1_P5.pdf
7. Қаранг: Форобий А. Н.Фозил одамлар шахри. Т., 1993. – 159-160-б.
8. Диагностика социального интеллекта (1999). Тест Дж. Гилфорда и М. Саливана. СПб.
9. Кудрявая и др. Педагогика в медицине. Учебное пособие. 2-е издание.–Издательский центр “Академия”-М.: 2012. – С. 7.
10. Толстой Л. Н. Воспитание и образование. // Собр.соч.: в 22 т. М., 1983.- Т. XVII. – С.33.
11. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 01.02.2024 й., 03/24/901/0082-сон

“ПРИСЯГА ПЕДАГОГА” В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Нигматов Аскар Нигматуллаевич
Доктор географических наук, профессор

Аннотация: Впервые в педагогическом образовании был поднят вопрос о принятии “Присяги педагога”. В нем раскрываются требования, содержание, суть и приводится её текст на основе национального законодательства и опыта принятия соответствующей профессиональной присяги в других отраслях жизнедеятельности человека.

Ключевые слова: Присяга, опыт, педагогика, закон, требования, содержание, текст, суть.

PEDAGOGIK TA’LIMDA “PEDAGOG QASMYODI”

Annotatsiya: Maqolada ilk bor pedagogik ta’limda “Pedagog qasamyodi”ni qabul qilish masalasi ko’tarildi. Unda, tibbiyot va harbiy

bo‘linmalarda tegishli kasbiy qasamyodni qabul qilish tajribasidan kelib chiqqan tarzda, milliy qonunchilik asosida pedagog qasamyodining talablari, mazmuni va mohiyati ochib berilgan hamda uning matni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Qasamyod, tajriba, pedagogika, qonun, talablar, mazmun, matn, mohiyat.

“TEACHER’S OATH” IN TEACHER EDUCATION

Annotation: For the first time in pedagogical education, the issue of adopting the “Teacher’s Oath” was raised. It discloses the requirements, content, essence and provides its text based on national legislation and the experience of adopting the corresponding professional oath in other areas of human activity.

Keywords: Oath, experience, pedagogy, law, requirements, content, text, essence.

Греческий философ Сократ, живший в 469-399 годах до н.э., писал, что “Три профессии – от Бога, а остальные – от самих людей: медицина (решает человеческую жизнь – А.Н.), юрист (решает человеческую судьбу – А.Н.), учитель-педагог (формирует человеческую просвещенность-духовность, готовит кадров для всех отраслей жизнедеятельности человека – А.Н.).[4] Такие мудрые мысли не утратили своей актуальности и в наши дни. Для меня большая честь быть учителем-педагогом, т.к. я как представитель светской науки, просвещаю широкую массу людей, страюсь наладить образование и воспитание, где бы не находился. Но одно обстоятельство не дает мне покоя в том или ином положении дел. Почему одна из вышеперечисленных трех профессий Сократа – врачи и судьи принимают присягу, а педагоги нет. Хотя педагоги в процессе обучения готовят как медицинский работников так и юристов. От них сависит уровень сознания и культуры всех без исключения высокквалифисированных кадров.

Беглый взгляд на историю возникновения «Клятвы Гиппократа», который был написан на древнегреческом языке ещё в 300 годах до нашей эры в городе

			
Рис 1. Рукопись «Клятвы Гиппократа»	Рис 2. Присяга курсантов в военных вузах Узбекистна	Рис 3. Присяга судей в Республике Узбекистан	Рис 4. Присяга Фермеров с Сырдарьинской области Узбекистана

Александрии (рис. 1), принадлежавшем Элладу [5]. Нынешние варианты

Клятвы претерпели значительным изменениям, адаптированный к современным реалиям и местным условиям. Например, в Северной Америке и Европе она заменена «Профессиональным кодексом». Во многих странах, особенно в мусульманских государствах, медицинский работник обосновывает и получает разрешение от соответствующих государственных органов на проведение аборт. Вот почему такие случаи в медицине исключены из профессиональной клятвы врачей. Это логично.

В большинстве государств существует “Присяга военных”. Это торжественное клятва граждан, проходящих военную службу (рис. 2). Она правовая и политико-моральная норма, отражающий и подтверждающий своей подписью, декларирующая то, что военнобязанный отдаст всю свою силу, знания, потенциал и если это необходимо даже жизнь ради защиты суверенитета государства. Поэтому текст “Военной присяги” во многих странах, в т.ч. Республике Узбекистан был утвержден законом “О всеобщей воинской обязанности и военной службе” от 18 апреля 2018 года и вступил в силу 19 октября 2018 года [2].

Особенно следует отметить на то обстоятельство, что содержание и сущность “Профессиональной клятвы” вытекает из политической структуры, правовой базы [3] и национальных ценностей разных государств (рис. 3,4) = [6]. Исходя из зарубежного и национального опыта текст «Присяге педагога» должен отражать следующие показатели:

- ✓ фамилия, имя, отчество;
- ✓ в будущем овладевает профессией педагога;
- ✓ начало со словом “Клянусь”;
- ✓ перед каким народом и государством должен быть преданным своей профессии;
- ✓ соблюдать каким педагогическим требованиям;
- ✓ как поступать или не поступать в профессиональной деятельности;
- ✓ о согласии правовым и общественным наказаниям, при нарушении клятвы;
- ✓ место принятия присяги;
- ✓ подпись, ФИО и т.п.

“Присяга педагога”, в отличие от других профессиональных присяг, должен выделять более устойчивым содержанием текста, т.к. просвещение и духовность человека обычно носить положительный характер. В этом смысле возникает уместные вопросы – кто такой “Педагог” и какое содержание должен носить “Присяга педагога”? На примере Республики Узбекистан можно рассмотреть ответы на эти вопросы.

Согласно закона Республики Узбекистан “О статусе педагога” от 1 февраля 2024 года **педагог** – это физическое лицо, осуществляющее в образовательной организации профессиональную деятельность в сфере образования и воспитания на основании трудового договора, заключённого в соответствии с актами законодательства, и имеющее соответствующее

образование, профессиональную подготовку и духовно-нравственные качества.[1] Для получения статуса педагога человек должен выполнять следующие законодательные требования:

- работать в образовательных организациях, а точнее в учреждениях;
- осуществлять свою деятельность согласно трудового договора;
- профессиональная деятельность должен соответствовать законодательным нормам образования и воспитания;
- физическое лицо, имеющее соответствующее образование, профессиональную подготовку и духовно-нравственные качества.

Ўзбекистон Республикасининг миллий қонунчилигидан келиб чиққан тарзда **“Педагог қасамёди”нинг матнини** қуйидагича лойиҳа вариантда ифода этиш мумкин:

Вытекая из национального законодательства Республики Узбекистан и с учетом накопленного опыта профессиональных присяг проектный вариант **“Присяги педагога”** можно выразить следующим текстом:

Я (фамилия, имя, отчество) вступая в ряды Педагогов Республики Узбекистан торжественно клянусь служить своему народу согласно требованиям статуса педагога.

Я клянусь, независимо от места нахождения, трудовой или иной деятельности, быть преданным статусу педагога, использовать все свои силы для овладения всесторонних знаний в профессиональной сфере, соответствующих просветительных, духовно-нравственных навыков и квалификаций согласно требованиям времени. Использовать эти педагогические качества в подготовке высококвалифицированных кадров, в формировании высокой сознании и культуры своего народа.

Если же я нарушу эту торжественную клятву, то готов нести ответственность перед национальным законодательством и общественным наказанием своего народа.

Место и дата принятия присяги подпись ФИО (например С.А.Алимов)

Для обретения правового статуса **“Присяги педагога”** по форме и содержанию должен найти свое отражение в национальном законодательном акте и пройти государственную регистрацию. В противном случае теряется ее обязательная сила. Присягу рекомендуется применять физическим лицам, которые начали обучения в педагогических образовательных организациях (или учреждениях) Республики Узбекистан. Это не относится к лицам, которые ранее принимали **“Присягу педагога”** в любом профессиональном учебном заведении Республики.

Принятие этой “Присяги педагога” даст нам следующие положительные результаты:

- 1) физическое лицо, ставящее своей целью стать профессиональным педагогом, насколько ответственная профессия в жизни нации;
- 2) данная ответственность может быть реализована только при наличии глубоких знаний, навыков и квалификации профессионального образования;
- 3) честь педагога – подготовить кадры в любой области жизнедеятельности человека на высоком профессиональном уровне;
- 4) результаты его деятельности могут быть использованы международным сообществом для оценки уровня сознания и культуры его народа;
- 5) необходимость применения своей профессиональной компетенции в любой ситуации и случаях;
- 6) принятие этой присяги несет не только юридическую, но и социальную ответственность

Список использованной литературы

1. Закон Республики Узбекистан “О статусе педагога”. Национальная информационная законодательная база от 01.02.2024 г., № 03/24/901/0082. <https://lex.uz/ru/docs/6786403>.
2. Закон Республики Узбекистан «О всеобщей воинской обязанности и военной службе». <https://www.lex.uz/acts/78721>.
3. Закон Республики Узбекистан «О судах». <https://lex.uz/docs/5534928?ONDATE=29.07.2021>.
4. Марков А. Сократ. Я ничего не знаю. С комментариями и объяснениями.- Москва: ООО «Издательство АСТ», 2019.- 270 с.
5. Клятва Гиппократ. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
6. Присяга фермеров. <https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/19/farmers>.
7. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/harbiylarning_qasamed_matni.
8. Global International Code of Medical Ethics. <https://www.google.com/search?q=Global+International+Code>

UBS Ilmiy Axborotnomasi
Научный Вестник UBS
UBS Scientific Bulletin

2025/1-son

Jurnalda maqolalarni terish 20-martda boshlandi.
31-mart kuni bosishga ruxsat berildi.
Qog'oz bichimi A4. Adadi 20 ta nusxa.
Baxosi shartnoma asosida

Tahririyat manzili:
Namangan shaxri, Beshkapa ko'chasi, 111-uy.
Тел: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** uzinfo@ubsu.uz

Jurnal rasmiy sayti
journal.ubsu.uz/index.php/main/index

© UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE 2025